

ADABIYOTI

MAKTAB

XRESTOMATIYA

6 - sinf



Gulxaniy
ZARBULMASAL

Avaz O'tar
G'AZALLAR



Abay
NASHATLAR

Janni Rodari
RIM ERTAKLARI

TOSHDO'TAU



0000001306

V jild



MAKTAB ADABIYOTI

XRESTOMATIYA

Gulxaniy
ZARBULMASAL

Avaz O'tar
G'AZALLAR

Abay
NASIHATLAR

Janni Rodari
RIM ERTAKLARI




6 - sinf

V jild

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Toshkent

2015



UO'K 821.512.133-3

KBK 83.3.(0)

M20

Gulxaniy

Zarbulmasal. J. 5: 6-sinf /Gulxaniy; G'azallar / Avaz O'tar; Nasihatlar /Abay; Rim ertaklari / J.Rodari; - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. - 180 b. - (Maktab adabiyoti xrestomatiyasi)

Maktab adabiyoti xrestomatiyasining ushbu tomidan Muhammad Sharif Gulxaniy, Abay va Janni Rodarilarning asarlari o'rin olgan. «Zarbulmasal»dan maqol va hikmatli so'zlar, Abayning «Nasihatlar»i va Janni Rodarining mashhur ertaklari sizni o'z olamiga yetaklab kiradi.

UO'K 821.512.133-3

KBK 83.3.(0)

© G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi, 2015

ISBN 978-9943-03-682-6



GULXANIY



MUHAMMAD SHARIF GULXANIY VA UNING “ZARBULMASAL” ASARI

Muhammad Sharif Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligida yashab ijod etgan san‘atkor shoir va mohir masalchidir. U o‘zbek mumtoz adabiyotiga o‘zining ajoyib lirik she‘rlari bilan kirib keldi. Gulxaniy yaratgan g‘azallarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, xalqparvarlik, vafodorlik, kamtarlik ulug‘lanadi, ularda shoirning o‘z zamonasidan noroziligi ham ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Bu asarlar shoirning inson kechinmalarini jozibali, g‘oyat ta‘sirchan tarzda badiiy ifodalash mahoratini egallagan o‘tkir ijodkor bo‘lganidan dalolat beradi.

Gulxaniy o‘z she‘rlarini bir devonga to‘plaganligi haqida ma‘lumotlar bor, lekin haligacha bu devon topilmagan. Qo‘qon xoni Umarxon saroyidagi shoirlar sardori Abdulkarim Fazliy Namangoniy tomonidan 1821-yili tuzilgan «Majmuayi shoiron» tazkirasi orqali Gulxaniyning o‘n ikki g‘azali va bir qasidasi bizgacha yetib kelgan.

Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundan iboratki, u XIX asr folklorchisi sifatida o‘zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to‘plab, o‘zining mashhur «Zarbulmasal» asarini yaratdi. Gulxaniy «Zarbulmasal»ni yaratishda xalq og‘zaki ijodi bilan birga buyuk hind masali «Kalila va Dimna»dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheroziy, Muslihiddin Sa‘diy, Alisher Navoiy kabi ulug‘ va mo‘tabar shoirlarning asarlaridan ham foydalandi.

«Zarbulmasal» asari katta hajmdagi masallardan bo‘lib, Yapaloqqush bilan Boyqush orasidagi qudachilik voqeasi-

ni ifoda etadi. Hajmining kattaligi, qissa yoki hikoya kabi voqealarning bir-biriga bog‘lanib borishi, shu voqealarga bog‘lanib masal va maqollarning berilishi, murakkab syujet chizig‘i va kompozitsiyaga ega bo‘lishi nuqtayi nazardan Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari boshqa yozuvchilarning masallaridan farq qiladi va ko‘proq «Kalila va Dimna»ga yaqin turadi.

Gulxaniy «Zarbulmasal» asarida o‘z davrining eng dolzarb masalalarini badiiy ifodalab berdi. Xususan, hayotiy obrazlar, sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Sho‘ranul, Ko‘rqush, Kordon va boshqalar), hajviy bo‘yoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalning eng muhim estetik fazilatidir.

«Zarbulmasal» asaridagi kuchli badiiy topilmalardan biri shuki, unda har bir salbiy obraz bir-birining xulq-atvorini ayamasdan fosh qiladi. Masalchining xalq orasidan to‘plagan «Zarbulmasal»ining asosiy qahramonlari qushlardir. Unda eng yirtqich qushlardan tortib oddiy qushlargacha namoyon bo‘ladi, ba‘zan yo‘l-yo‘lakay vahshiy hayvonlar (maymun, tulki), uy hayvonlari (tuya, bo‘taloq, eshak), hasharotlar (chayon) obrazlari ham asarda ko‘zga tashlanadi. Lekin bularning har biri insonlarning xulq-atvorini, qiliqlarini, xarakterini, turmushini ifoda etadi. Shu bilan birga, asarda bir qator kishilarning hayotiy obrazlari ham gavdalantirilgan. Zotan, Gulxaniy mehnatkash xalq turmushini yaxshi bilardi. U dehqonlar, kosiblar, chorakorlar, qarollar, go‘lohlar, cho‘ponlar, katta yer egalari, amaldorlar, to‘quvchilar, olimlar, ruhoniylar va boshqalarning hayotini, xarakterini, ichki olamini diqqat bilan o‘rgandi. Bu kuzatishlar shoirga «Zarbulmasal»da misgar Xolboqi, po‘stindo‘z Yodgor bulotqi, Qo‘chqor so‘fi, Ashur yirtiq qassob, Umar kafshdo‘z, Muhammad xo‘ja mufti, Niyozcha og‘aliq kabi hayotiy shaxslarning kulgili obrazlarini yaratish imkonini berdi. Bu obrazlar Yapaloqqush va Boyqush orasidagi voqealar bilan bevosita bog‘lanadi hamda masalning kompozitsiyasini to‘ldirish uchun xizmat qiladi.

Asarda tasvirlangan obrazlarning ko'pchiligi – ular xoh hayvonlar, qushlar obrazi, xoh kishilar obrazi bo'lsin – chirkin illatlar sifatida gavdalanadi. Ochko'zlik, shuhratparastlik, maqtanchoqlik ko'proq Boyo'g'li, Kordon, Yapaloqqush obrazlarida mujassamlantirilgan bo'lsa, kishilar, hayvon va hasharotlar obrazlarida yaramas xulqlar – kaltabinlik, farosatsizlik, manmanlik va boshqalar ifodalanadi.

Gulxaniy o'zi yaratgan obrazlarning xususiyatlarini xilma-xil badiiy topilmalar bilan ochib boradi: ba'zi o'rinlarda ularni o'zi xarakterlaydi, obrazlarning butun qiliqlarini, ichki dunyosini kitobxonga atroflicha namoyish qiladi. Masalan, shoir Yapaloqqushning barcha do'stlarini bir-biridan badtar ig'vogar, xasis, riyokor sifatida tasvirlar ekan, Sho'ranulni – qarg'ani shunday gavdalandiradi: «Yapaloqqushning bir Qarg'a do'sti bor edi, Sho'ranul (Qarg'a) qushlar ko'ziga go'l, o'z ishiga pishiq, haromzodayi tarror, o'g'ri mushuk, harif solor, davlatmandlar asnofida mumsik beor, har yerda o'laksa ustida tayyor, yigirmaning beshini mustahiqqa berib, o'n beshini qo'yniga urgan, tumshug'i shoh Zokirboy kafshfurushning tumshug'iga o'xshar ekan». Ko'ramizki, muallif yuqoridagi qisqa, ixcham, lekin aniq, obrazli tasvirda Sho'ranulning butun xarakterini, xulq-atvorini chizib beradi.

Masalning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, satirik obrazlarning xarakteri, asosan, ularning o'zaro munosabatlari, suhbatlari davomida fosh bo'la boradi. Boyo'g'li, Ko'rqush, Kordon, Yapaloqqushlar bir-birlarining illatlarini ayamay ochib tashlaydilar. Asardagi boshqa obrazlar – kishilar, hayvon va hasharotlarning yaramas xislatlari ham ko'proq qushlarning o'zaro suhbatlari davomida namoyon bo'la boradi. Masalan, Kordon Boyo'g'lining xasis-murdorligini, ming chordevordan bir chordevor kam bo'lsa, qizini bermasligini, o'taketgan takabbur va xudbinligini fosh qilish bilan birga uning qarindosh-urug'lari ham xuddi shun-

day xarakterga ega ekanligini, ularning faqatgina o'z shaxsiy manfaatini ko'zlashini, riyokorligini, ta'magir, axloqsiz va tarbiyasizligini ayamay fosh etadi. Uning Boyo'g'li bilan suhbatida Niyozcha og'aliq, Bobojon Ashur Ali kabi yolg'onchi, nodon, maqtanchoq shaxslarning ham illati tanqid qilinadi:

O'zin goh mullo olur, gah taqi,
Niyozcha og'aliq xush ahmaqi.

Hama ishga yolg'on so'zi dastgir,
So'zin sarf etib qornin aylardi sir.

Bu Niyozcha og'aliqning xarakteri, Kordon Boyo'g'li-ning ikkinchi qarindoshini quyidagicha tasvirlaydi:

Bobojon Ashur cho'loqu Ali biri,
Xo'qand mulkida ahmaqi nodiri.

Kordon har ikkovini yomon niyatli (faj), badburush (kaj) shaxslar sifatida fosh qiladi. Ko'rqush va Kordon suhbatida esa Kordonning hech bir ishning uddasidan chiqmaydigan, laqma bir shaxs ekanligi namoyon bo'ladi. «Sening ismingni Kordon qo'yubdurlar, – deydi Ko'rqush, – ishni bilib qilsang kerak edi va hech ish bilmas ekansan, Kordon ismingning aksini qo'ysalar kerak edi... Sening kordonlig'ing kulol mo'ndida suv ichgandek ekan va bo'zchi belboqqa yolchimas, degandek bo'ldi». Ko'rqushning bu so'zlari orqali oqsuyaklar tabaqasining xulq-atvori fosh qilinadi. Haqiqatan ham, xon atrofini o'rab olgan amaldorlar, ruhoniylar yurt-el uchun emas, faqat o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlagan, xalqni talon-toroj qilgan, o'zaro nizolarga, mamlakatning vayron bo'lishiga sababchi bo'lgan, or-nomusdan uzoq shaxslar edilar. Gulxaniy bu tabaqaning butun ahvolidan xabar-

dor edi, shuning uchun ham u bu obrazlarning qiyofasini haqqoniy tasvirlaydi.

Asarning muhim fazilatlaridan yana biri shundaki, shoir o'zi to'plagan maqollardan obrazlar xarakterini ochishda mohirlik bilan foydalanadi. Masalan, Ko'rqush Yapaloqqush bilan suhbat qilayotganda suhbatdoshining g'ayriinsoniy xulqqa ega ekanini, qallobligini fosh etar ekan, «Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas» maqolini ishlatadi. Kordon bilan Boyqush suhbatida Boyo'g'linning qo'polligini Kordon: «Yaxshilar topib so'zlar, yomonlar qopib so'zlar; it kallasini silasang, tabaqda turmas» maqollari bilan fosh qilsa, Boyqush ham Kordonning o'z amaliga bino qo'yib, o'zini katta olganidan achchig'lanib: «So'zni aytg'il uqqanga, jonni jonga suqqanga, aytib so'zni netarsan, onadin yomon tuqqanga», deydi. Bu maqollar feodal tabaqaning sirlarini fosh qilishga qaratilgan, ular Qo'qon xoni Umarxon zamonasidagi yirik feodallarning axloqiy buzuqligi, xasisligi, shuhratparastligi, maishatparastligi, xudbinligini ochib tashlashda muhim vosita vazifasini bajargan.

«Zarbulmasal» asarida Ko'rqush ijobiy obrazdir.

Ko'rqush boshqa obrazlarning (Yapaloqqush, Kulonkir sulton, Boyo'g'li) xulq-atvorini, yaramas xususiyatlarini ayamay fosh qilish bilan birga ular orasidagi nizolarni tugatishga harakat qiladi, Kulonkir sultonga to'g'ri va odilona maslahatlar beradi: «...ulug'ning dargohida donish va ahli xiradmandi bohush har qancha ko'b bo'lsa ham oz bo'lur. Xususan, podshohi odilg'a uch toifadin guzir va chora yo'qdur: avval olimi boamal... ikkinchi vaziri sohibra'y... uchinchi munshiyi rostnavis... holo bu turgan oshxo'r... taom yemoqqa hozir, maslahatg'a aqli qosir...»

Gulxaniy Ko'rqushning bu so'zlari orqali Qo'qon xoni saroyidagi ahvolga o'z munosabatini bildiradi, amir Umarxon saroyida ham «taom yemoqqa hozir, maslahatga aqli qosir» amaldorlar ko'plab topilishiga ishora qiladi.

Shoir fikricha, xuddi ana shunday amaldorlar tufayli mam-lakat xarobazorga, boyo'g'lilar makoniga aylangan edi.

Ijobiy fazilatlarini ulug'lovchi, yovuzlikni fosh etuvchi «Tuya bilan Bo'taloq» masali, «Ayniya va Rabbo» hikoya-si ham Ko'rqush tilidan hikoya qilinadi. Bu asarlarda Gulx-aniyga xos xalqparvarlik, insonparvarlik yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir erksiz, qashshoq xalqning tarafdori bo'lib maydonga chiqadi, feodallarni insonparvarlikka, rahmdil-likka, xalqqa g'amxo'r bo'lishga da'vat etadi. Shunday qilib, Qo'rqush obrazida donishmand, xalqparvar kishilar-ga xos xislatlar ifodalandi.

«Zarbulmasal» 400 ga yaqin maqol, kichik masal va hikoyalardan tashqari, uchta yirik masalni ham o'z ichiga oladi. Bunday masallardan biri «Maymun bilan Najjor»dir. Unda duradgor (Najjor) hamda Maymun obrazi beriladi. Najjor aqlli, usta hunarmand, o'z kasbi, mehnati bilan kun ko'ruvchi shaxs. Gulxaniy Najjor obrazi orqali hunar ahlini ulug'laydi. Maymun esa biror ishning uddasidan chiqa ol-maydigan, maqtanchoq shaxsning allegorik obrazidir.

«Tuya bilan Bo'taloq» masalida esa tuya, Bo'taloq va Sorbon (tuyakash) obrazlari orqali muallif XIX asr mehnat-kash xalqining fojiali hayotini ifoda etadi. Xususan, Gulx-aniy «Toshbaqa bilan Chayon» masalida kitobxonlarni du-shmanga qarshi hushyor bo'lishga, unga qarshi kurash olib borishga chaqiradi.

Demak, Gulxaniy «Zarbulmasal» asarida qushlar obrazi orqali oqsuyaklar tabaqasini qattiq tanqid qiladi.

«Zarbulmasal» asari o'quvchilarning bilim savi-yasiga moslab ishlandi. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, «Zarbulmasal»ning tili, xususan, ibora, ifodalari anchagina murakkab; shu bilan birga, unda arabcha va forscha so'zlar, tojikcha iboralar, maqollar ham ko'plab uchraydi.

O'quvchilarga tushunish yengil bo'lsin uchun asarning har sahifasida qiyin jumlar, ibora va ifodalarning ma'nosi berildi; tojikcha jumlar tarjima qilindi.



ZARBULMASAL

Roviylar andog‘ rivoyat qilurkim, ilgarigi ayyomi no-farjomda Farg‘ona iqlimida Kayqubod¹ otlig‘ podshodin qolgan bir eski shahriston bor erdi². Anda bir Boyo‘g‘li degan vatan tutmush erdi³. Ammo aning havosi xush va bodi dilkash. Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin qo‘rg‘ong‘a qo‘ng‘on chog‘da tovusning parlaridek turlanib, munaqqash ko‘rinur erdi va aning yonida – bir yog‘ochlik⁴ yerda Yapaloqqush maskani – ota-bobosidin qolg‘on joyi bor erdi. Ammo Boyo‘g‘lining bir qizi bor erdiki, mehri xovariy yuziga banda erdi⁵.

Orazidin shams-u qamardur xijil,
So‘zlaridin shahd-u shakar munfail,
Hosili umri edi ul boyning,
Oti Gunash bonu o‘shal oying⁶.

¹ Kayqubod – eramizdan avval VII–VI asrlarda o‘tgan Eron shohlari-dan birining ismi; kay – hukmdor, podsho ma‘nosida ishlatiladi.

² Hikoya aytuvchilar shunday hikoya qiladilarki, ilgarigi baxtsiz bir zamonda Farg‘ona mamlakatida Kayqubod otliq podshodan qolgan bir eski katta shahar bor edi.

³ Unda Boyo‘g‘li degan bir qush yashar edi.

⁴ Bir yog‘ochlik yer – o‘n ikki ming quloch (taxminan o‘n ikki kilo-metrdan ortiqroq) masofa.

⁵ Sharq quyoshi uning yuziga qul edi. Shoir: «Uning yuzi sharq quy-oshidan ham go‘zal edi», – demoqchi.

⁶ Uning yuzidan quyosh bilan oy uyaladi. Uning so‘zlaridan asal bi-lan shakar xijolat bo‘ladi. Bu qiz boyning birdan bir farzandi edi. U oying oti Gunash bonu edi.

Va ul qiz oftobi olam tobdek har xomni pishirub¹, hech maxluq ani kunduzi ko'rhoqqa chorasi yo'q erdi² va ul qiz yuzini yashurur erdi. To ba haddiki, alomati bulug' zohir bo'lub³ tishi chiqib, ko'zi suzulib, ovozi buzilib, onasining to'g'ri so'zlaganiga egri so'zlay boshladi...

Yapaloqqush Ko'rqushni imlab olib, yonida o'tquzib aytdiki:

Zonki dar ofoq zi barno-u pir,
Hech kas az juft nadorad guzir⁴.

Bizning qurratul aynimiz er yetibdur⁵, bir yerda munosib maslahat qilali: Boyo'g'lining bir chiroyli qizi bor emish, deb ayturlar. Bizning tarafdin sovchi bo'lub boring. Har qancha qalin bo'lsa topilur.

Anda Qo'rqush aydi: «Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur», – degan yaxshilarning masalidir. Boyo'g'lining og'zining burchidin chiqor: «Ming chordevor qizimning qalini», deb. Holo... podshohimiz... Umarxon... zamonlarida... bir bo'sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim, aytmishlar: «Yolg'on masal turmas»⁶, «Uyat – o'limdin qattig'». Yana aytmishlar: «Ermon yog'ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani – o'lgani»...

¹ U qiz olamni yorituvchi oftobdek tovlanib, har bir xom narsani pishirar edi.

² Birorta maxluq uni kunduzi ko'ra olmasdi.

³ Shunday bo'ldiki, unda balog'at alomatlarini ko'rinib,..

⁴ Bu dunyoda bo'lgan yosh va qarining juftsiz bo'lishi (uylanmasligi) mumkin emas.

⁵ Bizning ko'z qorachig'imiz (bizning farzandimiz) yigit bo'lib yetishibdi.

⁶ «Yolg'on masal turmas» jumlasini «maqol yolg'on fikrni ifoda etmaydi» ma'nosini aks ettiradi. «Yolg'on masal turmas» jumlasidagi «masal» so'zi «maqol» ma'nosida ishlatilgan.

Anda Yapaloqqush aydi: «Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab erdim, «Karnay misdin, balg'am isdin» bo'lurini bilmas ekansiz. «Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas».

Anda Ko'rqush aydi: «Men xotun olmoq tamannosi g'arqobi emasman⁷, nechukkim aytmishlar: «Dala-tuzni suv olsa, qo'ng'ir g'ozni to'shidin, quloqsizga so'z ayt-sang, qulog'ining toshidin»⁸.

Anda Yapaloqqush aydi: «Burnog'illar masali-durkim, «Bitar ishning boshig'a – yaxshi kelur qoshig'a». Yana biri bulki, «Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur».

Anda Ko'rqush aydi: «Bo'! Og'iz bo'lma, oyoq bo'l», eshitmadingmuki, «oyoq yugurugi oshqa, og'iz yugurugi boshqa»... Sen kim, Boyo'g'ining eshigiga kishi yubor-moq kim? Hech bilmasmusanki, «teng tengi birla, tezak qopi birla».

Anda Yapaloqqush aydi: «Andin bizning nima kam-ligimiz bor?..»

Anda Ko'rqush aydi: «Borliqdin maqtanma, «Maqtan-gan qiz to'yda uyalar» va yana aytmishlar: «O'zini maqtag'oni o'lumning qorovuli». Sening ahvoling olamg'a ma'lumdir. «Oyni etak birla yashursa bo'lurmu?», «Chum-chuq semursa, botmon⁹ bo'lurmu?», «Olako'zananak ola bo'lsa ham, arslon bo'lmas, olato'g'anoq olg'ur bo'lsa ham, ahvoli ma'lum».

Anda Yapaloqqush aydi: «Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular», – degandek, sen bizni faqir-notavon

⁷ Men uylanish orzusiga g'arq bo'lgan emasman («men uylanish ni-yatida emasman» ma'nosida).

⁸ Qir-dalani suv bossa, qo'ng'ir g'ozning to'shiga chiqadi, quloqsizga so'zlasang, qulog'ining tashqarisida qoladi.

⁹ Botmon – og'irlik o'lchovi bo'lib, turli joyda turlicha ishlatiladi, ya'ni 2 pud dan 11 pudgacha ishlatiladi.

ko'rdingmu?¹ Bundan bexabar o'xsharsanki: «Cho'bni xor tutsang, ko'zga tushar». Bor, men birla so'zlashguncha, Boyo'g'li birla so'zlashgil.

Anda Ko'rqush aydi: «Ey Yapaloq, andoq bo'lsa, kuyov bo'lur o'g'lingning otini aytg'il».

Anda Yapaloqqush aydi: «O'g'limning nomuborak oti Kulonkir sultondur».

Anda Ko'rqush aytur: «Mundog' fahm va xirad sar manzilidin o'tgan kishilarni ko'rgan emasman². Echkuning oti Abdulkarim bo'lurg'a so'z kerak³. Burung'ilar aning uchun: «Ebi birlan so'zlaganning qurboni bo'l», degan ekanlar. Kulonkir sulton ot qo'ymoq sening had-dingmu. Bu ot – Humo, Uqob, Qarchig'ay, Bahrin, Lochin, Itolgu qushlarning salotidurlar, alarga munosib ot turur».

Anda Yapaloqqush aydi: Ilgari o'tgan yaxshilar masalidurkim: «Yaxshi nafas – yarim mol», bari bolamning asbobi kulonkirliigi minqori bilan changalidin ma'lum va ravshan emasdurmu?»⁴

Anda Ko'rqush aydi: «Rost aytursan, «Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'o bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur». «Chuchvarani xom sanabsan» o'xsharki, «otasi urmas qo'ng'izni, bolasi urar to'ng'izni», degan so'zga ishonma. «Halvo degan birla og'iz chuchumas».

¹ Sen bizni kambag'al va zaif, hech narsaga kuchi yetmaydigan deb o'yladingmi?

² Bunday fahm va aqlga ega bo'lgan kishilarni ko'rgan emasman.

³ O'tmishda Abdulkarim deydigan bir qassob bor ekan. Bu odam echki bilan qo'y go'shtini aralastirib qanaraga osar va xaridorlarni aldab echki go'shtini ham qo'y go'shti deb sotar ekan. Xaridorlar boshqa qassobdan go'sht olganlarida echki go'shtini avvalgi qassobning nomiga nisbat berib: «Bu Abdulkarimning go'shti emasmi?» – deb so'rar ekanlar. Shu munosabat bilan echkining oti Abdulkarim deb atalib ketgan.

⁴...bolamning kulonkirlik sabablari tumshug'i bilan changalidan ma'lum va ravshan emasmi?

Takya bar joyi buzurgon notavon zad ba gazzob,
Magar asbobi buzurgi hama omoda kuni¹.

Sening bu so‘zing qarchig‘aylik dag‘dag‘asi kulang boshiga tushub durroj shikorin ixtiyor qilib, o‘zi balchiqqa botib qolganga o‘xshar. Ori, haddidin har kishikim oshsa, jazosi mundog‘ bo‘lur. Bu so‘zning tafsilini «Silsilat uz-zahab»²din top. Burungilar masalidurki: «Ayozi³, haddingni bil, barchani qo‘y, o‘zingni bil», «Namangan – shahri vayron, oti ulug‘, sufrasi qurug‘», «Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tanur», «Sichqon sig‘mas inig‘a, g‘alvir bog‘lar dumig‘a», degan iborat senga sodiq kelur⁴.

Anda Yapaloqqush aydi: «Ey Ko‘r, bas, kulang qarchig‘a ishini qilurman deb, balchiqqa botib o‘lganini menga hikoyat qilursan, man ham biyno va nobiyno hikoyatin bilurmanki, nobino bino so‘zini quloqqa olmay, o‘z xijolatidin o‘zini ilonga chaqtirib halok bo‘ldi. Senga gapirsam, bu muhim xayr kechga qolur. Bu hikoyatning bayon voqeasini istasang «Kalila va Dimna»⁵din top».

Anda Ko‘rqush aydi: «Ey besabr, ...sen o‘z yarog‘ingni qilg‘uncha sabr qilsang xo‘bdur. Sabrni yaxshilar andog‘ta‘rif qilmishlarki:

Sabr bilan basta eshikdur kushod,
Sabr bilan topdi eranlar murod.
Sabr sening dardinga darmon bo‘lur,
Sabr bilan xor guliston bo‘lur,
Sho‘ra zamin bog‘ ila bo‘ston bo‘lur.

¹ Ulug‘larning joyiga suyanib, behuda maqtanma. Avval ulug‘likning hamma shartlarini tayyorla.

² «Silsilat uz-zahab» («Oltin zanjir») – mashhur shoir Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang» («Yetti taxt») asaridagi dostonlardan biri.

³ Ayozi – Mahmud G‘aznaviyning eng yaqin vazirlaridandir.

⁴ ...iboralar senga to‘g‘ri keladi.

⁵ «Kalila va Dimna» mashhur hind masallar to‘plami bo‘lib, G‘arb va Sharq tillariga tarjima qilingan.

Basta eshik ochg'usidir sabr, bil,
Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil¹.

Va aytmishlarkim,

Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitar,
Besabrlar o'z oyog'idin yitar.

Yapaloqqush aydikim: «Ori, balog'a sabr, qazog'a rozi bo'lmoqdin o'zga choram yo'q, lekin sabrning joyi bilan huzn va anduhdin bo'lak nimarsasi yo'q². Sabr qilib, yaxshi ish qo'ldan ketsa, o'xshamas»³...

Anda Ko'rqush aydi: «Yomong'a o'lim... muhim xayr ishiga yuborur kishi bu nav' bo'lurmu?»⁴ Eshitgan emasmu-sankim, yaxshilar aytibdurlarkim, shirin-shirin so'zlasang, ilon inidin chiqar, achchiq-achchiq so'zlasang musulmon dini-din chiqar». Sening bu noshoyista so'zingga bormasman. Tojikning bir masali borki: «Zo'ri behuda miyon meshikanad»⁵.

Anda Yapaloqqush aydi: «Sen mannoun lil xayr» o'xsharsan⁶, sendin sovuq hasad isi kelur».

Anda Ko'rqush aydi: «Men sovuq hasad qarindoshi emasman, seni xo'b bilurmankim, «Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas», derlar. «Haromzodaning quyrug'i bir tutam. Menga ko'p yuz keltursang, nechukim, qadimg'i yaxshilardan bir masal qolibdur: «Yaxshilik

¹ Sabr qilish bilan yopiq eshik ochiladi, sabr qilish bilan mardlar murodiga yetadi. Sabr sening dardingga darmon bo'ladi, sabr bilan tikonli yerlar gulistonga, sho'rali yerlar bog'-u bo'stonga aylanadi. Yopiq eshik sabr qilish bilan ochiladi, shuning uchun sabr qil, sabr qil va sabr qil.

² Lekin sabr qilib, ba'zan kishi qayg'u-alam (huzn, anduh) ga duchor bo'ladi.

³ Sabr qilib, yaxshi ish qo'ldan ketsa, tuzuk bo'lmaydi.

⁴ Muhim xayr ishiga yuboradigan kishi shunday bo'ladimi?

⁵ Behuda zo'r urish bel sindiradi.

⁶ Sen yaxshilik qilishga to'sqinlik qiluvchiga o'xshaysan.

qil suvg'a sol, suv bilmasa, boliq bilur, boliq bilmasa, xoliq bilur». Avval borib Kulonkir sulton jamolini ko'rub, sovuq so'zini eshitib, tuzini totib¹, so'ngra borsam kerak», – deb Kulonkir sulton xizmatiga ravona bo'ldi. Yarim farsax yo'l borganda, shul asnoda bir Hudhud yo'liqdi, salomlashib aydikim: «Qaysi oshyoni balanddin parvoz qilding?»²

Anda Ko'rqush aydi:

«Parvozi bandagi bafazoye namerasad,
Ey xok, past bosh, balandast osmon³.

Bizning parvozimiz ma'lumdur».

Anda Hudhud aydi: «Ey Ko'r, men muammodin bexabarman, to'g'ri so'zing bo'lsa, so'zla. Mofiz zamiring menga bayon qil»⁴.

Anda Ko'rqush aydi: «Men Yapaloq bibi sovchisi-durman, Boyo'g'lining qiziga xostkorlikka borurman».

Anda Hudhud aydi: «Yapaloqqushning kam xiradlig'ini emdi bildim. Har oyina o'z jinsidin, yapaloqlar qurug'ondek seni yubordimu?.. Bilmasmusankim: «Yumruq bukulub sang bo'lmas, echki yugurib lang bo'lmas»⁵ va yana: «Kesgon oshg'a o'xsharmu yovg'on bo'lomuq»... Sening serka tilarga lab-lunjing yo'q ekani ma'lum va mashhurdir. Va yana qo'lidin kelmas ishga urungan, najjorlik qilg'on Maymunga o'xshash rasvo bo'lma».

¹ Tuzini totib...– ovqatini yeb ko'rib...

² Qaysi baland uya (in)dan uchib kelding?

³ Bandaning uchishi osmonga yetmaydi. Ey tuproq, past bo'l, osmon balanddir.

⁴ Ko'nglingdagini menga ayt.

⁵ Maqolning mazmuni: «Musht bukilsa ham, tosh bo'lolmaydi, echki esa yugursa ham, cho'loq bo'lmaydi».

Ko‘rqush aydi: «Hikoyat qil».

Hudhud aydi:

Bor edi Kashmir navohiyda tog‘,
Bog‘i Eram rashkidin ko‘ksida dog‘¹.

Anda imoratga yarog‘lig‘ yag‘och,
Yetti quloch bo‘yi o‘n ikki quloch².

Bor edi ko‘b ne‘mat-u alvonlari³,
Xurram-u ma‘mur edi hayvonlari⁴.

Zulf kabi sunbuli xushbo‘lari⁵,
Rohatijon erdi oqar suvlari.

Uydin ulug‘roq edi bir gulbune⁶,
Anda vatan tutmish edi Maymune⁷

..Jon sotib o‘zni o‘yin etardi tan⁸,
O‘qur edi qissayi hubbul vatan⁹.

Bir kuni najjori xiradmandi fard¹⁰,
Ko‘ngli yag‘och yo‘qlig‘idin qildi dard¹¹.

Bordi o‘shal toqg‘aki mavkuf edi,
Ezgu yag‘ochlar anga ma‘ruf edi.

¹ Kashmir degan mamlakatda bir tog‘ bor edi. Uning go‘zalligi Eram bog‘ining ko‘ksiga dog‘ bo‘lib tushardi.

² Tog‘dagi yog‘ochlarning bo‘yi yetti va o‘n ikki quloch edi.

³ Xilma-xil ne‘matlari ko‘p edi.

⁴ Hayvonlari shod-xursand va to‘q edi.

⁵ Xushbo‘y sunbullari zulfga o‘xshardi.

⁶ Bir gul daraxti uydan kattaroq edi.


⁷ Bir maymun o‘sha daraxtni o‘ziga vatan qilib olgan edi.

⁸ O‘z tanasini o‘yinga solardi.

⁹ Vatan muhabbati haqida hikoya o‘qur edi.

¹⁰ Aql sohasida yagona bo‘lgan duradgor bir kuni...

¹¹ Yog‘och yo‘qligidin ko‘ngli alam chekdi.



Shaxrning zindonidin ozod o‘lub¹,
Tog‘ning Shirinig‘a Farhod o‘lub².

Sonur edi o‘zini tog‘ xisravi,
Tog‘ni o‘qub Dehlavi-yu ma‘naviy.

Elina navkissalarin qistari³,
Rasm edi Najjor yag‘och istari⁴.

Egdi dili go‘shasining pardasin⁵
Belg‘a suqub tesha bila arrasin.

Borib anga kesdi yag‘och reshasin,
Qo‘ydi o‘shal yerda unutilib teshasin.

O‘zga toqg‘a bordi-yu kesdi yag‘och,
Yormoqini qildi magar ul iloj.

Bolta bila bir uchini yordi ul,
Pona qo‘yub, tesha sari bordi ul.

Tushti banogoh anga Maymun ko‘zi,
Oqil-u dono sanab ul dam o‘zi.

Aydi: «Ulus ichra bu bir kasbdur
Kasbni boshina kiysang nasbdur.

¹ Shahar zindonidan ozod bo‘lib... («shahardagi diqqinafaslikdan qutulib»... ma‘nosida).

² Bu misrada Gulxaniy tog‘da kezayotgan Najjorni Farhodga o‘xshatadi.

³ Beliga yangi asboblarini qistirdi.

⁴ Duradgorning yog‘och qidirishi odat edi.

⁵ Dilining bir chekkasidagi pardani egdi.

Kisai purzar emish elga hunar¹,
Behunar elni dedilar: reshi xar².

Men daxi najjorlikni o'rganay,
Bolalarim barchasig'a o'rgatay».

Jahd qilib turdi ravon borgali³,
Ya'ni yag'och qolmishini yorg'ali...

Mindi yag'och ustig'a Najjordek,
Kosibi purkardayi purkordek⁴.

Ketdi hunar shavqi bila g'ussasi⁵,
Tushdi yag'och ayrisig'a dumchasi.

Balki nedin bo'ldi tutulmoqligi,
Mumkin emas o'ldi qutulmoqlig'i.

Odami jinsida yo'q qissasi,
Qoldi aning dumchasining hissasi.

Bilgilki, Maymun najjorlik qilurman deb qo'lg'a tushub ertadan kechgacha kaltak birla urub o'ynatib baloga giriftor bo'lg'ondek, sen ham muhim xayr ishini bitirolmay mulla Iso avliyo birla Abdurahmon oftobachidek xalqning la'nat so'zidin chiqmay yurma. Yomon isnod sendin qolur⁶.

¹ Hunar xalqning hamyonini oltin bilan to'ldiradi.

² Hunarsiz kishini eshak yag'iri – nodon, ahmoq deydilar.

³ Astoydil harakat qilib o'sha tomonga bordi.

⁴ Tajribali ustadek.

⁵ Hunardan xursand bo'lib, g'ami ketdi («qilayotgan ishiga berilib ketib, o'zini unutdi» ma'nosida).

⁶ Sendan yomon ot qoladi.

Ko‘rqush aydi: «Men ham bu ishda hammollikka ravom yo‘q¹, lekin taqdir bilur.

Odami ko‘b hiyla-u tadbir etar,
Lek ishini oxiri taqdir etar.

Sen tevaning bo‘tasi onasi birla munozara qilgonidin xabarsiz o‘xsharsan».

Hudhud aydi: «Hikoyat qil».
Ko‘rqush aydi:

– Bor edi Farg‘onada bir sorbon,
Tevasi bor erdi tug‘di nogahon.

Ahlu ayoli aning bas erdi cho‘x²,
Ozuqidin kulbasida narsa yo‘q.

Hosili dunyo edi bir tevasi³,
Emadigan orqasida bo‘tasi.

Bir kuni ul tevasini qo‘mladi,
Ortadigan yuklarini jo‘bladi.

Yuki og‘ir erdi va ham yo‘l yiroq,
O‘rtadi tayloqini nori firoq⁴.

Fasli tamuz erdi: havo ko‘b isig‘,
Yo‘lda temirdek edi qumlar qiziq.

Och o‘tina kuydi anodin judo,
Modarining mehrida erdi ado⁵.

¹ Men ham bu ishda hammollik qilishni istamas edim.

² Oilasi katta edi.

³ Tuyasidan boshqa hech narsasi yo‘q edi.

⁴ Ayriliq o‘ti tuyaning bolasini o‘rtadi.

⁵ Onadan judo bo‘lib, ochlik o‘tida kuydi. Onasining mehri o‘tida ado edi.

Jahd ila yetmay anosin keynidin¹,
Qumda kuyardi g‘ami ul siynadin².

Og‘ir yuki yo‘lda o‘shal sorbon,
Yo‘lda cho‘kurdi tuzatay deb ravon³.

Bo‘tasi borib edi orqosidin,
Yondi haroratlari yag‘mosidin⁴.

Bo‘zlanib aydi: –Halo berahm onam,
Kuydi-yu yondi, tutashti tanam.

Asta-asta yursang, bo‘lg‘ay na g‘am,
Siynayi sutingdin emay dam-badam».

Aydi anosi bolasig‘a boqib,
Ko‘zlarining yoshlari suvdek oqib:

«Ko‘rki, burundug⁵ kishining qo‘lida,
Bu kishining ko‘zlari o‘z yo‘lida.

Menda agar zarra kabi ixtiyor
Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor⁶.

Burung‘ilar masalidurkim: «Qizni kim suymas, qimizni kim ichmas», «Karnaychidin nima ketar, bir puf».

Anda Hudhud aydi: «Ori, amonat so‘zga amin bo‘lmoq yaxshilar mevasi turur⁷. Sen daxi kulni o‘z ko‘moching

¹ Harakat qilsa ham, onasiga yeta olmay.

² Ham qumda, ham qalbdagi g‘am bilan kuyardi.

³ Tuyakash yukni yaxshilab tuzatayin deb, tuyani cho‘ktirdi.

⁴ Issiqlikning talon-tarojidan yonardi.

⁵ Burundug – tuyaning burnidagi tog‘ayni teshib tiqib qo‘yiladigan yog‘ochga burundug deyiladi. Mazkur burundugqa arqon bog‘lanadi, arqon egasining qo‘lida bo‘ladi.

⁶ Menda agar zarracha ixtiyor bo‘lganida edi, men yuk tagida bo‘lmasdim.

⁷ Amonat so‘zga xiyonat qilmaslik yaxshilarning odatidir.

ustiga tortma⁶ va bahodir duradgordek teshani o‘z tarafing-
ga chopma¹.

Monandayi arra bosh dar ilmi maosh,
Gohe so‘yi xud mekash-u, gohe meposh².

Monandi arra bo‘l, du jonibg‘a kamohaqquhu tushub
so‘zlagil...»³ deb vidolashib ketdi.

Alqissa, Ko‘rqush yiqila-surila Kulonkir sulton dargoh-
iga ravona bo‘lub, sarmanzilig‘a yetdi. Ko‘rdikim, ajab sha‘n-
shavkatlik borgohi bor ekanki, savsan ko‘b til birlan aning vas-
fidin ojiz va har turluk muarrif ta‘rifi aning sha‘nida nochiz⁴:

Ko‘rdi tikilgan edi bir borgoh,
Borgahi xisravi anjum sipoh⁵.

Kungirasi ko‘kka tegib o‘rdalar,
Xayma-u xirgoh-u saropardalar.

Bir necha qushlar bila hamroz o‘lub,
Bulbul-u qumri bila damsoz bo‘lub.

Nag‘mayi qonunlig‘ini soz etib,
Da‘viyi Fir‘avnlig‘ og‘oz etib⁶.

¹ O‘z manfaatini ko‘zlama.

² Mazmuni: Tirikchilik ilmida arra singari bo‘l, ba‘zan (arrani) o‘z tomoningga tort, ba‘zan (qipiqni) sochib yubor.

³ Arraga o‘xshTagil, ikki tomonga adolat bilan so‘zlagil.

⁴ Ko‘rsa, shunday ajoyib saroyi bor ekanki, safsar gul ko‘p tilli bo‘lsa ham, uning maqtoviga ojizlik qilar va har qanday ta‘rif qiluvchi, tasvirlovchi odamning ta‘rifi uning go‘zalligini ifodalay olmasdi.

⁵ Askari yulduzlar kabi son-sanoqsiz bo‘lgan ulug‘ podshohning saroyidek edi.

⁶ Qonun nomli musiqa asbobining nag‘malarini sozlab, Fir‘avnlik da‘vosini boshlab.

Ko‘rqush bu asosi bolo qiyosni ko‘rub¹, borgoh darvozasidin «Salom, hay-hay!» ovozining savlatidin kirolmay o‘lturub qoldi. Kulonkir sulton xizmatida bir Kuykunak otlig‘ qullari hozir erdi. Kulonkir sultonning Ko‘rqushg‘a nazari tushub, Kuykunakg‘a buyurdikim: «Borib g‘ulomgardishda o‘lturgan odamdin xabar ol, muhtoj, mustamandmu, yo och va yalang‘ochlikdin keldimu? Sazovari xayr bo‘lsa, munda olib kel».

Anda Kuykunak ilgari qadam qo‘yub, Ko‘rqushning oldig‘a kelib aydikim: «Ey bobo, qaysi oshyoni balanddin parvoz qildingiz?»

Anda Ko‘rqush Kuykunakning takabburona so‘zini anglab aydi: «Ey bolam, sen so‘rg‘uchi bo‘lg‘uncha va men javob berg‘uvchi bo‘lg‘uncha, ikkimiz ham g‘oyib bo‘lsak yaxshidir».

Anda Kuykunak aydi: «Yaxshilar topib so‘zlar» degandek, ya‘ni bizni arkon davlat orasida kichkina ko‘rdingizmu? «Kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni», yoyinki «Kuykunak o‘z yerida g‘oz olur, ham o‘rdak», «O‘zingni er bilsang, birovni sher bil».

Ko‘rqush aning xud donolig‘ini anglab aydi: «Ey bolam, sen onasig‘a o‘rgatgan o‘g‘ilg‘a o‘xsharsan. Burung‘ilar masalidurki, «Sigir suv ichguncha buzoq muz yalar», mehmon bo‘lsam, ta‘zim qilsang lozim erdi.

Nechukkim aytmishlar:

G‘am hujum etganda besomonlig‘im o‘rtar meni,
Mezbon xijlat chekar har necha mehmondur tanish².

Borakalloh, mehmonni siylamoqni sendin o‘rgandim,
dedi.

¹ Ko‘rqush bu yuksak qiyosli asosni ko‘rib...

² Mehmon kutuvchi – uy egasi mehmon har qancha tanish bo‘lsa ham, xijolat tortadi, chunki shu mehmonning qanday qilib ko‘nglini olishni o‘ylaydi.

Anda Kulonkir mehmonga ozor berganini anglab, Kuykunakni jerkib, ko'zidin andog' nari soldikim, qayta ko'rmoqlik nomumkin bo'ldi¹.

Bas, Ko'rqushni imlab, yonidan joy berib aydikim: «Ey bobo, xush kelibsiz, ma'zur tutung² va o'zingizdek kishilar debdurlarki «Tanimasni siylamas».

Anda Ko'rqush so'zga daraftod bo'ldi³. Va aydiki: «Ulug'ning dargohida donish va ahli xiradmandi bohush har qancha ko'b bo'lsa ham oz bo'lur». Xususan, podshohi odilga uch toifadin guzir⁴ va chora yo'qdur; avval, olimi boamalki, podshohning oxiratliq asbobini anga ko'rgazsa. Ikkinchi vaziri sohibi ra'yki, podshohning dunyoliq yarog'ini taraddudida bo'lsa⁵. Uchinchi, munshiyi rostnavis, qalamzani nigahdor va shamshirzan⁶. Holo bu turgan oshxo'ri jomadarronlar taom yemoqqa hozir, maslahat aqli qosir. Qadimgi buzurg mashoyixlardan bizga bir masal qolibdurki⁷: «Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar chaynar boshingni...» va yana: «Yaxshi bila yurding – yetding murodg'a, yomon bila yurding – qolding uyatg'a» yonki: «Yomong'a yondoshsangiz, balosi yuqar, qazong'a yondoshsangiz, qarosi yuqar...», «Biz qo'y ko'rmasak ham, qiy ko'rgan eduk...» Bu toifaning oz xizmati, ko'b

¹ Ko'z o'ngidan shunday quvladiki, uni qayta ko'rish mumkin bo'lmadi.

² Bizni kechiring, uzrimizni qabul eting.

³ Ko'rqush so'zga kirishdi.

⁴ Xususan, odil podshoh uch guruhdan qochmasligi kerak.

⁵ Fikr va mulohazalarga ega bo'lgan vazir podshohga bu dunyoda nima kerak bo'lsa, shularning hammasini tayyorlasa.

⁶ Haqiqatni yozadigan yozuvchi, hukm va farmonlarni yozib tarqatuvchi kotib posbon, qilichboz bo'lsa.

⁷ Bu turgan tekinox'r oshxo'rlar oshga tayyor, maslahat berishga aqli kuchsiz; qadimgi ulug' keksalardan bizga bir maqol qolibdirki...

minnati bo'lar. «Har kim bu toifadin muruvvat tilabdur, go'yo tol yog'ochdin zardolu tilabdur...»¹

Ko'rqushning so'zi Kulonkir sultong'a bodayi sabuhiy nash'asidek ta'sir etdi va nasoyihning abiri jon komig'a turktoz etdi². Bahaddiki vujudining vayronasi ma'mur bo'lub, obodonliqg'a yuzlandi³. Kulonkir sultonning ilgarigi mehmondin qolg'on oshi bor edi, ani Ko'rqushning oldiga qo'ydi, aydi: «Oz oshg'a imdod yo'q».

Anda Ko'rqush aydi:

Karam na erdi baxillik so'zin deding, ey shoh,
Oz oshni bergucha mundin ziyoda o't-u olov⁴.

Anda Kulonkir sulton aydi:

«Az karam nest baxili kardan,
Xon nihodan taomi xo'rdan beh⁵».

«Oz oshim, g'avg'osiz boshim»,
–deb yolg'iz inoyat qiling».

Anda Ko'rqush aydi: «Osh egasi bila totlig'».

Kulonkir sulton aydi: «Xo'b bo'lar, oshga deganda quruq kalla yugurur», deb qo'l uzata berdi. Bir yemog'liq

¹ Kimki bu xil kishilardan odamgarchilik, yaxshilik kutsa, tol daraxtidan o'rik kutgandek bo'ladi.

² Ko'rqushning so'zi Kulonkir sultonga tong paytidagi ichkilik nash'asidek ta'sir etdi va nasihatlarining xushbo'y hidi jon bahrasiga hujum qildi.

³ Ko'rqushning so'zidan Kulonkir sulton vujudining vayronasi obod bo'ldi.

⁴ Ey shoh, saxiylik to'g'risida so'zlagan eding, nima uchun baxillik qilding? Oz oshni berganingdan ko'ra, o't-olov berganing yaxshiroq.

⁵ Baxillik qilish karamdan emas, dasturxon yozilgach, taom yemoq yaxshidir.

qildikim, tabaq tubiga tushdi¹. Ko‘rqush har qancha taraddud qildi, oshni tabaq tagida topmadi. Anda Ko‘rqush aydi: «Kalomi majid tarjiması tururki, «Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar». Bu nechuk osh yemog‘liqdur?»

Anda Kulonkir sulton aydi: «Bizning sha‘nimizda isrof bo‘lmas. Nechukkim, qiyomatlik hisob-javobini mazmuniga boqib osh yedumki, anda ortuq halol-haromdin hisob olurda, munda oz-oz olib, oxiratda hisobini ko‘b berguncha, munda bir olib, anda bir javob bersam yaxshidur va yana «Quyrug‘i uzun tovushqon, yomon bo‘lur so‘zni bir-birig‘a qo‘shg‘an. Turing, muhim xayrg‘a taammul qilmang»², – deb javob berdi.

Alqissa, Ko‘rqush o‘rnidan turub, jaddu jadal aylab, Boyo‘g‘li sarmanzilig‘a ravona bo‘lub, qat‘iy manozil qilib, muddao devorig‘a boshi³ va istido‘ hadafig‘a murod o‘qi tegdi⁴. Zamondin keyin Boyo‘g‘li Ko‘rqushning kelganidan ogoh bo‘lub, aning oldig‘a chiqib «xayra maqdam birra’si nal’ayn⁵, xush kelibsiz», deb ta’zim birla ko‘rushub, bir-birining yuzini cho‘qushib Boyo‘g‘li Ko‘rqushni uyasig‘a qo‘ndurdi va oldig‘a mohazar qo‘ydi. Ko‘rqush so‘zlamasdan burun taomg‘a tusha berdi.

Boyo‘g‘li aydi: «Taom yemakda so‘zlab yemak yaxshidur. Monand hayvondek xomush taom yemak ozoda mardum shevasidin ermas»⁶.

Anda Ko‘rqush aydikim: «So‘zlamakdin o‘zga chora yo‘q⁷. Lekin ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurkim: «Aval taom, so‘ngra kalom», «Ayron tilab kelsang, chelak-

¹Tovoqning (laganning) tagi ko‘rindi, tovoq (lagan)da hech narsa qolmadi.

²Turing, muhim yaxshilik ishida o‘ylanib o‘tirmang.

³Muddaosiga yetdi, maqsadiga yetdi.

⁴Yalinib-yolvorib so‘rash nishoniga maqsad o‘qi tegdi.

⁵Qadamlari bosh ustiga, ko‘z ustiga.

⁶Hayvonga o‘xshab indamasdan ovqat (taom) yemak yaxshi, to‘g‘ri kishilar odatidan emas.

* ⁷Jim o‘tirib bo‘lmaydi. So‘zlash kerak.

ingni yashurma», andog‘ voqif va ogoh bo‘lungizki, sizning toleyi garduningiz burjida¹ saodat partavlik masturalik sadafidin paydo bo‘lgan, Kulonkir sultonga munosib Gunashbonu ismlik nozparvar mahliqo qizingiz bor emish². Yapaloqning bolasi Kulonkir sultonga munosibi ko‘rub sovchi bo‘lib keldim. Siz bir shirin javob bering. Anglab borib taraddud qilali», dedi.

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Ori, bolaning bo‘yi yetibdur, o‘zidin so‘rab javob bersam kerak», deb turub qizin oldig‘a kirdi. Aydi: «Ey bolam, Yapaloq bibining bolasi Kulonkir sulton havo xoh bo‘lub, sovchi yubormish, na javob berursan?»

Anda Gunashbonu oyim, nachukkim ro‘zg‘or qizlarining a‘lolaridur³, «sukut – alomati rizo», degandek, boshini quyi solib o‘lturdi. Boyo‘g‘li qizining maylini bilib aydiki: «Bu bolig‘a ko‘ngli borga o‘xshar», degach, qiz tilga kelib aydi: «Ey bema‘ni chol, soqolingdan uyol. Xomush turmoqlik javobi bo‘yla bo‘lurmu?⁴ Xayr ishig‘a mutakallim bo‘lg‘onining xitobi bo‘yla bo‘lurmu?⁵...»

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Ey boshing kesulgur, anglagan emasmusan: «O‘lturgan qiz o‘rmin topar».

Anda Gunashbonu oyim aydi: «Ertagi savdoning dahsar og‘irlig‘i bor», «Kechki ekinning xatari bor» va yana aytibdurlarkim: «Ertagi ishni kechga qo‘yg‘udek emasdur».

¹ Burj: 1) qadimgi astronomiyada quyoshning yillik harakat doirasidagi o‘n ikki nuqtaning har biriga burj deyiladi; 2) qal‘aning cho‘qqisi.

² Shunday xabardor va ogoh bo‘lingizki, sizning osmoningiz burjida baxtingizning ravshan va pardalangan sadafidan paydo bo‘lgan, Kulonkir sultonga munosib Gunashbonu ismli noz qilishga o‘rgangan oy yuzli qizingiz bor emish.

³ Gunashbonu oyim turmush qizlarining eng yaxshilaridandir.

⁴ Javob bermay indamay turganimni shunday tushundingmi?

⁵ Sovchi bo‘lgan kishining yaxshilik ishi haqidagi so‘zlari shunday bo‘ladimi?

Anda Boyo‘g‘li bildikim, tadbirning yengi bilan taqdirni yashurub bo‘lmas erkan. O‘rnidin turub, Ko‘rqush oldig‘a chiqdi.

Ko‘rqush aydi: «Bo‘rimusiz, tulki?»

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Bu daf‘a boring, daxi bir javob olursiz, ilgari o‘tgan yaxshilardin bir masal qolibdur: «Yolg‘iz otni changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong‘i chiqmas» va yana: «Ot olsang uying birla kengash», debdurlar. Men ham qarindosh-urug‘umni yig‘ib, mashvarat aylab anga yarasha sizg‘a javob bersam kerak», debdi.

Anda Ko‘rqush aydi: «Xayr ishig‘a hech istixora hojat emas. Nechukkim Xo‘ja Hofiz Sheroziy¹ aytibdurlarki:

«Dar kor xayr hojati hech istixora nest»².

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Bolamning ixtiyori qo‘lidatur».

Anda Ko‘rqush aydi: «Andog‘ bo‘lsa, bir chuchuk javob bering, anglab borib javob beray», dedi.

Anda Boyo‘g‘li aydi:

«Dar hama kor mashvarat boyad,
Kori bemashvarat nako‘ noyad»³.

Anda Ko‘rqush aydi: «Mashvarat bag‘oyat yaxshidur. Lekin donishlik birla qilmoq kerak⁴, borgoh aql-u donishdindur. Xirad sar chashmasidin ko‘r⁵, el izosi anga

¹ Xo‘ja Hofiz Sheroziy – fors shoirlaridan bo‘lib, 1369-yilda vafot etgan.

² Yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o‘tirishning keragi yo‘q.

³ Har bir ishda maslahat lozim, maslahatsiz ish yaxshi emas.

⁴ O‘ylashib, aql bilan maslahatlashmoq kerak.

⁵ Aql bulog‘i bilan ko‘rib, podshoh saroyi (borgoh)ni aqlli va bilimdonlar bilan to‘ldir.

mashhur¹; och yurib kekirgan, og‘zi birla ishini bitirgan, goh bechorliqg‘a iqror, goh o‘zini Tahmatan oluvchi bahodiri jarror²; muft topilganda oshar, ichi po‘k, ko‘zi ko‘k nodonlarg‘a Umar iyor, donishmandlar safida bir naqshi devor³, elga ma‘lum va mashhur Muhammad Sodiq zargarining o‘g‘li parishon ro‘zg‘orga kengashib, bizni aro yo‘lda qo‘ymang».

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Farosat oyog‘i oqsoq, tevadek yegani sho‘ra va yantoq, ilgari o‘tgan so‘zning birini ming qilib so‘zlarga toq, oyog‘idin osilgan so‘tqoq qushga o‘xshash Jalil bo‘qoq oshpazdek bosh ahmoq emasman. Ko‘bga kengash, o‘z bilganingni qil debdurlar».

Alqissa, Ko‘rqush bu navbat farah afzoni eshitib⁴, xursand bo‘lib, Yapaloq bibi manzilig‘a yetdi. Boyo‘g‘lining anchakim, muhim xayrg‘a rag‘bati bor erdi, bayon qildi.

Alqissa, Yapaloqqushning bir Qarg‘a do‘sti bor erdi: Sho‘ranul, qushlar ko‘zig‘a go‘l, o‘z ishig‘a pishiq, haromzodayi tarror, o‘g‘ri mishiq⁵, harif ayyor solor, davlatmandlar asnofida mumsiki beor⁶, har murda ustida tayyor, yigirmaning beshini mustahaqq‘a berib, o‘n beshini qo‘ynig‘a urgan, tumshug‘i shoh Zokirboy kafshfurushning tumshug‘iga o‘xshar ekan. O‘shal diyorda Maliki Shohinki, qushlarning shohlig‘i anga mansub erdi va Kulonkir sulton anga dangalnishin pahlavon erdi⁷, Sho‘ranulni Malik Shohin janobig‘a sevinchig‘a chopturdi. Manozil va marohil tay

¹ Shunday bo‘lmasa, xalqning ta’na qilishi turgan gap.

² Ba’zan o‘zini Tahmatan (Rustanning laqabi) deb biluvchi qo‘rqmas qahramon.

³ Bilimdonlar qatorida bir devor naqshi.

⁴ Ko‘rqush shodlik bag‘ishlovchi xushxabarni eshitib...

⁵ Mushuk.

⁶ Boylar orasida beor baxil.

⁷ O‘sha mamlakatda Malik Shohin degan bo‘lib, qushlarning shohlig‘i unga tegishli edi («qushlarning podshosi edi» ma’nosida) va Kulonkir sulton uning yuqori darajadagi, hurmatli pahlavoni edi...

qilib, Malik Shohinning borgohig‘a kelib, ta‘zim va tavozi‘ birla salom qilib, Yapaloqqushning ruq‘asini uzatdi. Malik Shohin noma mazmunini anglab, bir zamon tavaqquf aylab¹ aydiki: «Seni yubormasa bo‘lmasmudi?»

Anda Sho‘ranul aydi:

Sarnavishti ahli ma‘no chun qalam boshad siyoh².

Ey podshohi olampanoh, o‘zlari ma‘ni foydasidin bebahra ekanlar. Sizga surati yomon bo‘lsa, ma‘noning guli bo‘lsa ham, xush kelmas ekan. Andog‘ bo‘lsa, so‘fi Qo‘chqordek bo‘lsa, nodon, haq so‘z aning oldida yolg‘on, erta-kech qo‘lida tasbih, viridi aning harza safih, suratda hech kami yo‘q va ma‘no bejo ketsa, g‘ami yo‘q³ va goho kampirlardek engashgan, sochbog‘i yer supurgan va toqyasini chekkasiga osgan. Olurda hisobi to‘qquz, berurda sanog‘i o‘ttuz; to‘g‘ri so‘zga to‘g‘onoq, izo va kulfatga yovuqroq⁴, makr va hiylada shaytondin mufsidroq, ko‘runmoqg‘a yuzsiz, so‘zi tuzsiz; yozda sovuq, qishda issig‘, sharorat peshalikda Homondin⁵ shadidroq⁶, kurk tovuqdek suvga pisharg‘a o‘ngroq⁷, odamizod arosida Sayd Azimxon manzur bo‘lsa, men andin ahmoqroqmu?» dedi.

¹ Biroz vaqt to‘xtab, biroz jim qolib.

² Ilm ahlining baxti qalam singari qora.

³ Har kun qiladigan ishi bema‘nilik, nodonlik, tashqi ko‘rinishida kamchiligi yo‘q, biror so‘zning ma‘nosi noto‘g‘ri ketsa ham g‘am chekmaydigan...

⁴ Birovni uyaltirish va kulfatga solishga yaqinroq.

⁵ Homon – Fir‘avn vazirining nomi, zolim va baxil odam bo‘lgan.

⁶ Yomonlikni odat qilib olishda Homondan shiddatliroq.

⁷ Odatda tovuq kurk bo‘lganda tuxum qilishdan qoladi, bunday tovuqlarni kurklikdan qutqarish uchun suvga pishadilar. Kurk tovuq o‘jarroq bo‘ladi, odamlarga yuguradi; yoki kurk tovuqqa tuxum bostiradilar, u jo‘ja ochadi, o‘shanda ham o‘jarligi qolmaydi. O‘jar, badjahl, nodon, sassiq odamlar shunday kurk tovuqqa o‘xshatiladi, uni ham suvga pishib olishni ma‘qul ko‘radilar.

Malik Shohin aydi: «Borakolloh, o‘z aybin bilgan marddur»¹, Malik Shohinning Kordon otlig‘ xazinachisi bor erdi. Anga buyurdikim: «Bizning jonibdin sulton Kulonkir dangalnishinimg‘a to‘yning asbobini muhayyo qilib ².

Alqissa, Kordon kamari himmatni g‘aravdek³ necha yerdin bog‘ladi. So‘ngra zamon tafakkurga borib aydikim: «Avloroq ulkim, o‘zim borib Boyo‘g‘liga uchrasam, har na tilagan mahring taraddudida bo‘lsam⁴, o‘z qulog‘im birla eshitsam, anga yarasha to‘y taraddudida bo‘lsam⁵. Xarji isrof bo‘lmag‘udek bo‘lsun»⁶, deb borurg‘a azm qildi⁷.

Kordonning joyidin Boyo‘g‘lining maskani uzoq erdi, balki muddati safar erdi⁸. Safar yarog‘ini bekami ko‘st qilmoq kerak...⁹ Burung‘ilar debdurlar: «To‘yg‘a borsang to‘yib bor, to‘rqa to‘ning kiyib bor», uydin g‘amlanib chiqmoq kerak¹⁰, nechukkim: «Uydagi so‘z bozorg‘a rost kelmas». Uyon Boyo‘g‘lining uyi bo‘lsa, sichqon suyagidin boshqa nimarsa bo‘lushi zohir va ma‘lum emas¹¹.

¹ Kishi o‘z aybiga iqror bo‘lsa, u kishi marddir.

² To‘yga kerakli asboblarni tayyorlab ber.

³ Qalam uchun ishlatiladigan qamish. Bu qamishning har joy-har joyida bo‘g‘ini bo‘ladi; Kordon sahiylik kamarini qalam qamishdek necha yerdan bog‘ladi; bu o‘rinda Gulxaniy Kordonni g‘oyat saxiy, qo‘li ochiq qilib ko‘rsatadi, shuning uchun «saxiylik kamarini qamishdek necha yerdan bog‘ladi» iborasini ishlatadi.

⁴ Qanday mahr tilasa, shuni berishga harakat qilsam.

⁵ To‘yning harakatida bo‘lsam.

⁶ Sotib olingan narsalar isrof bo‘lmasin.

⁷ Borishga bel bog‘ladi.

⁸ Uzoq safar edi.

⁹ Safarga kerak bo‘ladigan narsalar bekami ko‘st bo‘lishi kerak.

¹⁰ Uydan hamma narsani g‘amlab chiqmoq kerak.

¹¹ Gap mazmuni: U yog‘i Boyo‘g‘lining uyi bo‘lgandan keyin, uning uyida sichqon suyagidan boshqa narsa bo‘lishi ravshan va ma‘lum emas. Ma‘lumki, boyo‘g‘li kechasi uxlamaydi, xunuk tovush bilan sayraydi. Sichqon, kalamush, yumronqoziq kabi hayvonlar oydin kechalarda izg‘ib qoladilar, mana shunday vaqtda boyo‘g‘li (boyqush) ularni ovlaydi va o‘z uyasiga olib borib yeydi.

Alqissa, Kordonning o'ziga safar va hazarda hamroz va hama atvori pisandida va harakatlari maqbul, otasidin qolgan Turumtoy tez parvoz¹, so'z kelganda jilov saqlamay ro'baro' etguvchisi² bor erdi. Bozorg'a chiqtilar. Erta kun kech bo'ldi, oftob peshin joyig'a yetdi. Anda Turumtoy aydi: «Ey to'ram, sizning kirdikoringizni odamizod orasida Xolboqi misgarga o'xshaturman».

Kordon aydi: «Ey ahmoq, bu nima deganing?»

Turumtoy aydi: «Andoq eshitganim borki, odamizod farzandidin Xolboqi misgar degan bir ko'knori bor erdi, namozshom vaqtida bironing mehmonxonasig'a taom ustida hozir kelibdur. Mardumlar sufrani qurshab o'ltirur erdilar³, shul asnoda azon ovozi keldi. Kishilar aydilar: «Avval namoz o'qub, so'ngra taom tanovul qilali⁴. Har kim namoz o'qimasa, taom yemasun», dedilar. Xolboqi misgar namoz uchun yer o'pgani yo'q erdi⁵. O'rnidan turub, tahorat qilib, namoz o'qub, so'ngra nafsini malomat qilib, darjang bo'lub⁶, aytur erdikim: «Ey tosh kemurgur nafs, mening ko'knori holimg'a boqmay, qo'l-oyog'imga sovuq suvni sazovor etib, rangimni kahrabodin⁷ o'tkarib, oxir meni namozxon aylading!» Siz anga o'xshabsiz. Siz o'z nafsingizni bitkoring yo sulton amrini. «Ikki suyaklik bir ko'ngulga sig'mas», debdurlar va yana yaxshilar debdurki: «Ikki kema tutgan qoldi g'arqob ichinda, chiqmas ul dengizdin bir kema tutmaguncha».

¹ Turumtoy tez uchar.

² So'z navbati kelganda tortinmasdan qarshisida o'tirganga ayta-veradigan.

³ Odamlar dasturxon atrofida o'tirgan edilar...

⁴ Avval namoz o'qib, keyin ovqat yeylik.

⁵ Xolboqi misgar namoz o'qimas edi.

⁶ Nafsini yomonlab, tajang bo'lib...

⁷ Rangimni sarig'dan ham o'tkazib...

Anda Kordon aydi: «Ey beadab shum, xo'jayinga nasihat qilg'uvdek bo'ldingmu? Qadimg'i yaxshilar aning uchun debdurlarki: «Yetim o'g'ul saqlasang, og'zi-burning qon etar, yetim qo'zi saqlasang, og'zi-burning moy etar». Va yana aytibdurlarki: «Ema bilgan qo'zilar ikki onani emar, ema bilmas qo'zilar o'z onasini emolmas». Kamina o'z nafsinni ham xushnud qilurman va ham sulton amrini. Sen xo'jayinga tanbih berguvdek bo'ldingmu?»

Anda Turumtoy aydi: «Taqsir afandim, xato qildim, og'iz oshga yetganda burni qonagan men bo'ldim. Eshitganingiz yo'qmu ilgari o'tganlardin masal qolibdurkim: «Arg'umoq ot bo'lmas ozg'an so'ng, xo'jasi qulig'a boqmas yozg'on so'ng». Lekin har qancha qulning xatosi ham bo'lsa, podshohning andin ortiqroq afv-u atosi bo'lur. Xurshidi olamtob zarraparvarliq oyinini qo'ldan bermas¹; bandalikning bo'stoni berangmu bo'lur², oftobning zarrasidin or va nangi bo'lurmu?»³

Alg'araz Turumtoy aydiki: «Ey xojam, men Yodgor po'stindo'zdin ham o'tkarib so'zlabman o'xshar»⁴.

Anda Kordon aydi: «Bu so'zlarga Yodgor po'stindo'zning nima daxli bor turur?»⁵ Muning tafsilini bayon qil!»

Anda Turumtoy aydi: «Odamizod orasida Yodgor bulotqi, degan bir odam bor erdi. Goho o'zini o'tkur so'fi ot qo'yub va goho sohibi donishmandi ro'zg'or⁶ olib der erdikim: «O'n yoshimda hazrat Nuhning ob azobda qilg'on

¹ Dunyoni yorituvchi quyosh eng mayda jonivorlarni tarbiyalash odatini qo'ldan bermaydi.

² Qulluq qilishning gulzori rangsiz bo'ladimi? Kishining o'z aybini bilib uzr etishi xilma-xil gullarga to'lgan gulzorga o'xshaydi.

³ Oftobning nurida or va nomus bo'ladimi? Uzr etgan kishi oftobning nuriga o'xshaydi, u or va nomusli bo'lgani uchun, uzr etadi.

⁴ Men Yodgor po'stindo'zdan ham o'tkazib so'zlaganga o'xshayman.

⁵ Nima daxli bordir?

⁶ Turmush bilimlarining egasi.

kemalarini yasarda yog‘och tutushib erdim»¹. Va aytur erdikim: «O‘n besh yoshimda hazrat Ibrohimni Namrud alayhilla’na manjiniqqa solib o‘tg‘a otarda bir poyasini tutushqon men erdim»². Va goho der erdikim: «Yigirma besh yoshimda Xo‘ja Ahmad Yassaviyning³ marqadlarini qilurda loy tashib, xisht bergan men erdim»⁴. Ul vaqtda o‘lturgan jo‘ralari aytur erdikim: «Ey Yodgor aka, rost so‘zlagil», desalar, «Muhammadquli Bahodirdin bo‘lakni bilsam, xudo ursun, der erdi. Men xabardor bo‘lsam, andin ham o‘tkarib so‘zlabman o‘xshar». Va yana aydi: «Ey to‘ram, bu so‘zga ham quloq solgilki, Yodgorning po‘stin tikkanini ko‘rsangiz, chokidan barmoq o‘tar, xaridor ushlab ko‘rib der ediki: «Bu qandog‘ tikish?» Ul javob berdikim: «Musht o‘tmasa, yaxshi tikish», der erdi... Vah yana men xabardor bo‘lsam, andin ham o‘tkarib so‘zlabman o‘xshar. Andog‘ bo‘lsa ham, o‘z qullari afv qilg‘uvdekdur», deb bo‘yun sundi⁵.

Kordon aydi: «Sungan bo‘yunni qilich kesmas», debdurlar, gunohingni o‘tdim. Sening holingga mulohiza qil-sam⁶, kam safarlikdin bu so‘zlarni aytding, safarda ko‘b tajriba hosil bo‘lur, magar sen «Kalila va Dimna»din bexa

¹ Nuh zamonasida katta suv toshqini bo‘lib, butun dunyoni suv bo-sadi. Nuh kema yasaydi. Mana shu voqea yodga olinadi. Yodgor bulotqi «Nuhning kemasiga yog‘och keltirib berdim», deb yolg‘on so‘zlaydi, chunki Nuh payg‘ambar necha asrlar ilgari o‘tgan, uni Yodgor bulotqi ko‘rgan ham emas.

² Bobil mamlakatining podshosi Namrud Ibrohim payg‘ambarni manjiniq (tosh solib otadigan qurol)ga solib o‘t (olov)ga otadi. Go‘yo Yodgor bulotqi Ibrohim payg‘ambarga yordam bergan emish.

³ Xo‘ja Ahmad Yassaviy – o‘n birinchi asrda o‘tgan tasavvuf adabi-yotining vakili.

⁴ Yigirma besh yoshida Xo‘ja Ahmad Yassaviyning qabrini qurish-da loy tashib, g‘isht berib turgan emish, Yodgor bulotqi bunda ham yolg‘on so‘zlaydi.

⁵ Bo‘ynini egdi.

⁶ Sening holingni o‘ylab ko‘rsam.

bar o'xsharsanki, Bozanda va Navozanda qissalarini senga bayon aylay».

Turumtoy aydi: «Og'zingdan o'rgulay, to'ram, bayon qiling!»

Kordon aydi: «Ilgari ayyomda ikki kabutar bor erdi, birini Bozanda, birini Navozanda der edilar va ikkovi kecha-kunduz bir oshyonda damsoz va bir koshonada hamroz erdilar. Bir kuni Navozanda Bozandaning yuziga boqdi, osori malolat anduh peshonasidan mutolaa qildi¹. Aydi: «Ey ko'zimning nuri va ey mahzun ko'nglimning sururi, zamiring ko'zgusi xira, yuzing shioi tiyra ko'rinur, ayyom nofarjomdin nelar ko'rdung va nelar tegdi?»²

Anda Bozanda aydi: Burung'ilar so'zidurki: «Arzon kira³ shahardin ovora qilur». Hech zod-u rohila menda yo'q⁴. Safar qilmoq dag'dag'asi boshimg'a tushubdur⁵. Jon to'tisi tan qafasidin parvoz qilur»⁶.

Navozanda aydikim: «Hayhot, bu xom tarvuzni qo'l-tug'ingga olmaki, bu xayoli fosiddur, dunyo arusidek orazing qizartib, ko'ngil ichida chekkanni chiqargil...⁷ Ey yori aziz, safar qilmoq ikki holatdin tashqari emas: biri vatanda

¹ Bir kuni Bozanda Navozandaning yuziga boqdi, uning peshonasidan g'am-qayg'u bilan siqilganini sezib qoldi.

² Ey ko'zimning nuri va ey qayg'uli ko'nglimning shodligi, diling oynasi xira, yuzing shu'lasi qorong'u ko'rinadi, baxtsiz zamondan nimalar ko'rding va senga nimalar ta'sir qildi?

³ Kira – biror og'ir yukni arava yoki ot-eshakda olib borilsa, shunga to'lanadigan haq.

⁴ Menda hech qanday yo'l ozig'i ham, hech bir ulov ham yo'q.

⁵ Safar qilish tashvishi boshimga tushibdi.

⁶ Bu iborada jon – to'tiga, tan esa qafasga o'xshatiladi, ya'ni tan qafasida tutqun bo'lib yotgan jon – to'ti qafasdan chiqib uchib ketishni istaydi.

⁷ Safar qilish haqidagi fikring xomdir, bu buzuq xayoldir; dunyoning go'zalligiga aldanib, qizarib qolmagin, ko'nglingdagi fikrlarni bayon qil.

avqoti kechmasdin va yana biri – izo va ihonatdin safar ix-tiyor qilurlar»¹.

Bozanda aydi: «Qadimgi yaxshilardin bir so‘z qolibdur:

Har kimki safar qilsa, pisandida bo‘lur,
Xurshid kabi ziyoyi har dida bo‘lur,
Olamda nimarsa yo‘q suvdin totlig‘,
Bir yerda maqom etsa agar, ganda bo‘lur²,

Osmonki, hamisha safarda – shams va qamar va savo-bit va sayyorasi safardadur³. Yerki, hamisha sohibi sabr va sukundur, poymoli har ahli dundur⁴. Gardun bila ko‘kg‘a boq va fikr et⁵. Ko‘k surati birla yer nechukdur⁶. Bu ikki olami bolo va asfalning orasida ko‘b farq sodir bo‘lur⁷. Daraxt bo‘ston ichra tahammul qilmasa edi, jafoyi arra va bolta izosini ko‘rmas erdi»⁸.

Navozanda aydi: «Daraxtni o‘zga joyga o‘rnatsalar ko‘karmas».

Anda Bozanda aydi: «Badaxshonda la‘l ma‘daniydur va Yaman aqiqning konidur... Aqiq Yamandadur va la‘l

¹ Ikki holdagina safar qilish mumkin: biri yashab turgan vatanida qi-yinchilik tufayli kun kechira olmaslikdan; va yana biri odamlarning nohaq masxara qilishlaridan, kamsitishlaridan safar qilishni istab qoladi.

² Har kimki safar qilsa, ma‘qul ish qilgan bo‘ladi. Safar qiladigan kishining ko‘zi nurli bo‘ladi. Olamda suvdan shirin narsa yo‘q. Lekin u bir yerda turib qolsa, sasib qoladi.

³ Osmon hamma vaqt yurib turadi, shuning uchun ham undagi quyosh va oy, turg‘un va sayyora yulduzlar yaltirovchi, nur sochuvchidir.

⁴ Yer esa hamisha sabr egasi va harakatsizdir, shuning tufayli har bir razil uni toptaydi, oyoqosti qiladi.

⁵ Taqdir bilan osmonga boq va o‘ylab ko‘r! Osmon ko‘rinishi qanday-tu, yerning ko‘rinishi qanday?

⁶ Bu o‘rinda Gulxaniy yer harakatlanmaydi, osmon esa uning atrofida aylanadi, degan noto‘g‘ri diniy qarashga asoslangan.

⁷ Baland olam bilan yer orasida ko‘p farq ko‘zga tashlanadi.

⁸ Daraxt bo‘ston ichida sabr-toqat qilmasa edi, arraning jafosini va boltaning azobini ko‘rmas edi.

Badaxshonda, har ikkisi to safar ranjini chekmaguncha, la'l va aqiq naqshdin va rang tarovatidin qolibdur, derlar»¹.

Anda Navozanda aydikim: «Safarga ko'b haris bo'l-maki, anda bir nuqta ziyoda bo'lsa, saqar bo'lur². Safarda rafiq kerak... Yaxshi rafiq birla yursang, saodat toparsan va yamon rafiq birla shaqovat. Dalilidur: nechukkim Sangpo'sht birla Chayon hamroh bo'lg'ondek».

Anda Bozanda aydi: «Qandog' erdi, so'zlagil».

Navozanda aydi: «Andog' eshitganim borki, Sangpo'sht Iroqdin Hijozga borur erdi. Yo'l uzasida nochor bir Chayonga yo'ldosh bo'ldi. Ikkisi zaruratdin hamroh bo'ldilar. Ammo Sangpo'sht bag'oyat farosatlik erdi. To bahaddiki, ko'b safarlarda yaxshi va yamon birla yurub, ko'b tajribalar hosil qilgan erdi³. Ammo Chayonga inon-ixtiyorini berib, bodiyalar qat' edub va marohil tay qilib yurur erdi. O'shal asnoda nogoh bir nahri azimg'a duchor bo'ldilar. Andin o'tar ilojini topmadilar. Tafakkur yag'ochi ko'prik bo'lurg'a ojiz va tadbir qamishi sol bo'lurga nojoizdur⁴. Oxirul'amr, Sangpo'sht... murod hadafig'a makrun bo'lub⁵,

¹ Aqiq Yamandan va la'l Badaxshondan chiqadi, har ikkovi safar mashaqqatini chekmasa («boshqa mamlakatlarga borib yetmasa» ma'nosida), la'l va aqiq go'zal va toza rangli bo'lolmaydi, deydilar.

² «Safar» so'ziga ko'p berilmagin, chunki bu so'zga yana bir nuqta qo'shilsa «saqar», ya'ni «do'zax» so'zi hosil bo'ladi. Arab yozuvida «safari» so'zi « » tarzida yoziladi. «f» () harfiga bir nuqta orttirilsa, u « » – «q»ga aylanib, hosil bo'lgan so'z endi («saqar») deb o'qiladi. Bu so'z esa o'zbek tilida «do'zax» ma'nosini bildiradi. Gulxaniy bu o'rinda ana shu xil so'z o'yinidan foydalanib, «Safarga ko'p ishqiboz bo'lmaginki, biror ortiqcha ish qilib qo'ysang, safarda do'zax azobini tortasan», degan ma'noni ifodalaydi.

³ Ko'p tajribalar orttirgan edi.

⁴ «O'ylash bilan ko'prik qilib bo'lmaydi, har qanday chora bilan qamishdan qayiq yasab bo'lmaydi» ma'nosida.

⁵ Nihoyat, Toshbaqa murod nuqtasiga yaqin bo'lib (murod-maqsadiga yetib)... («o'z istagi tomon intilib») ma'nosida).

shinovarlik birla muddao istid'osining sohilig'a o'zini oldi¹, g'oz va o'rdakdek silkunub turdi. Nogoh orqasig'a boqdi, ko'rdiki, yo'ldoshi yo'lda horg'on... nayzasini kiftig'a tik ushlab, yuqori-quyi yuribdur l.

Sangpo'sht aydikim: «Ey burodar, mavjub nedurkim, buyon o'tmaysiz?»²

Chayon aydi: «Ko'z yoshicha suv bo'lsa, bizga ma'zur tuting»³.

Sangpo'sht ko'nglida aydikim: «Yo'ldosh bo'lmoq sharti emaski, oz hodisa birla hamrohlik rasmini bartaraf qil-sam, uncha xo'b emas⁴. Avlo uldurkim, o'tkarib qo'ysam⁵. Qadingi yaxshilar masalidurkim: «Yaxshiliq qil – suvg'a sol, suv bilmasa, boliq bilur, boliq bilmasa, xoliq bilur».

Alqissa, Sangpo'sht cho'lg'ochini qo'lig'a olib, oz harakat birla o'zini sohilg'a oldi, aydi: «Ey burodar, seni daryodin o'tkargali o'g'radim⁶. Mening ustimg'a min, bejo harakat qilmaki, o'z joningga jabr qilursan»⁷.

Anda Chayon aydi: «Har kim o'z maslahatini o'zi bilur»⁸, deb Sangpo'shtning orqasig'a mindi. Daryoga tushub oqdilar. Zamondin so'ng Chayon tebrana berdi. Sangpo'sht aydi: «Bu bejo harakatdin muddaong nimadur?»⁹. Chayon aydi:

¹ «Suzuvchilik bilan muddaosi bo'lgan qirg'oqqa chiqib oldi» ma'nosida.

² Ey birodar, bu yoqqa o'tmasligingizning sababi nimadir?

³ Chayon namli joylarda yashamaydi, u quruq joylarda, qoq paxsala-rning orasida yashaydi, shuning uchun u «Ko'z yoshicha suv bo'lsa, bizga ma'zur tutasiz», deydi, ya'ni bu daryo-ku, ko'z yoshicha suv bo'lsa, bizni kechirasiz», deb o'zining daryodan o'tolmasligini bayon qiladi.

⁴ Ozigina hodisa (qiyinchilik) bilan hamrohlik odatidan voz kechsam, bu yo'ldoshlikning sharti emas, uncha yaxshi bo'lmaydi.

⁵ Yaxshirog'i shuki, o'tkazib qo'yay.

⁶ Ey birodar, seni daryodan o'tkazib qo'yish uchun yo'qlab keldim.

⁷ Mening ustimga min, noo'rin harakat qilma, aks holda o'z joningga jabr qilasan.

⁸ Men maslahatga muhtoj emasman, menga maslahat berma.

⁹ Bu o'rinsiz harakatdan maqsading nima?

«Bugun maydongni vasi' topdim¹. Burung'i yaxshilar: «Eshak o'yuni qirq yilda», debdurlar. Bugun po'lod nayzamni yakjirma qalqoningg'a² ozmoyish qilay derman»³.

Sangpo'sht aydi: «G'olibo uldurki:
O'z do'sti dilin resh aylag'ay jahldin,
Har kimki o'z mushtin urar devorg'a⁴.

Sening bu xor sifat nayzayi bemajoling mening bu yakjirma qalqonimg'a nima kor qilsun?»⁵

Anda chayon aydi: «Bilganing yo'qmukim, aqrabning muddaosi nish urmoqdur xoh do'st ko'ksinadur va xoh dushman orqasina»⁶.

Har kimki, odati nechuk bo'lg'ay,
Beirodat zuhur etar andin,
Toshdin nesh ayori yo'q aqrab,
Garchi mundoq demak ajab sendin⁷.

¹ Maydongning keng ekan. Maydondan maqsad toshbaqaning ust kosasi, «vosi'» – «keng», demakdir; Toshbaqaning ust kosasini Chayon keng maydon deb ataydi.

² Qalqon – qattiq ma'dan (metall)dan ishlangan qilich, nayza va o'qni o'tkazmaydigan urush asbobi, bu qurol to'garak shaklida bo'ladi. Chayon esa Toshbaqaning ustidagi kosasini qalqon deb ataydi. Bu qalqon ham Toshbaqaning boshqa a'zolarini turli falokatdan saqlaydi.

³ Bugun po'lat nayzamni gavdang ustidagi qalqoningga urib, bir sinab ko'rsam deyman.

⁴ Har kim jahl va nodonlik bilan o'z do'stining dilini yara qilsa, u o'z mushtini devorga urgani bo'ladi.

⁵ Sening bu tikonga o'xshagan kuchsiz nayzang mening jasadimdagi (qalqonimga) qanday ta'sir qilsin?

⁶ Bilmaysanmi, Chayonning maqsadi xoh do'stning ko'ksiga, xoh dushmanning orqasiga nayza sanchishdir.

⁷ Har kimning odati qanday bo'lsa, beixtiyor shu odatni qilaveradi. Sening gaping ajablanarli bo'lsa ham, Chayon chaqishga kelganda toshni ham ayamaydi.

Sangpo'sht aydi: «Yaxshilardin bir masal qolibdurkim: «Inonmagil do'stungga, somon tiqar po'stungga», «Oshnangdin top» degandek, do'stum, suv uzra xasdek yurmoq tokay?¹ Bu bahri amiq javohirlarin tamosho qilmoq kerak», deb g'avvoslardek bir g'o'ta urdikim, ul javohir termogda va Chayon jon bermoqda qoldi². Bu masalni aning uchun keltirubdurkim: «Aslning xatosi bo'lmas, nojinsning oshnosi bo'lmas», «Bo'ynida illati borning oyog'i qaltiraydi». Bu so'zning nihoyati uzoqdur, lekin maqsud qo'ldin ketar. So'z maqsudig'a kelduk³.

Alqissa, Kordon birla Turumtoy safar anjomini muhayyo qilib jo'nay berdilar⁴. Qat'iy manozil va marohil tay qilib, Qubod shahristonig'a yetdilar. Boyo'g'li oshiyonig'a kelib qo'ndilar. Boyo'g'li bularning kelganidin ogoh bo'lub, oldilarig'a chiqib: «Xayri maqdam, xush kelibsizlar!» – deb gardi rohlarini qoqib, mehmonxonag'a chirog'lar yoqib, paloslar solib, alarni qo'ndurub, uchoqg'a o'tun qalay boshladi. Ul chog'da havo e'tidoli o'tib, qish zamhariri yovuq edi⁵. Sovuq kasratidin har chand «puf-puf» qildi, yonmadi...⁶ Boyo'g'li aydi: «Ko'ring, qarilig'imning boshi, esim yo'qidin o'tni yoqolmadim»⁷.

Anda Kordon aydi: «Eshitganim borki: «Shayxning hunari bo'lmasa, xonaqoh tang» va yana yaxshilardin bir masal qolibdurki: «Qalovin topsa, qor yonar, qalovin top-

¹ Do'stim, tokaygacha suv yuzida xasdek yuramiz?

² Chuqur daryoning qimmatbaho toshlarini tomosha qilmoq kerak, deb suv tagiga sho'ng'uvchilardek bir sho'ng'idiki, u (Toshbaqa) qimmatli toshlar tera boshladi, Chayon esa jon berdi.

³ So'zni eshitib o'tiraversak, maqsadga yetib bo'lmaydi, so'zning maqsadiga yetdik.

⁴ Safar uchun kerakli narsalarni tayyorlab jo'nay berdilar.

⁵ Bu vaqtda havoning o'rta darajaligi o'tib, qattiq qish yaqinlasha boshlagan edi.

⁶ Sovuqning kuchliligidan har qancha «puf-puf» qilsa ham yonmadi.

⁷ Ko'ring, qarilik boshlanib qoldi, esimning yo'qligidan olov yoqolmayman.

masa, qoqshol o'tun ham yonmas». O't yoqarni bilmaysiz, bizga qandog' muomala qilursiz?»

Boyo'g'li aydi: «Tojikning bir masali borki: «Yoreki ahlast, kori o' sahlast»¹.

Andin so'ng Boyo'g'li bazm asbobini tuzub, rud, ud, daf, nay, barbat, qonun, navozanda, sozanda jam' aylab, mehmondorlik rasmini barpo tutdi². Mug'anniylar sozlarining qulog'iga go'shmo' uchun qo'l solib, tob berdilar³.

Bir-ikov naqora orqasig'a darra birla kohil namozni urgan raisdek ura berdilar va o'tg'a daf orqasini, o'g'rining orqasini toblagandek, toblay berdilar⁴. Alqissa, nag'ma navosini falakka yetkura boshladilar⁵. Kordon Boyo'g'liga boqib aydi: «Sizning bila bir parda ichida navo qilali va beparda so'zlashmayluk»⁶, – dedi.

Boyqush aydi: «Rost aytursiz, yaxshilar so'zidurkim: «So'zni aytg'il uqqang'a, jonni jong'a suqqang'a, aytub so'zni netarsan, onadin yamon tuqqang'a». Mazalik so'zga har qancha quloq solsa bo'lur, andog' aytibdurlarki:

«Agar so'z jona paydo qilmasa so'z,
Ani so'z demagil, ey majlis afro'z»⁷.

Kordon aydi: «Biz kamina Malik Shohinning halqa bago'shlaridin bo'lurmiz. Bizga andog' bilindikim, Gu-

¹ Do'stlar ahil bo'lsa, ishi oson bo'ladi.

² Undan so'ng Boyo'g'li bazm tayyorgarligini ko'rib, cholg'u asboblari: rud, ud, daf, nay, barbat, qonunlarni, ashulachi va cholg'uchilarni to'plab, mehmondorchilik odatini bajo keltirdi.

³ Musiqachilar cholg'ularining qulog'ini burab sozladilar.

⁴ Bir-ikki kishi nog'oraning orqasiga namozga beparvo bo'lganlarni darra bilan urgan raisdek, ura berdilar, o'g'rining orqasini qizdirgandek chirmandaning orqasini o'tda qizdira berdilar.

⁵ Sozandalar kuy sado (ovozi)sini osmonga yetkiza boshladilar.

⁶ «Siz bilan bir masala to'g'risida suhbatlashaylik, lekin gaplarimiz ma'noli bo'lsin, bema'ni gaplarni qo'yaylik» ma'nosida.

⁷ Ey majlisni qizituvchi, agar so'z jonga ta'sir qilmasa, kuydirmasa, uni so'z demagil.

nashbonu oyimni Yapaloq bibi bolasi Kulonkir sultong'a beribsiz, deb eshitdik. Har na tilagan qalinni o'z qulog'im birla anglag'oli keldim, toinki xarji isrof bo'lmag'udek bo'lmasin, emdi na buyurursiz», – dedi.

Boyo'g'li aydi: «Ilgari o'tgan yaxshilar masalidurkim: «Qo'ynidin to'kulsa qo'njig'a», debdurlar. O'z qarindoshlarimdin kishi chiqar. Yapaloq bolasi kuyovga hojat emas... Ko'pak bolasig'a ne deb berayin».

Anda Kordon aydi: «Er tilagan yerda aziz» va yana aytibdurlarki: «Qizni oshiqig'a ber»...

Boyo'g'li aydi: «Oltunning bitgan yerda qadri bor»¹ va «Changal o'z joyida kun ko'rar»...

Kordon aydi: «Sen ilgari o'tgan odamlarning kirdorin qilmassan... Holo sen hozirni ko'rgil. Masaldurki: «Bugungi naqd o'pka ertagi quyruqdin yaxshidur». Holo sen Yapaloq bibini ko'pakdek deding, qadimgi yaxshilardin bir masal borki: «Egasini siylagan itiga so'ngak tashlar». Sen andog' dedingkim: «Qizim, senga ayturman, kelinim, sen eshit», qilding. Sening bu so'zing Ashur yiriq qassobga o'xshar, yo'ldin bir oyna topib, o'zining nomuborak yuzini ko'rub, oynani yerga urub, anga necha ayblarni qo'yub der erdikim: «Yaxshi mato' bo'lsa, yo'l uzasida turmas edi», deb va aytur erdikim: «Na xorlik senga zishtlikdindur va zishtlik badsirishtlikdindur². Agar sening xirading diydasi xira va zamiring aynasi tiyra bo'lmasa erdi, avval o'z aybingga boqib, o'zgalar aybini yashursang xo'b erdi»³.

Boyo'g'li aydi: «Menga nasihat o'rgatgali keldingmu? Sening nasihatning qulog'imdin yeldek o'tar, seldek chiqar».

¹ «Oltin qayerda topilgan bo'lsa, o'sha yerda ko'proq qadrlanadi, bahosi o'sha yerda oshiqroq yuradi» ma'nosida.

² Xorlik sening yomonligingdan emas, yomonlik esa yomon odatdan emas.

³ Agar sening aqling ko'zi xira va diling oynasi qorong'u bo'lmasa edi, avval o'z aybingni ko'rarding, so'ngra o'zgalar aybini yashirarding.

Kordon aydi: «Nasihat qulogʻingda yeldek turmas oʻxshar...»

Boyoʻgʻli aydi: «Yomonning kuchi yapaloqqa yetar», degandek, anglagʻoning yoʻqmukim, «Anglamay soʻzlagan ogʻrimay oʻlar, chaynamay yeganlar kavshamay ketarlar».

Bu soʻzni eshitgan zamon Kordon xazinachining gʻazab oʻti ishtigʻollanib, vujudi nayistonigʻa oʻt tushub, tutuni gardungʻa xirrom bogʻladi¹. Bahaddiki, xijolat teri toʻfon, balki ajuz ayyomining qor va yomgʻuri aning chorasiga hayron erdi². Aydikim: «Ey abushqa, quyosh jamoli jilvasidin mahrum, voy tuyurlar sinfidin marjum... Yaxshilardin bir masal qolibdurki: «Yaxshilar topib soʻzlar, yomonlar qopib soʻzlar»³... Men seni Boyoʻgʻli deb eshitib erdim, eshitganim koʻrgandek emas ekan. Men mehmon boʻlsam, qilgan peshomading shuldurmu?»⁴

Boyqush aydi: «Mendin oʻtdi, maʼzur tuting: «It qilgʻonni itorchi qilmas», debdurlar... Men xabardor oʻldimkim, Tevadin ham oʻtkarib soʻzlabman oʻxshar⁵.

Kordon aydi: «Soʻzla!»

Boyoʻgʻli aydi: «Bir tulki yoʻlda ketib borur erdi. Zimiston erdi. Qor va yomgʻur behad yogʻub, koʻchalar loy erdi. Anda bir Teva loygʻa yiqilib, agʻnab, shoʻngʻib, har tora moʻyida botqoq loy yopushub erdi. Ul Teva sorbongʻa xobi xargoʻsh berib, bir shoʻrazor jaziraga qochib borur erdi⁶, ul Tulkiga duch keldi. Tulki salomlashib, Tevadin hol

¹ ...gʻazab oʻti alangalanib, vujudi qamishzoriga oʻt tushib, tutuni osmonga koʻtarildi.

² Shu darajagacha borib yetdiki, xijolat teri boʻlgan toʻfon ham, eng sovuq kunlarning qor va yomgʻiri ham chora topa olmas, qalbidagi oʻtni oʻchira olmasdi.

³ Ey quyoshning goʻzal nuridan mahrum boʻlgan va ey qushlar orasidan quvilgan chol, yaxshilardin bir masal qolibdurki, «Yaxshilar topib soʻzlar, yomonlar qopib soʻzlar».

⁴ Men mehmon boʻlsam, hurmat qilib oldimga qoʻyganing shumi?

⁵ Tuyadan ham bemaʼni soʻzlaganga oʻxshayman.

⁶ U tuya tuyakashni chalgʻitib, bir shoʻrazor orolga qochib borayotgan edi.

so‘rab aydi: «Ey birodari buzugvor, hormasunlar, qaydin kelurlar?»

Teva aydi: «Hammomdin kelurman».

Tulki aydi: «Borakallo, rost aytursiz, hamma bosh-din-ayog‘ingiz taru-toza va pokiza. Buni ayoqlar-ingizdin mulohaza qildimki, garmoba suvini bosh-ing va oyog‘ingga ishlatibsan, magar hammomchi o‘lgan ekanmu va hammomni xoli ko‘rdingmu?» Yana Muhammad Xoliqboyning bir Safarboy degan ahmoq bog‘boni bor erdi. Safarboy toza, xush ta‘m o‘ruklarning shoxini kesib tashlab, aning o‘rnig‘a ach-chig‘ danak o‘ruk shoxini payvand qilur erdi va yana o‘sgan nihollarning ho‘l shoxini kesib, quruq shoxig‘a payvand solur erdi. Bu aql va farosati birla o‘zini hama bog‘bonlardin dono olur erdi...»

Alqissa, Kordon aydi: «Ish bitguvchi maslahatni qil».

Boyo‘g‘li aydi: «Mening ham urug‘larim bor, alar birla maslahat qilib javob berurman».

Kordon aydi: «Xo‘b, lekin Xo‘qanddagi ikki Faj va Kaj¹ betamizdek qarindoshing birla maslahat qilib, bizni oro yo‘lda qo‘ymag‘il».

Boyo‘g‘li aydi: «Ul ikki Faj va Kaj kimdur? Bayon qil!»

Kordon aydi:

O‘zin goh mullo olur, goh taqi,
Niyozcha og‘aliq xush ahmaqi².

Hama ishig‘a yolg‘on so‘zi dastgir,
So‘zin sarf etib, qornin aylardi sir³.

¹ Faj – xom, nodon degan ma‘noni, Kaj esa qing‘ir, teskari degan ma‘noni anglatadi.

² Niyozcha og‘aliq tuzukkina ahmoq bir odam bo‘lib, u o‘zini goh mulla, goh dindor qilib ko‘rsatadi.

³ Hamma ishda unga yolg‘onchilik yordam beradi. Yolg‘on so‘zlari bilan o‘z qornini to‘ydiradi.

Olur goh mullo o‘zin, goh amin,
Vale bilmagay suhbatini xonabin¹.

Birov oldig‘a kirsam, der erdi: «Hoy,
Chilim sol, buyurtir palov, Mallaboy».

Bobojon Ashur cho‘loq-u Ali biri,
Ho‘qand mulkida ahmaqini nodiri².

O‘zi ko‘r, ravshan yururdi ajab³
Kecha-kunduzi justjo‘yi talab...⁴

Bular birla har maslahat kaj edi,
Bu ikkisi shahr ichra ko‘b faj edi⁵.

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Siz aytgan Muhammad Amin Xo‘ja mufti kotibdurki, mudom har ishda o‘zidin bemaza va befahm va beidrok odamga maslahat qilur erdi. Xoh forsiy, xoh arabiy, har kitobki bitsa, sahva va xato va g‘alatin xoli emas erdi⁶, bovujudi bu hama noqisligi birla o‘zini hamadin mullo va donishmandi ro‘zgor ko‘rar erdi⁷».

Anda Kordon aydi: «Muhammad Amin Xo‘ja muftining sifatini bayon qil».

¹ O‘zini goh mulla, goh amin deb ko‘rsatadi, Ammo uyida o‘tirib suhbat qilishni aslo bilmaydi.

² Qo‘qon mulkida cho‘loq Bobojon Ashur Ali ahmoqlikda kam topiladiganlardan biridir.

³ Ajoyibki, Bobojon Ashur Ali o‘zi ko‘r bo‘lsa ham, ko‘zi ochiqdek yurardi.

⁴ Kecha-kunduz ovqat talab qilib qidirgani-qidirgan.

⁵ Bu ikkala kishining har qanday maslahati noto‘g‘ri, teskari chiqadi, bu ikki shaxs shahardagi eng nodon, xom kishilar edi.

⁶ Xoh forscha, xoh arabcha kitobni, albatta, xato va yanglishlar bilan yozardi.

⁷ Shunday kamchiliklari bo‘lsa-da, o‘zini hammadan mulla va zamonning bilimdoni deb bilardi.

Boyo'g'li aydi:

Edi ismi Muhammad Xo'ja mufti aning,
Xati xush, bayon aylayin men aning.

Erur asli, nasli qizilbosh, saqat,
Bitardi kitob barchasini g'alat¹.

Kichik oftobani davot deb olib,
Ajab yaxshi deb kissasiga solib².

Etib kibr-u manlik sharobini no'sh,
Qalamdoni sanduqchayi dukfurush³.

Anda Boyo'g'li aydi: «Peshqadam kor ozmo qarindoshlarim bor. Alar birla maslahat qilurman».

Anda Kordon aydi: «Go'rga, qarindoshlaringiz bo'lsa, oq xaltasi, ko'k xaltasi bo'lmasa; kor ozmolar so'zidir: «Qarindoshing kelsa-kelsun, bo'z xaltasi kelmasun»...

Boyo'g'li aydi: «Sopol chinni bo'lmas, begona ini bo'lmas»⁴. Qat'i silayi rahm yomondur»⁵.

Kordon aydi: «Rost aytursan. Kor ozmolar debdurkim: «Qarindoshim qora qozonim». Yana bir masal borki: «Qarindoshing o'lsa-o'lsun, qadrning o'lmasun». Ey Boyqush, holo sen «Ko'rpanga qarab oyoq uzat». Sen ming chordevordin dam urarsan⁶. Vaholanki... Sayid Umarxon davrida Farg'ona iqlimida «obodlig'»din o'zga joy yo'q... Daxi to'qol echki munguz ti-

¹ O'zining asli, nasli eronli bo'lib, mayib kishi edi: har qanday kitobni xato yozardi.

² Kichik obdastani siyohdon deb oladi-da, juda yaxshi narsa ekan, deb cho'ntagiga soladi.

³ Manmanlik sharobini ichardi («manman, maqtanchoq odam edi» ma'nosida), qalam solinadigan qutichasi esa dukfurushning sandiqchasiga o'xshardi.

⁴ «Sopol chinni bo'lmaydi, begona esa uka bo'lmaydi» ma'nosida.

⁵ «Qarindosh-urug' oldidan o'tmaslik yomondir» ma'nosida.

⁶ Sen qalin uchun so'rayotganga o'xshaysan.

lab – qulog‘idin va yo bir dumsiz eshak dum ishtiyoqidin yo‘llar
yurub – ikki qulog‘idin ayrilg‘ondek bo‘lma!»

Boyo‘g‘li aydi: «Hikoyat qil!»

Kordon aydi:

Budast xareki dum nabudash,
Ro‘ze g‘ami bedumi fuzudash.
Dar bodiyaho qadam hamezad,
Dum metalabid-u dam namezad.

Nogohki ro‘zi ixtiyori,
Biguzasht miyoni kishtizore.
Dehqon magarash zi dur medid,
Barjastu varo du go‘sh burrid.
Miskin xarak orzo‘yi dum kard,
Noyofta dum du go‘sh gum kard¹.

Mundin nari bir buzuq chordevorning otini tutma. Tish-
ing sinar. Emdi sen ham quyushqondin² tashqari chiqma,
sunnat bajo kelgudek ish qilib jo‘nata ber. Bir masaldurkim:
«Yetim qizg‘a yelpug‘uch chikora?» degandek, holo sen
o‘zingning Qubod shahristoningni Kayqubodi sonub, bizni
manzur etmading...³

¹ Mazmuni: bir dumsiz eshak bor edi. U bir kuni dumining g‘amida
yo‘lga chiqdi; sahrolarni kezdi, dum istab, unga erisha olmadi. Ittifo-
qo bir kun yo‘lga chiqib, ekinzorning o‘rtasiga tushdi. Uzoqdan uni
dehqon ko‘rib qoldi va yugurib borib, uning ikki qulog‘ini kesib oldi.
Bechora eshak dum orzu qilib, uni topolmadi, aksincha, o‘zining ikki
qulog‘idan ajraldi.

² Quyushqon – ot jabduqlaridan biri. Bu asbob egarni otning bo‘yniga
tushib ketmasligi uchun orqa tomondan otning dumi osti orqali tortib
turadi. Shu munosabat bilan quyushqonning ikki uchi egarning ikki to-
monidan tortib turadi.

³ Hozirda sen o‘z Qubod shahristoningni Kayqubodi hisoblab, bizni
maqbul ko‘rmading.

Anda Boyqush aydi: «Parda ichida beparda so‘zlarni ko‘b so‘zlashtuk¹, nag‘ma roygon ketti². Bazmdin keyin har qancha qonun navoz gapingiz bo‘lsa, anglasa bo‘lur»³.

Soqiyi tumtaroqlar piyola suna boshladilar⁴. Boda nash‘asi Kordon birla Boyo‘g‘li ranglarig‘a tokka suv yurgandek yugurdi...⁵

Alqissa, zamondin keyin bazmlari tuganib, mug‘anniylar olganlariga quvonib, oroyish uzulib, ma‘raka buzulib, el oyog‘i tinib⁶, orom uchun etakdin oyoq, yaqodin bosh chiqardilar...⁷

Alg‘araz, Kordon aydi: «Ey Boyo‘g‘li, biznikini qabul qiling, bizlar ketarmiz, Ko‘rqush kelib, munozarani sendin eltur: «Eshak yo‘li qotqoqda emas, botqoqda ma‘lum bo‘lur», – dedi.

Boyo‘g‘li aydi: «Sinagan yov urushga yaxshi».

Anda Kordon aydi: «Yov ketgan so‘ng, qilichni yerga ur».

Anda Turumtoyki, Kordonning mulozimi erdi, Boyqushning buncha g‘ururidin xafa erdi, Boyqushga Ko‘rqush yaxshi aytgan bir masalni aydi: «Yomon otga yol bitsa, yoniga to‘suq bog‘latmas, yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo‘ndirmas». Turumtoy bu so‘zni aytib erdi, Kordon aydi: «Issig‘ jon isitmasiz bo‘lmas». Ey Boyo‘g‘li, farzandingni tozalik vaqtida uyasiga qo‘ndirgil⁸, nechukkim, Amir Navoiy debdurlar:

¹ Parda ichida uyat so‘zlarni ko‘p so‘zlashdik, ya‘ni uyat so‘zlarni bir-birimizga tushunarli qilib xilvat joyda so‘zlashib oldik.

² Ashulalar bekorga ketdi. («Gap bilan bo‘lib, ashulalarni eshitolmay qoldik» ma‘nosida.)

³ Bazmdan keyin har qancha yoqimli gapingiz bo‘lsa, tushunsa bo‘ladi.

⁴ Dabdabali, nihoyatda chiroyli kiyingan soqiyalar ularga may tuta boshladilar.

⁵ May kayfi Kordon bilan Boyo‘g‘lining tomirlariga tokka suv yurgandek yugurdi.

⁶ Elning (odamlarning) yurishi tamom bo‘lib...

⁷ Uxlash uchun odamlar kiyimlarini yecha boshladilar.

⁸ Ey Boyo‘g‘li, farzandingni yoshlik chog‘ida uy-joylik qilgil.

Onasi bila kunda e'tiroz etgan qiz,
Bir o'zgani o'ziga ahli roz etgan qiz.
Qayin yurti bilan kuyovning uyini xush
Ko'rmakdin onasi bila noz etgan qiz¹.

Anda Boyo'g'li darqahr bo'lub aydiki: «Sen mening qizimning o'zga hamrozi bor degandek qilding. «Yaxshi topib so'zlar, yomon qopib so'zlar», degandek, bu nima deganingdur?»

Kordon aydi: «Ajab sodda ahmoq ekansan!... Sening so'zingni Otaboy amindek betamiz kishinikiga o'xshatarmanki, bozordin xotunig'a kafsh olibdur, bir begona hol qassobg'a ko'rsatibdur: «Bu kafsh mening xotunum oyog'iga loyiq kelurmu?» deb so'rabdur. Ul javob beribdurki: «Men sening xotuning oyog'ini ko'rganim yo'q». O'zing avval ahmoqsan! Baromadi so'z² o'tganlarning so'zini izhor qilib o'tdim. Men sening qizing atvorini bilmasman».

Anda Boyo'g'li aydi: «Niyozcha og'aliq, Bobojon va Muhammad Amin xo'ja muftiki, mazkur bo'ldi, bu uch ahmoqning maslahati birla ish qilib, aro yo'lda qo'ymang dersan, mening bobolarim hazrati Sulaymon birla munozara qilg'on kishidur».

Kordon aydi: «Otadin dam urma, pand yersan...»³ Bir masal borki: «Ota so'rab netarsan, erning o'zi bo'lg'on so'ng, yo'l so'rgan nomarddur, ot ustina mingan so'ng». «Ishni o'z aqling birla qilsa bo'lurmu?»

Anda Kordon noumid bo'lub, Ko'rqushning oshyonasig'a qadam qo'ydi. Ko'rqushni ko'rgan hamon qaqshab aydi: «Har kim Ko'rqush so'ziga kirsa, biz ko'rgan haqoratlarni ko'rar va biz tortgan mashaqqatlarni chekar».

¹ Onasi bilan har kuni janjal qiladigan qiz o'zga bir kishi bilan sirdosh bo'lgan – sevishgan qizdir. Begona yurt bilan kuyovning uyini yaxshi ko'rganidan onasi bilan xarxasha qilgan qizdir.

² So'z kelib qolganda, so'z orasida...

³ Otadan gapirma, shikast yeysan.

Anda Ko‘rqush aydi:

«Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas, Riyozat chekmaguncha, yor vaslig‘a yetib bo‘lmas».

Yana bir masal borki:

«Er boshig‘a ish tushsa, o‘tuk chechmay suv kechar, ot boshiga ish tushsa, so‘luq birla suv ichar». Ishlarni bitkarib keldingizlarmu?»

Kordon aydi: «Bizdin baland nimarsa tiladi, biz ojiz kelduk»¹.

Ko‘rqush aydi: «Boyo‘g‘li javobi nima bo‘ldi?»

Kordon aydi: «Boyo‘g‘li ayturki, «Ming chordevor tokchasi gacha xok va naqsh-u nigor qilingan va hech Boyo‘g‘li soyasi tushmagan bo‘lsa unarman² va illo mundin bir chordevor kam bo‘lsa, unamasman». Ul «tokcha» dedi, biz «mo‘ri» dedik, jo‘nay berduk».

Ko‘rqush aydi: «Sening ismingni Kordon qo‘yubdurlar – ishni bilib qilsang kerak edi va hech ish bilmas ekansan. Kordon ismingning aksini qo‘ysalar kerak edi. Movarounnah-rda³ Amir Umarxon⁴ turgan Urgut, Rabot, Po‘shag‘urbek, Xayrobod. Bulardan shahri Qubod rashk aylab, adam sari yuzlandi. Sendek davlatlik orqamda bo‘lganda edi, Buxoroning har tumanidin ming chordevorni topib, birdin muhim xayr ishini bitkarar erdim. Sening kordonlig‘ing kulol mo‘ndida suv ichgandek va yo «Bo‘zchi belboqqa yolchimas», degandek bo‘ldi.

Anda Kordon aydi: «Yov tubi el bo‘lur, jar tubi yo‘l bo‘lur», «Quda bo‘lsa, qul bo‘lsa ham so‘zlash». «Quda bo‘lduq, juda bo‘lduq», degan so‘zga yo‘qmiz».

Anda Ko‘rqush aydi: «Masaldurki: «Ming qarg‘aga bir kesak». Sening so‘zing anga o‘xsharki, Eshon kalla degan hofiz yaxshi ko‘rgan to‘ppisini tez oqar suvga oqizibdur.

¹ Bizning kuchimiz yetmadi.

² ...va birorta Boyo‘g‘li kirmagan bo‘lsa ko‘naman.

³ Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi joylar.

⁴ XIX asr Qo‘qon xoni.

Necha jahd birlan ololmay, nochor mahrum bo‘lub aytur erdikim: «Yo‘qolg‘oni xub bo‘ldi. Boshimg‘a tor kelur erdi», deb afsus yer erdi. Mushuk ilmog‘dagi quyruqni ololmay, «Puf sassig‘», degandek so‘zni qo‘y. Agar sen ham tunlar podshohi Majnunga orqa bo‘lgandek va yo Mu‘tamir podshoh arab Ayniyaga diljo‘ qilib Rayyoni olib bergandek ish qilsang erdi, to yavmal jazogacha sendin nomi nek qolur erdi»¹.

Kordon aydi: «Hikoyat qil!»

Ko‘rqush aydi: «Ilgari zamonda Mu‘tamir otlig‘ podshoh bor erdi... Ul vaqtda qish erdi».

Ayniya tun uzoqlig‘idin va kecha qorong‘ilig‘idin xonaqoh ichida ovozi hazin birla shikva qilur erdikim: «Bu nechuk tunki, aning tongi yo‘q... yo tovuqning tomog‘idin tulki tuttimukin va yoki yer yuttimukin?» Zamondin keyin xomush va sham‘ parvonasi behush va yo tori uzulgan sozdek nosoz va firoq alamidin mone‘ ovoz bo‘lub yotordi².

Anda Mu‘tamir podshoh aydi: «U alamzadani tutub so‘rasam xo‘b erdi», deb pushaymonligi ortar erdi va zamondin so‘ng yana odat ma‘hudini boshladi. Anda Mu‘tamir podshoh xonaqohga kirib, ul yigitning qo‘lidan tutub olib chiqti. Avval nolasin so‘radi va aydi: «Ey yigit, bemor tuzalgusi kelsa tabib o‘z oyog‘i bilan kelur, degan so‘zni bilganing yo‘qmu? Har muddaong bo‘lsa izhor qilg‘il».

Ayniya aydi:

Baloyi ishqg‘a uchrab, telba bo‘ldim, anglagil ey shoh,
Kishi mendek balog‘a muhtaloyi bo‘lmasun aslo.

¹ Agar sen ham tunlar podshohi Majnunga yordam bergandek va yoki Mu‘tamir podshoh arab Ayniyaning ko‘nglini topib Rayyoni olib bergandek ish qilsang edi, qiyomatgacha sendan yaxshi nom qolardi.

² Bir qancha vaqtdan keyin Ayniya xomush va sham‘ parvonasidek behush yoki tori uzilgan musiqiy asbobi kabi sozlanmagan, ayriliq daridan ovozi chiqmaydigan bo‘lib yotardi.

Podshoh aydi: «Ey Anzor¹ farzandi, ey baloning dard-
mandi, ishq selobidurki, din ma'murasi binosining raxna-
gari va majnunlik xarob obodining imoratlari»² deb Ayni-
yaning qo'lidan tutub, Anzor mahallasig'a³ olib bordi. Aydi:
«Ey ansoriylar, bu yigitni tonirmusizlar?» Anda ansoriylar
guvohlik berdilarkim: «Ori, bu yigit pokliqdin arab ichra
mashhur va hama atvori pisandida. Lekin sahal kundurki,
ishq bozorining rasvosi va savdo chamanining bulbuli shay-
dosidur. Mundin o'zga zahir... aybi yo'qdur. Alqissa, pod-
shoh ansoriylardan bu so'zni eshitib Ayniyaning qo'lidan
tutub qo'shig'a olib bordi. Hamiyat himmatini darjo'sh kel-
turub, yarim xazina dinor, yuz teva, uch yuz qora mol, uch
yuz yilki, besh yuz qo'y va qizning bosh-ko'zi yasaladigan
qalinni jamlab, muborizoni shujo' va oloti amal etib, Ayni-
yadin so'rabdikim: «Qaysi qabilaning mohiro'yi va sunbul
bo'sig'a giriftor bo'lding?»

Ayniya aydi: «Bir kun bir buzrukvor jomii haramda
duog'a mashg'ul erdilar. Jomi'da haram taqobilida rohi
omma bor erdi. Qarib ming uyluk arab ul yo'ldin o'tar
erdilar va bir necha huruliqo tovusdek xirom aylab, alardin
keyin bir pari mumtoz, necha ishva va noz birla va zebu
ziynat birla o'tub va aning qoshi ko'zi sifatini savsande-
k ming zabon paydo qilib, to yavmal ma'lumgacha so'zlasa
ado bo'lmas, ko'zumga tushdi. Ersa mahvi jamoli bo'lub,
hushum ketibdur. Qulog'imga ovoz keldiki: «Ey Ayniya,
men sening xohlaganingdurman. Zamondin so'ng o'zumga
kelsam, ulardin hech asar topmadim», dedi.

Alqissa, podshoh ul bodiya nishin arablar yurgan yo'lg'a
Ayniyani olib tushti. Nechand manzil va marohil tay qilib,

¹Arablarning qadim vaqtdagi bir shaharining nomi.

²Ey Anzor farzandi, ey balo qayg'ulariga giriftor bo'lgan yigit, ishq
seli shunday bo'ladiki, u dinning obod binolarini vayron qiladi, maj-
nunlik ishoratlari obod bo'ladi.

³Mahalla bu o'rinda «shahar» ma'nosida ishlatilgan.

ular bani Salim urug'ina yetushdilar va podshoh Salimg'a mehmon bo'lub tushtilar. Ular suyunchi va peshkash va necha turluk mohazar qildilar. Podshoh Mu'tamir hech qaysisig'a rag'bat qilmas erdi. Anda bodiya nishin arab urug'lari majmuyi bir yerda o'lturub erdilar, dedilar: «Podshohi arabning ne muddaosi borki, anjomi harb va anjomi to'y bordur, peshkash va mohazarlarga aslo boqmas». Bu asnoda mardumni chaqirib voqeani bayon qildilar. Bu turganlarkim, podshohning muddaosini bildilar: «Qizning otasi bu jam'da yo'qdur», deb filhol qizning otasini hozir qildilar. Amri xayr so'zlarini podshoh birla qizning otasi so'zlashdilar.

Anda qizning otasi aydi: «Ey podshoh, xo'b bo'lubdur, bolam ham bolig'dur, o'zidin so'rab javob bersam kerak», deb qizning huzuriga kirib aydikim: «Ey bolam, Mu'tamir podshoh Ayniya ismlik o'g'liga aqd qilg'oli kelibdur, ne javob berursan?»

Qiz Ayniya nomini eshitgach, ruxsori gul-gul yona berdi. Qizning rizosini otasi anglab, aydikim: «Ey bolam, xomush o'ltur. Sendek gavhari aslni har noqobilning qo'liga bermasman».

Anda qiz aydi: «Ey jonim ota, bori bermas bo'lsangiz ham, zinhor yomon so'zlab ozurda qilmang... «Bermas qizning qalini ko'b», debdurlar. Baland mol solsangiz ozorsiz maslahatdur».

Alqissa, qizning aytganidek podshoh qalin soldi: «Yuz teva, ikki yuz qora mol, besh yuz qo'y, qizning qosh va ko'zini yasay oladigan qalinni sanab topshirdi... Ayniyaga Rayyoni aqd qildilar».

– Ey, Kordon, sening Malik Shohingda aning moli-cha mol yo'qmu? – dedi. – Sening behimmatlig'ing o'z nodonlig'ingdin ma'lum bo'ldi.

Alqissa, yana Ko'rqush aydi: «Har kimning ishimu uloq ovlamoq, madrasaga borib tuproq yalamoq? Ish bitkarmo-

qni mendin ko'rsunlar», deb Qubod shahristonig'a ravona bo'ldi. Boyo'g'li uyiga qo'noq bo'ldi. Ko'rqush Boyo'g'lini ko'rgan hamon tomog'idin bo'g'ub, «Ko'r tutganini qo'ymas», degandek, cho'qub aytdikim: «Ko'rushmasang otangni yiqit».

Boyo'g'li aydi: «Yiqilgan kurashga to'ymas», kuyov bo'lsang, qiz tayyor, eshitmoqqa quloq bor. So'ramoq sendin, eshitmoq mendin».

Ko'rqush aydi: «Sening qulog'ing mulla Siddiq kotibning qulog'idek so'z eshitmas».

Boyo'g'li aydi: «Sening ko'zing mulla Asqarning ko'zidek qarddon oshnasini tanimas, eshitmadingmukim: «Boshga tushganni ko'z ko'rar» va yana aytmishlarki: «Xayr ishiga jarchi bo'lsang, malul bo'lma». Ammo sening boshingg'a ish tushsa, tortarga ko'z yo'qidin malulsan».

Ko'rqush aydi: «Botin so'zi kerak. Senga harza uchun kelgan kishi emasman. Tilagan chordevoringdin to'rt yuzini kechg'il. Olti yuzig'a javob berurman.

Anda Boyo'g'li aydi: «Ming chordevor solaman, to'rt yuzini nimaga kechay?»

Ko'rqush ko'rdikim, Abdurahim sudxo'r baqqol mum-sikdek ko'b xasisdur, agar ming chordevordin bir chordevor kam bo'lsa, o'ttuz tishini sindirur. Aydikim: «Andog' bo'lsa, to'y lavozimotini tayyor qilg'il. Pashshadin anqog'acha barcha qushlarg'a kishi choptur, yig'ilsunlar! Alarning huzurida mahr solay».

Alqissa, Yapaloq sha'n va shavkat birla to'y olib keldi. Majmuyi tuyurlar jam bo'ldilar, misli anqo, humo, qarchig'ay, uqob, bahrin, lochin, italgu bir tarafg'a; oqqush, tug'doq, turna, g'oz, o'rdak, ko'gaqush, ang'it, surna, suqsur, churrak, korkirak, ko'rgut, laklak bir tarafg'a o'lturdilar. Bulardin kichik qushlar misli kaklik, bedana,

olato'g'anoq, qizilishton, zarg'aldoq, kabutar, musicha, qaldurg'och, sa'va Kulonkir sultong'a kuyov nukar bo'lub, bir tarafg'a o'lturdilar.

Alqissa, Ko'rqush kuyov jonibidin vakil bo'lub, ko'kqarg'a, olaqarg'a guvoh bo'lub, Kuykunak qiz jonibidin vakil bo'lub turdilar. Nikoh xutbasin hazor doston ravshan fasih til birla o'qimoq bo'ldi. Ko'rqush Kuykunakka qarab aydikim: «Qizingning mahrini bayon qil!»

Kuykunak aydi: «Avomunnos ichra mashhurdukim, «Katta kema qaydin yursa, kichik kema andin yurur». Sizlarga vozih va loyih erurkim, ammasining mahri ming chordevor erdi, muning ham mahri ming chordevor».

Anda Ko'rqush aydi: «Farg'ona mulkida chordevor noyob ekanin arz qilib o'tub erduk. Agar Movarounnahr tob'otidin xohlasang, har qancha chordevor desang beray, balki xisht devor solayin».

Kuykunak aydi: «Bu masaldin bexabar o'xsharsan: «Bo'ri bormog'ina quvonur, yemog'ina yo'q». Va yana aytmishlarki: «Taka bo'lsun, suti bo'lsun».

Ko'rqush: «Xo'b, ma'qul», – deb ovoq qo'yub aydi: «Ey hozir o'lanlar, anglag'uchi bo'linglar, men mahr solay: avval Urgut, Yangi Rabot, Eski Sabot, Pushog'ur, Shahriston, Saroy, Hilyon, Itorchi, Chun, Mang'it, Kenagas, Yangi Ariq, G'onchi, G'ozon, Darak, Xo'ja Tohir, Najidon, Qizili, Ko'rvat, Bekobod, Xayrobod, emdi Gunashbonu oyimning mahri bitdimu», – dedi.

Alqissa, Ko'rqushning mahr solishig'a va Kuykunak olishig'a bir necha qushlar hayron bulub, bir-birlariga aytushur erdikim: «Beli og'rimaganning non yeyishiga boq».

Kuykunak darhol turub aydikim: «Borakolloh, sizning juvonmardligingizga. Ma'rakda bizning so'zlagudek holimiz qolmadi. Mahr solishingizga hozir turgan tuyurlar insof va ofarin qildilar. Lekin Xayrobod bizga muvofiq tushmadi».

Ko'rqush aydi: «Sabab nedur?»

Kuykunak aydi: «Daryo yovuqdur. Zeroki, Boyo'g'li xalqi suvdin ihtiroz etarlar. Muning o'rnig'a Mug'ni soling».

Ko'rqush aydi: «Xo'b bo'lubdur. Shoshmang. «Mug'» atvor lug'ati bor¹. Lug'ati yuqorida mazkur bo'lg'on toshkentlik Muhammadxo'ja Hojidek yurish yo'lini yo'qotib, mumsiklar af'oli anga maqbul va marg'ub tushubdur, «Munglug'» bo'lishg'a oz qolibdur. Yana bir safarlik holi bor. Kech kuzgacha ani solib bermoqg'a men kafil», dedi.

Kuykunak hazordaston sari boqib ishorat qildikim: «Xutba boshlang... Hazordaston ta'viz va tasmiyadin so'ng... ushbu majmu' tuyurlarki, majlisda hozir tururlar, alarning guvohlig'i birla, ming chordevorni mazkur birla Gunashbonu oyimg'a xotib bo'lub va rog'ib bo'lub: «Qabul qildingizmu?» – dedi. Va yana to'rt amri shar'iy birla: biri bulkim, beijozati shar'i, cho'qub ketmagaysiz va yana xarob-obodning oq-qorasi ko'runganda ko'tarib ketmagaysiz va yana hol-ahvalidin bexabar bo'lub, och-yalang'och qilib, olti oy benafaqa tashlab ketmagaysiz va yana beva-jhi shar'iy urub badaniga oq va qora tushmasun, deb fotiha o'qub, jamoat tarqashtilar. Andin keyin Gunashbonu oyimni makiyon yangalari olib, Kulonkir sultong'a qo'shdilar. Kulonkir sulton Gunashbonu oyim ikkilari murodlariga yetdilar.

¹ «Mug'» qilig'ining lug'ati bor. «Mug'» mayfurushtur, o'tga cho'qinuvchi ma'nosida ishlatilgani uchun, uning fe'l-atvorini shu lug'at bilan belgilagan bo'lishlari mumkin.



AVAZ O'TAR



G'AZALLAR

TIL

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur.

G'ayri tilni sa'yqiling, bilgali yoshlar,
Kim ilm-u hunarlarbilanki, ondin ayondur.

Lozim siza har tilni biluv ona tilidek,
Bilmakka oni g'ayrat eting foida kondur.

Ilm-u fan uyig'a yuboringlar bolangizni,
Onda o'qug'onlar boriyaktoi zamondur.

Zor o'lmasunonlardog'itilbilmay Avazdek,
Tilbilmaganidan oni bag'r ito'la qondur.

XALQIM

Fidoiy xalqim o'lsun tanda jonim,
Bo'lib qurbon anga ruhi ravonim.

Gar o'lsam darbadar mazlumlar uchun,
Budur maqsudi qalbi notavonim.

Mani solsa fano yo'liga davron,
Yurur ustimdin avlodi zamonim.

Umidim: yashasin maktab bolasi,
Alar har biri bir she'ri jayonim.

Na yaxshi o‘ylakim, ma’qul-u manzur,
Avaz, xalqim uchun to‘kulsa qonim.

MILLAT

Topar erkan qachon, yo Rab, hayoti jovidon millat?
Topib ilm-u hunar birla maorifdan nishon millat?

Vatanparvar fidoyi firqalar to bo‘lmayin paydo,
Na mumkin topmog‘i o‘lgan tanig‘a toza jon millat?

Fido millat yo‘lig‘a mol-u jon etmak kerak, har kim —
Bo‘lay desa, agar avlodi mashhuri jahon millat.

Ochib har bir saridan maktabing unvonin aylab cho‘x,
Taraqqiy aylamasmi o‘qubon behad-u son millat?

Bu yanglig‘ olam ahlidin keyin qolmay yurish ayla,
Avaz bo‘lg‘ay uyonib komkor-u komron millat.

MAKTAB

Ochinglar, millati vayronni obod etgusi maktab,
O‘qusin yoshlarimiz, ko‘nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijtihod etsin,
Nedinkim, bizni g‘am qaydidin ozod etgusi maktab.

Ko‘ngullarning sururi, dog‘i ko‘zlar nuridir farzand,
Alarning umrini, albatta, obod etgusi maktab.

Ota birla onaga farz o‘qitmoq bizni majburiy —
Ki bizni yaxshiliq qilmoqqa mu’tod etgusi maktab.

Qayu millatga bizdek gar nasimi inqiroz etsa,
Anga, albatta, mustahkamlik ijod etgusi maktab.

Bu ne navmidlikdur?! Maktab ochsak, oqibat bizni,
Aro'si kom ila maqsudga domod etgusi maktab.

Avaz, himmatni qil oliy ocharg'a emdi maktabkim,
Baloi jahl-u nodonlikni barbod etgusi maktab.

EY KO'NGUL, ISHQ ICHRA KIRDING

Ey ko'ngul, ishq ichra kirding jon kerakmasmu sanga?
Kofiri chashmin ko'rub, imon kerakmasmu sanga?

Yor ruxsorig'a boqmassan magarkim, zohido,
Oftob ila mahi tobon kerakmasmu sanga?

G'ayri ko'yining tamannosi qilursan, ey rafiq,
Eyki ayg'il, jannati rizvon kerakmasmu sanga?

O'zga dilbar la'lini o'pmakni gar istar esang,
Degil, ey dil, ul labi xandon kerakmasmu sanga?

Ey ko'z, etgung orzu g'ayri sumanbar orazin,
Emdi ul oraz mahi raxshon kerakmasmu sanga?

Soqiyo, man xastag'a may bermayin dog' aylading,
Yoki miskini hazin mehmon kerakmasmu sanga?

Ey Avaz, nazm aylading asru sharaf afshon suxan,
Yodgori daftari devon kerakmasmu sanga?

KO'NGLUM AGAR

Ko'nglum agar g'ayri sori mayl-u taqozo aylasa,
Kuysun g'am o'tig'a, o'zin g'ayrig'a shaydo aylasa.

Lol o'lsun-o'q nutqim agar ikki jahon ichra o'zin,
Ey sho'x, sandin o'zganing vasfida go'yo aylasa.

G'ayri parivash sorig'a rag'bat qilib, ey mahliqo,
Ko'z xira bo'lsun gar yuzing ko'rmay tabarro aylasa.

Bir umr ko'nglimo'rtanib, armonda bo'lsun, ey pari,
Moyil bo'lib kavnayn aro g'ayrig'a parvo aylasa.

Benur o'lub chiqsun ko'zum hijroning ichra, ey go'zal,
Gar o'zga bir oromijon husnin tamosho aylasa.

Kom-u murodin topmasun ikki jahonda har kishi,
Gar g'ayrining ishq'i bila o'zini rasvo aylasa.

Topg'ay edim hazz-u farah behad-u son, man sorig'a —
Ul dilbari barno, Avaz, bir noma insho aylasa.

AYLASA

Joning'a o't tushsun, agar g'ayrig'a parvo aylasa,
Ko'z dog'i chiqsun o'zganing husnin tamosho aylasa.

Ofatni pomoli bo'lub qolsun boshim hajring aro,
Ey dilrabo, tarki g'ami oshubu savdo aylasa.

Dilkim, hamisha hajr aro oshufta bo'lsun, ey pari,
Gar o'zga bir mahvash sori maylu taqozo aylasa.

Ko'nglumga ta'sir etmagay, ahbob xayli, zarraye,
G'ayri paripaykar agar ming ishva barpo aylasa.

Ushshoq xayli borho bo'lsun garonjonu hazin,
Gar o'zni onlar o'zganing ishqida shaydo aylasa.

Ul sho'xvash mahliqo, topg'oy, dedim, umri abad,
Shirin tilini so'rdurub bir bo'sa ato aylasa.

Mahzun Avazkim bordurur ul mohni ishqig'a asir,
Tong yo'qki, ul doim o'zin xalq ichra rasvo aylasa.

BO'LMA, EY KIMSA

Bo'lma, ey kimsa, hamisha bu sifat mag'ruri ganj,
Kim, ne yonglig' ayladi Qorunni kofar zo'ri ganj?!

Qalbi vayronalarni ganji jud ila obod qil,
Lutfi haqdin istasang bo'lg'oy sango ma'muri ganj.

Istagil darvishlardin fayzi ma'ni istasang,
Kim xarobi ko'hnalarda bo'lg'usi mahsuri ganj.

Hirs ila ganj asramoq qilma havas af'i sifat,
Zahr etib komingni, jismingni qilur ranjuri ganj.

Ey, hush ul odamki, bordur jud-u ehson qilg'uchi,
Desa bo'lg'usi oni dorayn aro masruri ganj.

Har kishini qismati bo'lsa qanoat maxzani,
Vah, ne yanglig' bo'lg'usi olam aro manzuri ganj.

Ey Avaz, jami zar etmakdin hazar qil, tonglakim —
To sarosar bo'lmasun go'ringda mor-u mo'ri ganj.

EY DO‘STLAR

Ey do‘stlar, dahr ahlig‘a hamroh-u hamdam bo‘lmangiz,
Hamroh-u hamdam demayin, bal oshno ham bo‘lmangiz.

Hoshoki, dono ersangiz onlarg‘a topib ixtilot,
Bir kun parishon o‘lg‘osiz, masrur-u xurram bo‘lmangiz.

Ahli jahonkim bordurur mehr-u muhabbatdin yiroq,
Onlar firebin yeb yana rasvoi olam bo‘lmangiz.

Mehr-u vafu aylab hamul nooshnolar xaylig‘a,
Chekmak hamisha qismati olom ilag‘am bo‘lmangiz.

Yakdillik aylab bu sifat xayli bani odam bila,
Bori baliyatni chekib ham qomati xam bo‘lmangiz.

O‘zni jahonning dilbar-u dildorig‘a aylab asir,
Ham rohati kam bo‘lmangiz, ham chashmi
purnam bo‘lmangiz.

Tokim, Avaz, asroringiz g‘ayrig‘a ifsho bo‘lmasun,
Kelsa qo‘lingizdin birov rozig‘a mahram bo‘lmangiz.

HUSN ICHRA UL NIGOR

Husn ichra ul nigor parilar yagonasi,
Man ishq-i ichra bo‘lmisham olam fasonasi.

Baytulhazanda bu mani mahzun-u xastani,
Ko‘z yoshi birla dard-u g‘am — ob-u donasi.

Man ne sifat ma‘lul base oshufta bo‘lmayin,
Bo‘lmish gireh-gireh oni zulfini shonasi.

Topgum nechuk murod bila vasl bazmini,
Nav'i tog'aful ersa go'zallar bahonasi.

Fikr aylasam haqiqat aro, ey rafiqlar,
Murg'i dilimni asru buyuk oshyonasi.

To tushgali ul oyni, man zor, ko'yiga,
Har soridin boshing'a kelur toziyonasi.

Garchi, Avaz, raqib elin obod kulbasi,
Bo'lmish xarob ishq elini lek xonasi.

JAHONNING YO'Q VAFOSI

Birodarlar, jahonning yo'q vafosi,
Vafosi demayin, balkim baqosi.

Yeturmas hech kima bu charx rohat,
Fuzun har dam bo'lub zulm-u jafosi.

Bo'lur kim kelsa bu yolg'onchi ichra,
G'amu dard-u baloning oshnosi.

Chiqar ko'k sori ofat kasratidin,
Xaloyiqning fig'on ila navosi.

Duo aylangki, shoyad aylagay rahm,
Bu holig'a yer-u ko'kning xudosi.

Har odam bo'lsa oshiq ojiz aylar,
Raqib ahlini ta'n ila izosi.

Avaz, ul oyg'a yetmay o'lg'adurman,
Yo'q ermish ishq dardining davosi.

BO'LUBDUR

Dil ishqinga mubtalo bo'lubdur,
Ham rasmi vafo ongo bo'lubdur,
Oini jafo sango bo'lubdur,
Ko'zing ne balo qaro bo'lubdur,
Kim jong'a qaro balo bo'lubdur.

Kelsa qilay ul sanam liqodin,
Ko'nglin uzub ahli bevafo din,
Ishqi aro zor-u mubtalodin,
Begona bo'lubdur oshnodin,
Begonag'a oshno bo'lubdur.

Bo'lsa, ne tong, ahli dahr qurbon,
Kim lab ango misli g'uncha xandon,
Oraz dog'i hamchu mohi tobon,
Ishq ichra oning fidosi yuz jon,
Har jonki ongo fido bo'lubdur.

Hijron aro cheksa ko'b jafoni,
Demayki jafo, tuman baloni,
Fosh aylabon oyni vafoni,
Baqo topar ulki bo'ldi foni,
Rahravga fano baqo bo'lubdur.

Dildo'z base rivoyati ishq,
Jonso'z, Avaz, hikoyati ishq,
Bu nav' durur nihoyati ishq,
To tuzdi Navoiy oyati ishq,
Ishq ahli ango navo bo'lubdur.

Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildur,
 Gumonsiz jumlai maqsud birla komi hosildur.
 Aning sha'nida go'yo oyati tasdiq nozildur,
 Ramuzi ishqkim rohi haqiqat sori shomildur,
 Ki ulvi manzilatlar zumrai ushshoqa doxildur,
 Bihamdillah, bu sirdin bulxavaslar xayli g'ofildur,
 Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
 Sadoqat fayzini bilgan kishi donovu oqildur.

Ko'rub ag'yoridin ta'nu izo, ey oshiqi sodiq,
 Jafoyi yorg'a borsan rizo, ey oshiqi sodiq,
 Yo'lida aylabon joning fido, ey oshiqi sodiq,
 Qilib yoring'a mehr ila vafo, ey oshiqi sodiq,
 Agarchi san chekarsan ming jafu, ey oshiqi sodiq,
 Valekin olami tahqiq aro, ey oshiqi sodiq,
 Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
 Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.

Binoyi obro'sig'a dog'i me'mor sidq o'lmish,
 Davomat hofizi nomus birla or sidq o'lmish,
 Bori ozodalarg'a borho atvor sidq o'lmish,
 Hama fe'l ichra nodir, ey naku kirdor, sidq o'lmish,
 Bo'lur nokom ul bebokkim inkori sidq o'lmish,
 Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
 Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.

Erur bir fe'lkim tasdiq, ani intiboh etgil,
 Ani bilmakni jahdin doimo beishtiboh etgil,
 Baloyi nogahondur kizbkim andin panoh etgil,
 O'lar holatda ham deb rost so'z holing taboh etgil,
 Demasmankim debon yolg'onni nomingni siyoh et-
 gil,
 Najote har balodin istasang sidqing guvoh etgil,
 Murod shohidining vaslig'a sidq ahli vosildur,
 Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.
 Qilib nafsingni sarkash ersa rom ohista-ohista,

Musodiq rasmicha ko‘rguz qiyom ohista-ohista,
Haqiqat rohida aylab xirom ohista-ohista.
Muroding manzilida qil maqom ohista-ohista.
Topib koming bo‘lursan shodkom ohista-ohista,
Avaz, tuz emdikim sidqi nizom ohista-ohista,
Murod shohidining vaslig‘a sidq ahli vosildur,
Sadoqat fayzini bilgan kishi donov-u oqildur.





ABAY



N A S I H A T L A R

BIRINCHI SO‘Z¹

Yoshim shu yerga yetguncha yaxshi yashadimmi, yomon yashadimmi, har qalay yashab keldim, umrimning ko‘pi ketib, ozi qoldi, boshimdan ne-ne savdolar kechmadi: ol-ishdim, yulishdim, aytishdim, tortishdim – xullas, boshga tushganini tortib keldim. Mana endi yoshim qaytib, qaridim, horidim, hamma qilib yurgan ishlarimda ma’no yo‘qligini, hammasi shunchaki bir gap ekanligini ko‘rdim, bildim. Xo‘sh, endi qolgan umrimni qanday qilib o‘tkazsam ekan? Mana shunisiga o‘zim ham hayronman.

El-u yurtga rahbarlik qilsammikin? Yo‘q, el men ko‘rsatgan yo‘ldan yurmaydi. Agar, boshimga tashvish sotib olaman, degan kishi, yoki hali peshonasi devorga borib tegmagan, belida quvvati, ko‘kragida g‘ayrati bor yoshlar rahbar bo‘laman demasa, bizning elga rahbarlik qilishdan xudoning o‘zi saqlasin! Mol boqsammikin? Yo‘q, boqolmayman! Kerak bo‘lsa bola-chaqa o‘zi boqib olar. Qarigan chog‘imda o‘g‘rilar, muttahaamlar uchun mol boqib, ko‘pi ketib, ozi qolgan umrimni xor qilish niyatim yo‘q! Yo ilm-fan bilan shug‘ullansammikin? Yo‘q, unday desam bu elda ilmning qadriga yetadigan, uni tushunadigan odam yo‘q. Bilganingni kimga o‘rgatasan? Bilmaganingni kimdan so‘raysan? Kimsasiz cho‘li biyobonda oldiga matosini yoyib, qo‘liga gazini ushlab o‘tirgan kishidan nima foyda? Yoningda hasratlashib ko‘ngil yozadigan kishi bo‘lmagach, ilm-u fan kishini tez qaratadigan bir tashvish ekan, xolos.

So‘filik qilib, din yo‘liga tushsammikin? Yo‘q, bu ham bo‘lmaydi! Chunki unday qilish uchun ham tinchlik kerak.

¹Nasihatlar ba‘zi o‘rinlarda qisqartirilib tarjima qilindi.

Na ko'nglingda, na hayotingda osoyishtalik bo'lmagandan keyin, bunday elda, bunday joyda so'filikka balo bormi?

Yoki bola-chaqalarimning tarbiyasiga kirishsammikin? Yo'q, bu ham to'g'ri kelmaydi. Jon deb tarbiya qilardimu, lekin qanday qilib tarbiya qilishni ham bilmayman-da, axir. Xo'sh, tarbiyalaganda kim bo'lsin deb tarbiyalayman? Qaysi elga qo'shayin, qaysi tomonga yo'llayin? Bordi-yu tarbiya qilganimda ham bola bechoralar o'z ilmining samarasini tinchlik bilan ko'ra oladimi? Ko'ra olsa, qayerda, qanday qilib? Bunga hatto o'zimning ham aqlim yetmaydi-yu, ularni nima qil deb, qayerga bor deb ilm o'rgataman! Buni ham ermak qila olmadim.

Oxiri shunday qarorga keldim: xayolimga kelgan narsalarni oq qog'ozga yozaverayin, oq qog'oz bilan qora siyohni ermak qilayin. Kimda-kim bundan o'ziga kerakli so'z topsa – yozib olsin, yo o'qisin, keragi yo'q desa – o'z so'zim o'zimmiki dedim-da, nihoyat, yozishga o'tirdim. Endi bundan buyon shundan boshqa ishim yo'q.

IKKINCHI SO'Z

Men bolalik chog'larimda bizning qozoqlar sarni¹ ko'rsa: «Onangni emgur, chulduragan tojik» deb; no'g'oyini ko'rsa, uni ham: «Tuyadan qo'rqqan no'g'ay, otga minsa charchab, yayov yursa dam oladi» deb masxara qilishardi. Ruslarni ko'rganda esa: «O'yiga kelganini qiladigan o'ris... Nima desang shunga inonadi...» deb ularning ustidan ham kulishardi.

Shunda men xudoga ming marta shukurki, bizdan boshqa xalqlarning hammasi yomon xalq bo'lar ekan, dunyoda eng yaxshi xalq bizlar o'zimiz ekanmiz, deb o'ylab, haligi aytilgan so'zlardan juda zavq qilib kular edim.

Endi bundoq o'ylab qaragam, sartlar ekmagan ekin, ular olmagan hosil, savdogarlari bormagan yer – xullasi ularning

¹ O'zbek demoqchi.

qo‘lidan kelmagan ish yo‘q ekan. Ular o‘zlari bilan o‘zlari ovora bo‘lib, shahar xalqlari bir-biri bilan yovlashmaydi – ahil yashashadi. O‘rislarni hisobga olmaganda, ular qozoqlarning o‘ligiga kafan, tirigiga ust-bosh yetkazib berishadi. Qozoqlarning o‘z bolasiga ishonmagan mollarni kira qilib, tashib berayotgan ham shu sartlar. O‘rislar istilo qilib olgandan keyin ham, sartlar ularning ilm-u urfonlarini bizlardan ko‘ra avval o‘rganib olishdi. Katta-katta boylar ham, mullalar ham shularda; hushyorlik, ustalik, tejog‘lilik, epchillik, uddaburonlik ham shularda, sipolik, odoblilik ham shularda.

No‘g‘oylarga qarasang – ular askarlikka ham, ochlikka ham, kambag‘alchilikka ham, o‘limga ham chidaydi. Mullalarini izzat-ikrom qilib, madrasalar qurishga, dinni qattiq tutishga ham qodir. Mehnat qilib mol topish yo‘llarini ham bilishadi, saltanat, hashamat ham shularda. Bizning odamlarimiz o‘zlarining baloyi nafslari uchun no‘g‘oylar eshigida biri chorakor, biri qo‘shchi bo‘lib yollanib ishlashadi. Bizning eng boy deganlarimizni ham ular: «Sening naqshi oyog‘ing bilan pichirating‘a qo‘yg‘onidan tugil, chiq iflos, sassi qozoq» deb uylaridan haydab chiqarishadi.

Xo‘sh, bularning bari nimalikdan? Bularning bari shundanki, ular bir-birlarini quvdi-quvdi qilmay, tinch-totuv yashab, mehnat qilib, hunar o‘rganib, mol-dunyo orttirib, boyib borayotganliklaridandir.

O‘rislar haqida-ku, og‘iz ochmasak ham bo‘ladi. Bizlar uning quli ham, cho‘risi, qaroli ham emasmiz.

Bas, shunday ekan, xo‘ boyagi maqtanganlarimiz, zavq qilib kulganlarimiz, mazax qilib aytgan so‘zlarimiz qayoqqa ketdi?

UCHINCHI SO‘Z

Qozoqlarning bir-biriga dushman bo‘lishining, birining tilagini ikkinchisi tilamasligining, rost so‘zi kam, mansabparast, yalqov bo‘lishliklarining sababi nimada? Bunga

dunyoda o'tgan barcha donishmandlar shunday javob qiladi: har qanday yalqov kishi – qo'rqqoq va g'ayratsiz bo'ladi; har qanday g'ayratsiz, qo'rqqoq kishi – maqtanchoq bo'ladi; har qanday maqtanchoq, qo'rqqoq kishi – aqlsiz, nodon bo'ladi; har qanday aqlsiz, nodon kishi – orsiz bo'ladi; har qanday orsiz kishi – yalqov, kishi oldida tilamchi, ochko'z, suq bo'ladi; bunday hunarsiz kishilar hech qachon birovga do'st bo'lmaydi.

Bu fazilatlarining hammasi to'rt oyoqli molni ko'paytirishdan boshqa narsa xayoliga kelmaydigan kishilardan chiqadi. Agar inson ekin-tikin, ilm-hunar, savdo ishlari bilan shug'ullansa, bunday yomon fazilatlar unga dorimagan bo'lur edi. Mol-dunyoning ketiga tushgan har qanday odam, molim ko'p bo'lsa, o'zirniki ham, bolalarirniki ham oshib-toshib yotsa, deb o'ylaydi. Bordi-yu moli ko'paysa, unga qarol yollab, o'zlari go'shtga to'yib, qimizga qonib, uchqur bedovni qoziqqa bog'lab qo'yib, jononlar bilan aysh-ishrat qilishni o'ylaydi... Agarda qishlovi torlik qilsa – ariza bitib, tanish-bilish qilib, boyligi orqasidan birovlarining qishlovini sotib olsa, bir iloj qilib eplab olsa, tortib olsa... Qishlovidan ayrilgan odam esa, birovning eshigiga borib yollansa, yoki omadikelmagani uchun eldan bosh olib ko'chib ketsa – mana, qozoqlarning o'ylagan fikr-u zikri shunday.

Shunday fikrdagi odamlar bir-biri bilan do'st bo'lish to'g'risida o'ylaydimi hech? Qashshoq qancha ko'p bo'lsa, mehnat haqisi shuncha kam bo'ladi, moldan ayrilganlar qancha ko'paysa, qishlovlar shuncha ko'p bo'lib qoladi, deb men uni, u bo'lsa meni, kafangado bo'lsa ekan, deb bir-birimizga ich-ichimizdan dushmanlik qilamiz. Sal o'tmay, bu dushmanligimiz ichimizdan sirtimizga chiqadi: oshkor yovlashamiz, dovlashamiz, taraf-taraf bo'lib urish, janjal chiqaramiz. Mana shunday olishuvlarda obro'yim baland, qo'lim uzun bo'lsin, deb mansab, bo'lislik, biylik talashamiz.

Shundan keyin bironta odam bolasi bundayroq, chek-karoq joyga chiqib, mehnat qilib mol topayin demaydi, ekin-tikin, savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanmaydi. Shunday qilib, ular taraf-taraf bo'lib yurganlarning bugun bittasiga, erta ikkinchisiga galma-galdan o'zlarini o'zlari sotib yurishadi. O'g'rilarga tiyim yo'q. Agar el tinch bo'lsa, o'g'rilarni ham tiyib qo'yadigan odam chiqardi. El-u yurt ikki taraf bo'lganidan keyin, ularga kim: «Men sening tarafingni olaman!» deb ont ichib va'da bersa, bular ham shu tomonga suyanib, o'g'irlik ishlarini burungisidan ham bir necha hissa oshirib davom ettirishadi.

Ba'zilar eldagi eng yaxshi odamlar ustidan: «Zo'rlik qildi, moli-jonimizni taladi» deb tuhmat qilib, soxta hujjatlar yig'ib, arizalar yog'dirisha boshlaydi. Nihoyat, jinoiy ish qo'zg'aladi. Bechoralarni tergovga chaqirisha boshlaydi. Bu yaxshi odamlarning nomzodlari saylovdan o'tib ketmasligi va haligi yolg'on-yashiq uydirmalar asosli bo'lishi uchun, bunday paytlarda ko'rmaganni ko'rdim deydigan guvohlar oldindan tayyorlanib qo'yilgan bo'ladi. Agar ayblangan odam o'z boshini qutqarmoqchi bo'lib, yomonlarga yalinib-yolvoradigan bo'lsa – odamgarchiligi yo'qoladi; agar bordi-yu yalinmasa u holda sudlangan odam hisoblanib, hech qanday xizmatga olinmay, butun umri xavf-xatarda o'tadi. Xo'sh, endi, bo'lis bo'lib saylanganlaridan keyin esa, o'zi shu mansabga shumlik, harom niyat bilan erishgani uchun, to'g'ri niyatli kishilarning tarafini oladi deysizmi? Yo'q, albatta o'zi kabi shum, harom niyatli kishilarni qadrlaydi. Chunki, do'st bo'lsa bunday kishilar-ning foydasi tegadi, qasd qilsa qo'lidan zararli ishlar ham keladi, deb o'ylaydi.

Shukunlarda qozoqlar o'rtasida: «Ishi bilan emas, kishisi bilan ulug'» degan maqol paydo bo'ldi. Buning ma'nosi shuki: qilgan ishing emas, suyangan kishing tuzuk bo'lsa – murod-

maqsadingga yetasan, demakdir. Odatda, bo'lis uch yilda bir marta saylanadi. Saylangan odamning birinchi yili – odamlarning: «Seni o'zimiz saylamaganmidik?» – degan ta'na-tazyiqlari bilan o'tadi. Ikkinchi yili – o'rniga saylanadigan nomzod bilan olishuv boshlanadi. Uchinchi yili esa – saylovlar yaqinlashib qolgach, qayta saylanishning iloji bo'lmasmikin, degan tashvish bilan o'tadi. Xo'sh, endi nimasi qoldi? Qozoqlarning yildan-yilga mana shunday buzuvchilikka berilib, ahvoli og'irlashib borayotganini ko'rib, men o'zimcha shunday qarorga keldim:

Xalqning bo'lislikka saylaydigan odami eng kamida falon darajada o'rischa ilmi bor odam bo'lsin. Bordi-yu bunday kishilar oralarida yo'q bo'lsa, yoki bor bo'lsa ham saylanmasa, u holda bo'lis yo uyezd boshlig'i, yo esa harbiy gubernator tomonidan tayinlanadigan bo'lsa – chamasi xalq uchun mana shunisi foydaliroq bo'larmidi deymanda? Buning sababi, birinchidan, bu mansabparast qozoq yoshlarining ilm-u urfon o'rganishi uchun ham foydaliroq bo'lardi, ikkinchidan esa, tayinlangan bo'lislar xalqqa emas, ulug'larga tobe bo'lgan bo'lur edi.

Shunday qilinsa, uning tergovlari, so'roqlari hisobga olinmaganda, yolg'ondakam ariza beruvchilar ozayibgina qolmay, balki yo'qolar ham edi. Yana har bir bo'lisda starshinalar, biylar saylanishi – xalq uchun turgan-bitgani zarar ekanini tajribada ko'rib-bilib turibmiz. Bundan tashqari, umuman bu «biylik» qilish degan gap bizning qozoqlar orasida saylangan har bir kishining qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun biy bo'lib saylanadigan kishilar qadimgi «Qosimxonning siyqa siyosati»ni, «Esimxonning eski yo'li»ni va «Tavkaxonning Kultepa boshidagi kengashlarida ta'sis etilgan «Yetti qonuni»ni bilmoq kerak. Bilish bilan birga, u qonunlarning qaysi biri zamonlar taqozosi bilan eskirib qolganligi va qaysi birini hozirgi zamon nuqtayi nazari bilan o'zgartirish

imkin ekanligini bildiradigan – shunga fahmi-farosati yetadigan kishilar bo‘lishi kerak. Ammo, bunday kishilar hozircha bizda yo‘q.

Qadimda qozoqlar hayotini yaxshi bilgan odamlar: «Xon ko‘p bo‘lsa, yov ko‘p bo‘ladi, biy ko‘p bo‘lsa, dov ko‘p bo‘ladi» degan ekan. Buning ma‘nosi shundayki: agar biylar toq bo‘lmay juft bo‘lsa, bir-biri bilan dovlashib umri o‘tadi, demakdir. Bunday biylarni ko‘paytirguncha, undan ko‘ra har bir bo‘lisdan faqat uchtdan biy saylangani ma‘qul. Bular albatta qo‘lidan ish keladigan ilmi kishilardan bo‘lishlari kerak. Bundan tashqari, ularni «muncha yilgacha» deb saylamasdan, mudom saylashlari, biylikdan tushgudek bo‘lsa ham – yomonligi elga oshkora bo‘lgandan keyingina tushadigan, bo‘lmasa biy bo‘lib ishlayveradigan qilib saylashlari kerak... Nihoyat, dovlashuvchi shaxslar bu biylardan ikkitasini tanlab olib, uchinchisini xolis qilib saylashsa, agar bunga ham ko‘nmasa, boyagi uch biydan bittasini tanlab, yoki chek tashlash yo‘li bilan saylab olib, arz-dodlarini shunga aytsa – ehtimol, janjalli ishlar oson bitgan bo‘lur edi.

TO‘RTINCHI SO‘Z

Har bir farosatli odam kulgi degan narsaning mastlik ekanini, har qanday mast kishi g‘ofil bo‘lishini va bosh og‘riq gaplarni ko‘p gapirishini yaxshi biladi. Zotan, bunday bekordan-bekorga kulaveradigan kishining yo aqli joyida bo‘lmaydi, yo esa kulaman deb ishidan, ro‘zg‘oridan, nomusidan ayrilganini o‘zi ham bilmay qoladi. Bunday kishilar bu dunyoda ham, u dunyoda ham azob chekishi bor.

Qayg‘u-hasrat nimaligini biladigan, fikr qila oladigan kishi bu dunyoda ham, u dunyoda ham ortiq qiynalmaydi – ishi pishiq bo‘ladi. Odatda, pishiqlikning tagi mo‘lchilik

bo'ladi. Xo'sh, endi, agar shunday bo'lsa, biz doimo qayg'u-hasratga yor bo'lib yura olamizmi? Doimo qayg'u-hasratga yor bo'lib yurishga jonimiz to'zim bera olarmi ekan? Yoki, deylik, doimo kulmay yura olamizmi? Shunday doimo kulmay yurishga chiday olarmi ekan inson? Yo'q! Men, doimo, qayg'u-hasrat bilan yurish kerak, demayman. Ammo hech qayg'u-hasrat chekmaslik ham mumkin emas. Demak, ko'proq ana shu qayg'u-hasratdan qutulish uchun harakat qilish kerak. Qilganda ham – bilib qilish kerak. Chunki har qanday o'rinli harakat qayg'u-hasratni kamaytiradi. Shunday qilib, qayg'uni o'rinsiz kulgi bilan emas, o'rinli harakat bilan kamaytirish zarur!

Qayg'u-hasrat uyiga kirib qolib, undan chiqolmay qolishning o'zi ham bir halokatdir. Sen birovning yomon qiligidan kulsang – rohatlanib kulma, achinib, izza bo'lib kul. Zotan, achinib, izza bo'lib kulishning o'zi – qayg'u-hasratdir. Demak, bunday o'rinda o'zing ham doimo kulavermaysan, albatta. Bordi-yu, yaxshi odamning yaxshi qiligidan kulsang, uning shu yaxshi qiliqni yaxshilikdangina topganini o'zingga ibrat qilib kul. Yaxshi-yomonni ko'rib ibrat olmoq – hayotda seni yo'ldan ozishdan ehtiyot qiladi. Men hamma kulgilar to'g'risida gapirib o'tirmayman. Ammo shu kulgilarning ichida bir kulgi borki, bundan Xudoning o'zi asrasin! Bu kulgi Xudoning o'zi yaratgan joydan – yurakdan chiqmay, balki aksincha, mutlaqo soxta bo'lib, xo'jako'rsingagina kulinadi.

Har qanday odam bolasi tug'ilishda yig'lab tug'iladi-yu, keyin o'layotganda norozi bo'lib o'ladi. Shu ikki o'rtada dunyoning u-bu rohatlarini totib ko'rolmay, birining ketiga biri tushib, bir-biriga maqtanib, ne-ne esiz umrini qayoqdagi bo'lmag'ur ishlarga sarf qilib, ma'nosiz o'tkazadi-da, o'lim oldida ado bo'lgan oltin umrining hatto bir kunini ham butun bisotini, mol-dunyosini sotib qaytarib olishning ilojini topa olmay qoladi.

Quvlik va shumlik bilan kun ko‘rish, ko‘z suzib, tilamchilik qilish – bu bir hunarsiz itning ishidir. Sen agar odam bo‘lishni istasang – avvalo o‘z g‘ayratingga tayanib mehnat qil, mehnat qilsang qora yer ham sendan o‘z noz-ne‘matini ayamaydi va sen hech qachon xor-zor bo‘lmaysan.

BESHINCHI SO‘Z

Ba‘zan ichingdagi qayg‘u-hasrat o‘zingga ham bo‘y bermay, tashqariga otilib chiqadi: badan-badaningni jimirlatib, bo‘g‘in-bo‘g‘inlaringni bo‘shashtirib, yo ko‘zingdan yosh bo‘lib, yo esa tilingdan so‘z bo‘lib oqadi. Men qozoqlarning bir necha martalab: «E, Xudoyo, hargiz yosh boladay beg‘am qilgaysan!» deb tilak tilaganlarini o‘z qulog‘im bilan eshitganman. Bunday deyishlarining sababi: go‘yo ular o‘zlarini yosh bolalardan aqlliroq hisoblab, g‘amgin ko‘ringisi keladi. Xo‘sh, ularning g‘amlari nimadan iborat? Buni ularning maqollaridan ham bilib olsa bo‘ladi: «Yarim kunlik umring qolsa ham, bir kunlik mol yig‘», «O‘zingda yo‘q bo‘lsa, otang ham dushman», «Mol – odamning jigari», «Moli ko‘pning – yuzi yorug‘, moli yo‘qning – yuzi choriq», «Yer ozig‘i bilan bo‘ri ozig‘i yo‘lida», «Erning moli elda, xohlaganda qo‘lda», «Yegan og‘iz uyalar», «Olag‘on qo‘lim berag‘on», «Mol topgan erning yozig‘i yo‘q», «Boydan umidsiz – Xudodan umidsiz», «Qorning ochsa, qora uyingga chop», «Sayri yo‘q ko‘ldan bez, xayri yo‘q eldan bez» degan kabi maqollari juda ko‘p.

Xo‘sh, bu maqollardan qanday ma‘no chiqadi? Bundan ma‘lum bo‘ldiki, qozoqlar tinchlik uchun, ilm-fan uchun, adolat uchun g‘am yemas ekan, balki aksincha, mol-dunyo uchun g‘am chekar ekan; qanday qilib mol topishning yo‘lini bilmas ekan; bilganlari ham mollilarning molini al-dab yoki avrab olish, bordi-yu unga

ham ko'nmasa, yovlashib olishdan iborat ekan. Agar moli bo'lsa, otasi bilan ham dovlashishdan uyalishmas ekan. Ishqilib o'g'irlik, shumlik, tilanchilik, qo'ying-chi, shunga o'xshash yaramas fazilatlar bilan mol topsa – buni aybga sanamasligimiz kerak ekan.

Bularning yosh boladan qayeri ortiq? Lekin qizig'i shundaki, yosh bola lang'illab turgan o'choqdan qo'rqadi, ammo mana bular esa do'zaxdan ham qo'rqmas ekan; agar yosh bola uyalsa – qizarib yerga qaraydi, ammo bular esa bez bo'lib turaverar ekan. Shumi ularning yosh boladan ortiqligi? Qo'limizdagi bor molimizni ulashib bermasak, biz ham o'shalardek bo'lmasak, yuz o'girishar ekan, shumi bizga kerak el-u yurt?

OLTINCHI SO'Z

Qozoqlarda: «Hunarning boshi birlikda, rizqning boshi tiriklikda» degan maqol bor. Ammo ular: bunday birlik qanday elda qanday qilsa bo'ladi – buni bilishmaydi. Ular: ot o'rtada, osh o'rtada, kiyim o'rtada, boylik o'rtada bo'lsa ekan, deb o'ylashadi. Unday bo'lsa – boylikdan nima foyda-yu, kambag'allikdan nima ziyon? Unday bo'lsa – oshna-og'ayning yo'qolmay turib, mol topishning nima keragi bor? Shumi birlik? Yo'q! Birlik – qo'rangdagi molda emas, tushunchangda bo'lishi kerak. Mol bersang otasi boshqa, onasi boshqa, dini boshqa, tirikchiligi boshqalar ham sen bilan tinch-totuv bo'laveradi. Agar birlik mana shunday hisob bilan o'lchansa, ya'ni molga sotib olinsa, bu birlik – birlik emas, ablahlikdir! Do'st bo'laman degan kishi ber demasdan do'st bo'lsa, tinch-totuv yashasa, tuz-nasibasini Xudodan tilasa yaxshi bo'ladi. Aks holda, rizqini Xudodan so'ramaydi, mehnat qilmaydi va bir-biriga choh qaziydi, bir-birini aldashning payida bo'ladi. Xo'sh, shu ham birlik bo'ladimi endi?

«Rizq – tiriklikda» deyishadi. Bu nima degani? Demak, tanangda joning bo‘lsa – tiriklik shumi? Yo‘q. Bunaqa tiriklik itda ham bor. Tiriklikni shunday deb tushunib, shu tushuncha bilan yashagan odam o‘limni yot ko‘rib, oxiratga dushman bo‘ladi. O‘z joninigina himoya qilib, yov kelsa qochib, qo‘rqoq atalib, mehnat qilishdan bosh tortib, erinchoqlik qilib, maxsimcha bo‘lib yurish – bu ham yuqorida aytilgan rizqqa nisbatan nonko‘rlik qilishdir. Tiriklikni bunday tushunish yaramaydi; o‘zing tirik bo‘lganing bilan ko‘ngling, qalbing o‘lik bo‘lsa, bu tiriklik – tiriklik emas, albatta; o‘zing tirik bo‘lsang-u, qalbing o‘lik bo‘lsa – aql topsang mol topmaysan, mol topsang aql topmaysan. Halol mehnating bilan erinchoqlik qilmay mol topish uchun g‘ayrat qilolmaysan.

Ish vaqtida ayyor, osh vaqtida tayyor bo‘lib, siring yaltirab, iching qaltirab yurib, tirikman degandan ko‘ra – bundan Xudo yuborgan halol o‘lim ming marta afzal.

YETTINCHI SO‘Z

Bola onadan tug‘ilganda ikki turli odat bilan tug‘iladi. Biri: yesam, ichsam, uxlasam demoqlikdir, albatta; shuningdek, bular tanning sihat-salomatligi uchun zarur hamdir; bular bo‘lmasa – tanda jon ham bo‘lmaydi, o‘smaydi ham, quvvatga ham kirmaydi. Ikkinchisi: ko‘rsam, bilsam demoqlikdir. Bola yoshligida nimani ko‘rsa o‘shanga talpinadi, yalt-yult etib qaraydi, ko‘rgan narsasini qo‘li bilan ushlab, yuz-ko‘ziga yaqin olib borib suykagisi, og‘ziga solib tishlagisi keladi. Karnay-surnay ovozi eshitsa – yon-atrofga alanglab qaraydigan bo‘ladi. Sal kattaroq bo‘lganidan keyin esa, it hursa ham, mol ma’rasa ham, birov kelsa ham, yig‘lasa ham o‘rnidan tura yugurib chiqib qaraydigan va: «U nima?», «Bu nima?», «U nega unday qiladi?», «Bu nega bunday qildi?» deb ko‘zi ko‘rgan,

qulog‘i eshitgan narsalarni so‘raydigan bo‘ladi – hech tinch turmaydi. Bularning hammasi – ko‘rsam ekan, bilsam ekan, o‘rgansam ekan, degan tabiiy qiziqish alomatidir, albatta.

Dunyodagi barcha mavjud hodisalarning sirini hech bo‘lmasa yuzakiroq bo‘lsa ham bilmaslik – bu odamgarchilikdan emas. Shuni ham bilmagandan keyin, bu odam – odam emas, balki hayvondan hech farqi yo‘qdir...

Biz hali ana shu kuchimiz, quvvatimiz, aqlimiz yetmagan bola kezimizdagi har narsani: «Bu nima?», «U nima» deb so‘rashimiz va hatto shu tufayli ovqat yeyishni ham esimizdan chiqarib yuboradigan paytlarimiz, qiziqishlarimiz nega endi ulg‘ayib, aqlimiz kirgandan keyin o‘z faoliyatini yo‘qotib qo‘yadi? Nega endi biz o‘sha bolalik paytimizdagi qiziquvchanligimizni ulg‘ayib, aqlimiz kirgandan keyin ham so‘rab, bilib olmaymiz va ilm yo‘lida ishlatmaymiz?

Dunyoqarashimiz kengayardi, ilm bizga jon ozig‘i bo‘lardi. Tandan ham aql ortiq, biz ana shu aqlga tanni bo‘ysundirishimiz kerak edi. Yo‘q, biz bunday qilmadik, bunday qilish u yoqda tursin, hatto har qaysimiz o‘z ovulimiz atrofidagi mashmashalardan uzoqlasha olmadik. Aql-idrok bizni yosh kezimizda o‘ziga tobe qilib yurgan ekan, yoshimiz ulg‘ayib, tanimiz kuchga to‘lgandan so‘ng, biz aql ko‘rsatgan yo‘ldan yurmadik. Aqlni tanga qaram qilib qo‘ydik, har narsaga ko‘ngil qo‘ymadik, ko‘z bilan ko‘rmadik, ko‘ngil aytib tursa ham – unga ishonmadik. Ko‘z bilan ko‘rgan narsalarimizni yuzasinigina ko‘rib, uning ichida nima bor, nima yo‘qligiga qiziqmadik, uni bilmagan kishining bir narsasi kamib qoladimi, dedik. Birov bizga aql o‘rgatsa: «O‘z bilganing – o‘zingga, o‘z bilganim – o‘zimga?» – degin, deymiz. «Bo Xudo, kim kimdan ortiq ekan!» deymiz-u, ortiq ekanini bilmaymiz, bilganlar aytsa – ishonmaymiz.

Qalbimizda shu'la, ko'nglimizda ishonch yo'q. Faqat ko'zimiz bilan ko'ramiz-u, qanoat hosil qilamiz. Xo'sh, bizning hayvondan nima farqimiz bor? Qaytanga yosh paytimizda yaxshi ekanmiz: har qalay tushunsak-tushunmasak bilsak ekan, ko'rsak ekan, deb qiziquvchi odam bolasi ekanmiz. Endi shu kunlarda hayvondan ham yomonmiz. Hayvon o'zi hech narsani bilmaydi, bilishga qiziqmaydi ham. Endi biz-chi, biz ham o'zimiz hech narsani bilmaymiz-u, lekin kezi kelganda, bizlar ham bilamiz, deb nodonligimizni bilimdonlikka yo'yib, o'lgan-tirilganimizga qaramay, qizarishib-bo'zarishib, bo'yin tomirlarimizni bo'rttirib talashamiz.

SAKKIZINCHI SO'Z

Shu zamonda kim aql o'rganadi, kim nasihat tinglaydi?

Hozir odamlarning birovi bo'lis bo'lsa, birovi biy. Ularning birovdan aql o'rganaman, nasihat tinglayman, degan niyatlari bo'lsa, avvalo bu lavozimlarga saylanmagan bo'lur edilar. Ular bu lavozimlarga: o'zimiz ulug' kishilarmiz, o'zgalarga aql o'rgatamiz, deb saylanganlar. O'zlari go'yo rasmana tuzuk kishilar-u, endi o'zgalarni – buzilgan elni tuzatmoq istaydilar. Ular endi qanday qilib sening va'z-nasihatlarini tinglasin? Agar tinglamoqchi bo'lganda ham xalqning bunga vaqti-imkoni bo'larmikin? Boshlarida o'zlariga yarasha talay ishlari bor: «Tag'in ulug'larimiz oldida aybdor bo'lib qolmasmikinmiz, el orasidagi buzg'unchiliklarimiz avj olib ketmasmikin, yoki bekorga chiqim bo'lib, o'rnini to'ldira olmay yurmaylik?» – degan kabi, birovni qutqaray, birovni odam qilay, degan tashvishlarning hammasi shularning boshida. Endi qanday qilib ular bunga vaqt ajratsin, axir?

Boylar-chi? Ularning ham o'zlariga yarasha tashvishlari bor: bir kunlik bo'lsa ham, boshlariga davlat qo'nib,

go‘yo dunyoning yarim og‘irligi shularning yelkalarida turibdi. O‘zlarida yo‘q narsalarni mol berib sotib olishadi. Ko‘ngillari to‘q, g‘amlari yo‘q, ko‘zlari osmonda, ular uchun halol-harom, aql-idrok, ilm-fan kabi narsalar mol-dunyodan qimmat emas. Mol bo‘lsa Oллоh taoloni ham pora bilan sotib olishadi. Bunday kishilarning dini ham, Xudosi ham, aql-idroki, el-u yurti, ilm-hunari, or-nomusi, yaqin-yirog‘i hamma-hammasi mol-dunyo. Shunday bo‘lgandan keyin, ular endi qanday qilib so‘z uqsin, uqishga qo‘li tegarmidi? Ular mollarini sug‘orishlari, to‘yg‘azishlari, savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanishlari, hamma narsa ustidan nazorat qilishlari, mollarini boqtirish, yolg‘on-yashiqdan saqlanish, qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish uchun odam topib, ularni yollashlari kerak. Shu ishlarning uddasidan chiqib, axiyri, men bunday qildim, deb maqtanaman deguncha qancha-qancha zamonlar o‘tib ketadi! Sira ham qo‘li tegmaydi.

Endi o‘g‘rilar, muttahamlar-ku, hech ham bunday pand-nasihatlarni tinglamaydi.

Uncha-muncha kambag‘allar esa, so‘z tinglash u yoqda tursin, zo‘rg‘a kun kechirishmoqda. Ilm-fan el a‘yonlarigaki kerak bo‘lmagandan so‘ng, bu bechoralar nima qilsin? Yana ular, go‘yo kambag‘allar uchun ilmning keragi yo‘q, degandek qilib: «Bizlarga nima qilasan falsafa suqib, bu pand-nasihatlaringni anovi gapga tushunadiganlarga ayt!» deb el a‘yonlarini ko‘rsatishadi. Bularning esa o‘zgalar bilan ishi yo‘q. Yuqorida aytganimiz bo‘lislar, biylar, boylarning ham ko‘nglida hech qanday qayg‘u-hasrat bo‘lmasa kerak.

TO‘QQIZINCHI SO‘Z

Men o‘zim qozoqman. Lekin qozoqlarni yaxshi ko‘ramanmi, yo‘qmi – gap ana shunda. Agar yaxshi ko‘rsam

– ularning qiliqlarini ma’qullagan, har nechuk boylaridan odam yaxshi ko’rgudek, ko’ngil to’lgudek biror fazilat istab topgan bo’lur edim. Shuni ko’ngilga tugib, unisi bo’lmasa bunisi, yomoni bilan birga yaxshisi ham bor-ku, deb o’zimga tasalli bergan va umid uzmagan bo’lur edim. Biroq bunday niyatim yo’q. Agar yomon ko’rsam – ular bilan so’zlashmagan, sirdosh, suhbatdosh bo’lmagan, ularning oldiga bormagan va: «Nima qildi, nima qo’ydi?» demagan bo’lur edim. Bordi-yu, unday qilmagan taqdirimda ham, ularning orasidan ko’chib ketgan bo’lar edim. Bularning barini tuzatishga ham, tuzalishiga ham aqlim yetmaydi, yo’q, sira ham yetmaydi. Nega bunday ekan-a? Axir, yo u tomon, yo bu tomon bo’lishim kerak-ku, aslida!

Men hozir tirik bo’lib tirik, o’lik bo’lib o’lik emasman. Jon ham bekordan bekorga chiqmas ekan. Yoki dil xiraligim – shu o’lim tashvishidanmi ekan? Yoki o’zimning xafaligidanmi? Yo bo’lmasa boshqa bir sababdanmi? Nima uchun bunday – unisini o’zim ham bilolmayman. Har holda tanim sog’-u, ichim oriyatim cho’kib qolibdi. Jahlim chiqsa – izza bo’lolmayman, kulsam – quvonolmayman, so’zlagan so’zlarim bari o’zimniki emasday, hatto o’z kulгим ham o’zimniki emasday, hammasi begona, allakimnikiday yot tuyuladi. Yosh, g’ayratli kezlarimda qozoqlarni yaxshi ko’rardim, shuning uchun ham ulardan umidimni uzolmas, ko’zim qiyib bir yoqqa tashlab ketolmasdim. Keyinroq ulardan umidimni uzgan chog’imda esa, bundoq qaragam, yuragimda o’zga yurtga borib, yot kishilar bilan do’st bo’larlik kuch-quvvatim, g’ayratim, cho’g’im so’nib qolgan ekan. Demak, men endi quruq gavgamnigina ko’tarib yurgan ekanman. Asli o’zi bir hisobdan shu ham yaxshi, chunki o’lar chog’imda: «Eh attang, qanchadan-qancha ko’rmagan narsalarim qolib ketdi!» deb achinmay, orqaloldingga qaramay o’lasan kishi.

O'NINCHI SO'Z

Ba'zi bir odamlar Xudodan farzand so'raydi. Xo'sh, nima qiladi Tangridan farzand tilab? «O'lsam o'rnimni bossin, orqamdan qur'on o'qisin, qarigan chog'imda kunimga yarasin» deb tilashadi. Shundan boshqa dardlari yo'q.

Xo'sh, bolam o'rnimni bossin, degani nimasi? Nima, o'zingdan qolgan dunyo egasiz qoladi deysanmi? Orqangda qolgan dunyoning g'amini sen yemoqchimidig?! Bu – o'limoldi mol-u dunyongni o'zgadan qizg'anib aytganingmi? Yoki sening bu dunyoda o'zgaga qiymaydigan nimang bor ekan shunchalik? Farzandning ham yaxshisi – yaxshi, yomoni – boshga bitgan balo bo'ladi. Sen Yaratgandan uning qanaqa bo'lishini bilibso'radigmi? Dunyoda o'zing ko'rgan xor-zorliging o'zing qilgan itliging ozmidi? Endi yana nimaga farzand ko'rib, uni ham rasvo qilishga, xor-zor qilib tashlab qo'yishga muncha xumor bo'lmasang?

Agar orqamdan Qur'on tilovat qilsin deydigan bo'lsang, tirikligingda odamlarga yaxshilik qilgan bo'lsang, kim senga Qur'on xatm qilmaydi deysan? Bordi-yu, bu dunyoda yomonlikni ko'p qilgan bo'lsang, bolang o'qigan Qur'on u dunyoda senga kafil bo'larmidi? Tirikligingda o'zing uchun qilmagan ishni, o'lganingdan keyin bolang qila olarmidi? Esingda bo'lsin, oxirat uchungina farzand tilaganing – farzandim unmay-o'smay juvonmarg bo'lsin, deganing bo'ladi. Bordi-yu, unsin-o'ssin, deb niyat qilgan bo'lsang, xo'sh, qozoqlarda unib-o'sib, ota-onasini jabr-sitamdan qutqaradigan bola tug'ilganmi o'zi hech shu choqqacha? Tug'ilganda ham unday o'g'lonni sen kabi ota, sening xaqingday xalq, sening elingday el parvarish qilib kamolatga yetkazarmi ekan?

Agar qarigan chog'imda kunimga yarasin desang – bu ham shunchaki bir gap. Lekin, avvalo, o'zing qariguncha yashaysanmi, yo'qmi – bu yog'i ham bor. Ikkinchidan, Xu-

dodan tilab olgan farzanding senga mehribon, merosxo‘r bo‘lib tug‘iladimi, yo‘qmi – bunisi ham bor. Uchinchidan, moling bo‘lsa seni kim asramaydi? Agar bordi-yu, moling yo‘q bo‘lsa – seni qanday qilib rozi qilib asrashi mumkin? Tilab olgan farzanding ham senga moltopar bo‘lib tug‘iladimi, yo molsochar bo‘lib tug‘iladimi – bunisi noma‘lum, albatta. Xo‘sh, ana boringki, Olloh taolo senga farzand ham berdi, deydik. Sen uni o‘zing tarbiya qila olasanmi? Qilolmaysan. O‘zing gunoh qilganing qilgan, farzanding qilgan gunohlariga ham sherik bo‘lasan. Avvalambor farzandingni: «Ana uni olib beraman, mana buni olib beraman» deb o‘zing aldaysan. Yana uni aldaga-ning uchun xursand ham bo‘lasan. Lekin keyin farzanding ham o‘zingga o‘xshab aldamchi bo‘lsa – ayt-chi, kimdan ko‘rasan? O‘zing unga: «Falonchini bir boplab so‘kkin!» deb o‘rgatasan-u, haqorat qilingan bechora bolangni koyimoqchi bo‘lsa, yana sen: «Qo‘y, uning o‘zi tentak, unga tegmanglar!» deb uni mazax qilasan. Shu bilan uni bezori qilib o‘rgatasan. Maktabga berganingda ham, mullaning eng arzonini qidirib topib, xat tanisa bo‘ldi, quv, shum bo‘lib o‘ssa ham deb berasan. «Ehtiyot bo‘l, falonchining bolasi seni orqangdan sotib ketadi» deb yana uning qulog‘ini buraysan, insonga bo‘lgan ishonchini yo‘qotib tarbiyalaysan? Shumi bergan ta‘liming? Yana shu bolangdan qanday qilib xayr-ehson kutasan?

Keyin, mol tilaysizlar. Xo‘sh, nima qilasizlar shuncha molni Xudodan tilab? Avvalambor molni Xudodan tilamaysizlar. Xudoning berganini esga olmaysizlar. Xudo sizga mehnat qilib mol topgudek kuch-quvvat ato qildi. Biroq, nega endi shu kuch-quvvatni adolat uchun sarf qilmaymiz. Bu kuch-quvvatni o‘z o‘rnini topib sarf qilsin deb ilm berdi, buni ham o‘qimaymiz. O‘qisak-o‘rgansak – uqadigan, tushunadigan aql-farosat berdi, kim bilsin, buni qayoqqa yo‘qotganimizni?.. Erinmay mehnat qilsa, hormay-tolmay izlansa, topgan-tutganini tadbir bilan xarj

qilsa – kim boy bo‘lmaydi deysiz? Bizning tutumimiz mana shunday, demaymiz. Bor bilganimiz: birovdan qo‘rqitib olsak, birovdan yalinib olsak, birovdan aldab olsak deymiz – mana bizning muddaomiz.

Bu – Xudodan so‘rash emas. Bu – obro‘cini, orini sotib, tilanchilik, talonchilik qilish demakdir. Mayli, shunday qilib aql topding, mol topding, boyiding, deylik. Endi ana shu boyligingni sarf qilib, ilm topishing kerak. Bordi-yu, o‘zing o‘qiy olmasang, bola-chaqang o‘qisin. Ilmsiz oxirat ham yo‘q, dunyo ham. Men umrimda hech qachon, garchand itlik qilib bo‘lsa ham, mol topib, odamgarchilik yo‘lida sarflagan birorta ham qozoqni uchratmadim: hammasi ham molni it azobida topadi-yu, itlik qilib ayriladi. O‘lganida esa, azob-uqubat, og‘ir mehnat izi, qayg‘u-hasratdan boshqa hech narsa orttirib ketmaydi. Borida: «Boyman» deb maqtansa, yo‘g‘ida esa: «Mening peshonamga ham ilgari mol bitgan edi» deb maqtanadi. Nihoyat, gado bo‘lib qolgach, xayr-sadaqa, tilanchilik qilishga tushadi.

O‘N BIRINCHI SO‘Z

Shu zamonda qozoqlar nima bilan tirikchilik qilishadi? Meningcha, ikki narsa bilan:

Birinchisi o‘g‘irlik; o‘g‘rilar o‘g‘rilik bilan mol topish payida; mol egalari bo‘lsa chorakorlardan qisib-qimtib boyish payida, el a‘yonlari esa: undirib beraman deb da‘vogarni, qutqaraman, deb o‘g‘rini yeyish bilan ovora. Qora xalq bo‘lsa; o‘g‘rining o‘g‘riligini aytib mol topaman, o‘g‘riga otimni berib foyda ko‘raman, arzon-garovga narsa sotib olaman, deb halak.

Ikkinchisi buzuqlar, ig‘vogarlar hech kimning xay-olida yo‘q narsalarni qo‘zg‘ab, bunday qilsang bek bo‘lasan, unday qilsang boy bo‘lasan, bunday qilsang

o'ch olasan, unday qilsang noming chiqadi, zo'r atalasan, deb beli baquvvatroq odamlarni yo'ldan ozdirish bilan ovora. Kim yo'ldan ozsa, shuning qo'ltig'iga suv purkab, oxir bir kun kerak bo'lib qoladi, deb o'ylab, o'z manfaatini ko'zlash bilan band.

El kattalari bo'lsa ig'vogarning so'ziga uchib: «balli-balli», yaxshi aql topibsan, men seni unday qilib suyayman, deb bunisiga aytib, men seni bunday qilib suyayman, deb unisiga aytib, kim ko'ringanni aldash, talash bilan kun o'tkazadi. Qora xalq bo'lsa: men shuncha jonman, urug'-aymog'imiz bilan sizning xizmatigizda bo'lamiz, tarafingizni olamiz, so'yilingizni so'qamiz, deb kim ko'proq bersa – o'sha tomonga o'tib, o'z boshini, ovulini, xotin, bola-chaqasini sotish bilan ovora. Agar mana shu o'g'rilar, muttahamlar, ig'vogarlar oramizdan yo'qolsa edi, unda el-yurt es-hushini yig'ib olgan, tirikchilik g'amiga tushgan bo'lardi. Boylar molini boqib, kambag'allar ehtiyojini izlab, el mehnatiga berilib, o'z yo'lini topib olgan bo'lardi. Ammo hozir butun xalq mana shu ikki bo'lmag'ur odat bilan mashg'ul – buni kim tuzatadi, kim? Afsus-afsus: qasam, shart, adolat, or-nomus, andisha kabi ajoyib fazilatlardan bir yo'la mahrum bo'lib qolganmizmi-a? Ehtimol, o'g'rini tiyish mumkindir-u, ammo anovi ig'vogarlar, buzuqilarning gapiga quloq soladigan tentak boylarni kim tiyadi, kim?

O'N IKKINCHI SO'Z

...Ilm o'rganishni hamisha davom ettiraverish kerak. Agar kimda-kim uni to'la o'rganmay turib, shu bilganim o'zimga yetadi, deb bor bilimiga qanoat qilsa – u odamni Xudo urgani: uning qilgan toat-ibodati ham oxiratda qabul bo'lmaydi. Agarda kimda-kim imonining qanday qilib

mustahkamlanishini va qanday qilib zaiflanishini bilmasa, u holda uning boshiga salla o‘rab, birodar atalib, ro‘za tutib, namoz o‘qib yurishi – bari behuda: bu xuddi qalin to‘lamay turib, sepini so‘ragandek bir gap. Parvarish, pokizalik, rostgo‘ylik bo‘lmagan joyda imon ham bo‘lmaydi, chin ixlos bilan o‘z-o‘zini parvarishlab turmaydigan, dinga joni achimaydigan kishini «imoni bor» deb bo‘lmaydi.

O‘N UCHINCHI SO‘Z

Imon degan narsani – Olloh taborak va taoloning shak-shubhasiz birligi va mavjudligiga, payg‘ambarimiz sallallohu alayhi vasallam orqali yuborgan oyatlariga bo‘ysunib, inonmoq, deb tushunish kerak. Imon ikki turli bo‘ladi. Birinchidan: biror narsaga imon keltirganda, avvalo, shu narsaning haq, mavjud ekanligiga imon keltiruvchining o‘zi shak-shubha qilmasligi, uni aqli bilan isbot qilib berishi va shu tushunchasida barqaror turishi lozim. Buni imoni solim deymiz. Ikkinchidan: o‘qib yoki mullalardan eshitib imon keltirmoq va shu ishonchda muqim turmoq kerak. Bordi-yu, birov o‘ldiraman deb qo‘rqitsa ham va bu yo‘lda boshiga ming xil baloni to‘nkarsa ham – ko‘ngliga shubha solmay, ikkilanmay, imon-ishonchini mustahkam tutmog‘i lozim. Buni imoni taqlidiy deymiz.

Bunday imonni salomat saqlash uchun kishi dovyurak, o‘ziga ishongan, asablari mustahkam bo‘lishi lozim. Endi imoni solim degan kishilarimiz ilmsiz bo‘lsa, imoni taqlidiy degan kishilarimizning so‘zida qaror bo‘lmasa: yo aldagan-ga, yo yo‘ldan ozdirganga va yoki nafs balosida biror manfaat axtarib, oqni qora, qorani oq, rostni yolg‘on, yolg‘onni rost deb qasam ichadigan kishilarga nima deysiz? Tangri taolo bundaylardan panohida o‘zi asrasin! Ammo yuqorida bayon qilganimiz ikki turlidan boshqa imon yo‘q – buni bi-

lish zarur. Imonga shak keltirgan bandalarni Olloh taolo afv etmaydi va payg‘ambarimiz ham shafqat qilmaydi, bu mumkin ham emas. «Qilich ustida shart yo‘q», «Olloh taolo kechirmaydigan gunoh yo‘q» – degan qalbaki maqollarga suyangan bandalarning basharasi qursin!

O‘N TO‘RTINCHI SO‘Z

Tirik odamning yurakdan ham aziz joyi bormi? Bizning qozoqlarda «yurakli kishi» degani – botir kishi degani. Ular yurakning bundan boshqa fazilatlarini tushunmaydilar. Rahm-shafqat qilish, mehribonlik, inson farzandini o‘z bovorim (jigarim) deb tushunib, ularga ham o‘zini ayagandek ayab qarash – bularning hammasi yurak ishidir; shu-ningdek, oshiqlik, sevgi-muhabbat ham yurak ishi. Dil amriga amal qilib gapirilgan gap yolg‘on chiqmaydi. Ko‘ngil yo‘rig‘iga yurmay, nafsning buyrug‘iga kirsang – so‘zsiz adashasan. Qozoqlarning «yurakli» degan kishisi – maqtashga uncha arzimaydi. Ular: birovning aytgan gapiga kiradigan, va‘daga vafo qiladigan, yomondan yuz o‘giradigan, itga o‘xshab ko‘ch ketidan ergashavermaydigan, balki aksincha, adashgan jamoaning jilovidan ushlab to‘g‘ri yo‘lga solib yubora oladigan, garchand mushkul bo‘lsa-da, odil aql e‘tirof etgan narsaga bo‘ysunadigan, noqis aql e‘tirof etgan narsaga, garchi oson bo‘lmasa-da, bo‘ysunmaydigan kishilarni botir deb hisoblamaydilar. Balki aksincha, ular faqat qashqir yurakli kishilarnigina botir deb tushunadilar.

Qozoqlarda odam bolasi aqlsizligidan yo‘ldan ozmaydi, balki aqlli gaplarni uqib olishga zehni o‘tmaganligidan, g‘ayratsizligi va qarorsizligidan yo‘ldan ozadi. Men ularning ko‘pchiligining biror ishni «bilmasdan qilib qo‘ydim» deganlariga mutlaqo ishonmayman. Ular garchand bilib tursalar ham, nojo‘ya ishlarga orsizligi, vijdotsizligidan

yo'l qo'yishadi. Yomonlikka bir berilib ketdimi, bas, undan o'zini tortib oladigan jur'at qozoqlarda kamdan-kam bo'ladi. Ularning el orasida: er yigit, botir yigit, pishiq yigit, degan gaplariga ishonmaslik kerak. Ular bu so'zlar bilan yigitlarni bo'lar-bo'lmasga maqtab, hovliqtirib, yo'ldan ozdirishadi-yu, oxiri nima bilan tugashi haqida o'ylashmaydi. Xudoga ham, bandasiga ham xush kelmaydigan, or-nomusni oyoq-osti qiladigan bu ishlardan o'zini sof tuta olmaydigan, behuda maqtovlarga uchadigan, o'zining qilayotgan ishini o'zi sezmaydigan yigitni yaxshi yigit deb bo'ladimi? Sadqai yigit ketsin u! Shu ham odam bo'ldi-yu!

O'N BESHINCHI SO'Z

Mening nazarimda, aqlli kishi bilan aqlsiz kishini ajratib turadigan bitta narsa bor.

Avvalambor bandasi yaratilgandan keyin, dunyodagi mavjud narsalarga qiziqmay iloji yo'q. Xuddi ana shu payt uning umrida eng qiziq davr bo'lib esida qoladi. Shunda aqlli odam kelgusida nafi tegadigan bir ishga mehr qo'yib, ixlos bilan yopishar ekan-u, bir kun uning ana shu qiziqqan narsasi o'zining sevgan kasbiga aylanib, kuniga yarab, ko'z ko'radigan, quloq eshitadigan, ko'ngil sevadigan bo'larkan. Nihoyat, shunday o'tgan umrning o'kinchi ham bo'lmas ekan.

Aqlsiz kishi nimaiki ko'rsa – shunga havas qilib va ularning birortasini ham boshini tutolmay, ne-ne tillaga topilmaydigan umrini it azobida xor-zorlik bilan o'tkazib yuborar ekan-u, so'nggi pushaymonidan foyda bo'lmas ekan. U odam o'zini yoshligida, bu hunar bo'lmasa, u hunar, deb o'zini har ishga qodir sezib, u shoxdan-bu shoxga uchib-qo'nib, go'yo yoshligi abadiy turaveradiganday, belining quvvati, ko'zining nuri ketib qarimaydiganday ko'rinarkan-u, vaqti kelib, tushunib, biror ishning boshini ushlayman, deganda,

yoshi o‘tib, kuchi ketib, qo‘lidan hech narsa kelmay qolar ekan.

Keyin har narsaga bir qiziqish masalasi. Agar biror narsaga qiziqsang – bora-bora uni sevib qolarkansan, kishi. Bir narsani sevishning o‘zi ham bir dard bo‘larkan. Ana shu sevgan ishingga, kasbingga yetay-yetay deb turganingda, odamda qandaydir bir mastlik, mag‘rurlik paydo bo‘larkan. Ma‘lumki, har qanday mastlik kishining aybini ko‘proq yuzaga chiqarar, ko‘zlarini shira bostirar, mag‘rurlantirib yuborar ekan. Ana shunday paytda esli odam esini yo‘qotib qo‘ymay, aql-hushini bir joyga yig‘ib olib, o‘z kasb-korining etagidan mahkam ushlar ekan. Essiz, ovsar kishilar esa boshi aylanib, ko‘zi tinib, bosar-tusarini bilmay, hovliqib, boshyalang, egar-to‘qimsiz otini qamchilayverar ekan – men shuni ko‘rdim.

Agarda sen ham aqlli kishilarning safida bo‘lging kelsa, har kuni bir marta, yo haftada bir marta, hech bo‘lmasa oyda bir marta o‘zingga o‘zing hisob ber! O‘tgan umringni qanday o‘tkazibsan: na ilmga, na jamiyatga va na o‘zingga foydali biror ish qilibsanmi? Yo bo‘lmasa qanday qilib o‘tkazganligingni o‘zing ham sezmay qolibsanmi?

O‘N OLTINCHI SO‘Z

Qozoqlar: qilib yurgan bandachiligimni Yaratgan Egam xush ko‘radimi, yo‘qmi, deb o‘ylamaydi. Faqat el-u yurt nima qilsa – biz ham shuni qilib, yiqilib-surilib, yotib-turib yuraversak bas, deb o‘ylaydi. Savdogar o‘z nasiya pullarini so‘rab kelganda ba’zi bir odamlar ko‘zlarini lo‘q qilib: «Borim shu, xo‘p desang ola qol, bo‘lmasa yo‘q narsani senga qayerdan yo‘ndirib beraman?» deyishardi. Xuddi shunga o‘xshab, bular ham Olloh taoloni ba’zan shunday savdogarga o‘xshatmoqchi bo‘lishadi. Biror narsaga ixlos

qo'yib, fikr yuritib, mashq qilib o'rganishmaydi. «Bilganim shu, qariganimda qanday qilib o'rganay» deydi. «Menga o'qimading deb aytishmasa ham bo'lardi, tilim aylanmasa nima qilay» deyishadi. Nima, ularning tili o'zga xalqlarning tilidan boshqacha qilib yaratilganmi?

O'N YETTINCHI SO'Z

Bir kuni G'ayrat, Aql, Yurak uchalasi har qaysisi o'z hunarini maqtab, tortishib qolishibdi-yu, Ilmning oldiga kelib, undan hakamlik qilishni so'rashibdi.

Shunda birinchi bo'lib G'ayrat so'zlabdi:

– Ey Ilm, – debdi u, – axir o'zing bilasan, dunyoda hech bir narsa yo'qki, u mening ishtirokimsiz kamol topsin. Avvalo, mana, sening o'zingni bilish ham, erinmay, sabot va matonat bilan izlab, o'rganib, yana uni o'z o'rnida ishlatish ham – mening ishim. Har kuni o'z vaqtida toat-ibodatni kanda qilmay o'rniga qo'yish ham – mening ishim. O'zingga ma'lumki, dunyoda har kim o'ziga loyiq hunar o'rganishi, mol topishi, obro' qozonishi, mansab egallashi kerak – bularning hammasi mehnatsiz bunyodga kelmaydi. O'rinsiz, bo'lar-bo'lmas ishlarga ko'ngil qo'ydirmay, insonni sof saqlaydigan, uni gunohkorlikdan, johillikdan, shaytonning gapiga kirib, nafs balosiga giriftor bo'lishlikdan saqlaydigan, adashgan bandalarni to'g'ri yo'lga solib yuboradigan ham – men emasmi, axir? Shunday bo'lgandan keyin, Aql bilan Yurak nega men bilan masala talashadi? – debdi.

Shunda Aql aytibdi:

– Na bu dunyoda va na u dunyoda nimaiki foydali, nimaiki zararli bo'lsa – biladigan bir menman. Sening so'zingni uqadigan ham men. Mensiz inson na o'z foydasini biladi va na o'z zararidan qochib qutula oladi. Hatto Ilmni ham o'qib o'rgana olmaydi. Shunday bo'lgandan so'ng, bu ikkalasi men bilan nega g'ijillashadi? Men bo'lmasam bu ikkalasining qo'lidan nima ish keladi? – debdi.

Nihoyat, Yurakka navbat kelibdi va u shunday debdi:

– Men inson tanasining podshosiman, qon mendan taraladi, jon menda makon quradi, mensiz hayot yo‘q, – debdi u. – Issiq uyda, yumshoq to‘shakda yotgan to‘q bir odamni: och-yalang‘och, to‘shaksiz sovqotib yurgan kambag‘alni holi nima kechdi ekan, deb o‘ylantirib, uni u yonidan-bu yoniga ag‘anatadigan, uyqusini qochirib, jonini achitadigan ham – menman. Kattalarga nisbatan hurmat-izzat, kichiklarga nisbatan mehr-shafqat uyg‘otadigan ham – menman. Biroq inson meni hamma vaqt ham sof saqlay olmaydi. Oxir bir kuni xor qiladi. Agar men toza bo‘lsam, inson bolasini ajratmagan bo‘lur edim: yaxshisini yaxshilikka yetkazadigan ham – men, yomonning ta‘zirini beradigan ham – men. Adolat, insof, or-nomus, rahm-shafqat, mehribonchilik kabi narsalarning hammasi mendan chiqadi. Mensiz bularning ko‘rgan kuni – kunmi? Shunday bo‘lganidan keyin, bu ikkalasi men bilan yana qanday qilib masala talashishadi? – debdi.

Shunda Ilm uchalasining gapini bafurja tinglab olib, uchalasiga shunday debdi:

– Ey G‘ayrat, sening aytgan gaplaringning hammasi to‘g‘ri. Hatto u aytganlaringdan boshqa hunarlaringning borligi ham rost, shuningdek, sensiz ularning hech ekanligi ham to‘g‘ri. Ammo shu bilan birga, kuch-quvvatingga yarasha qattiqchiliging ham bor. Ko‘pgina foydang bilan birga, zararing ham yo‘q emas. Ba‘zan yaxshilikka, ba‘zan esa yomonlikka mahkam yopishib olasan – mana shu qilig‘ing yomon!

So‘ng Aqlga aytibdi:

– Ey Aql! Sening aytgan gaplaring ham – hammasi to‘g‘ri. Sening ishtirokingsiz hech narsaning bo‘lmasligi ham rost. Yaratgan Tangri taoloni ham sen tanitasan, mavjud har ikki dunyoning kor-holini ham sen bilasan. Bundan tashqari ham sening qo‘lingdan ko‘p narsalar keladi: turli amal, hiyla-nayranglarning bari sendan chiqadi; yaxshining

ham, yomonning ham tayangani – sensan. Sen ikkalasiga ham birdek xizmat qilasan, istaganini topib berasan – mana shu odating yomon! – deb so‘zini davom ettiribdi Ilm. – Endi men uchalangning boshingni qo‘shib, ittifoqlaringni kelishtirib qo‘yishim kerak. Bu ishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan boshliq Yurak bo‘lsa yaxshi bo‘ladi. Chunki, Aql, sening nojo‘ya tomonlaring ko‘p, shu sababdan Yurak sen yetaklagan tomonga qarab yuravermaydi: yaxshi yo‘lga boshlasang – jon-dilidan yuradi, hatto xursand ham bo‘ladi; yomon yo‘lga boshlasang – sendan jirkanadi, aytganingga yurmaydi, hatto ko‘krakdan haydab chiqaradi.

So‘ngra Ilm yana G‘ayratga aytibdi:

– Ey G‘ayrat! Sening ham kuch-quvvating juda ko‘p. Lekin Yurak bosh bo‘lsa, seni ham o‘z erkingga qo‘ymaydi. Uni faqat o‘rinli ishlargagina safarbar qiladi. O‘rinsiz narsalarga-chi – qo‘l urdirmaydi. Mening gapimga kirib, uchovlon birga bosh qo‘shinglar, tinch-totuv yashanglar va bamaslahat ish ko‘ringlar! – deb o‘git beribdi Ilm. – Agar uchalangizdagi xususiyatlar birikib, bir odam bo‘lsalaringiz – u holda sizning bosgan izingizni tabarruk qilib ko‘zga surtsa bo‘ladi. Bordi-yu, uchovingiz ola bo‘lsangiz, bir to‘xtamga kela olmasangiz – u holda men faqat Yurakning tarafinigina yoqlayman. Chunki kitoblarda: odamgarchilik kishining qalbida bo‘ladi, qalbingni pok saqla, deyilgan...

O‘N SAKKIZINCHI SO‘Z

Inson farzandi o‘z usti-boshini yirtiqsiz-yamoqsiz, toza, sipo qilib kiyinib yurgani ma’qul. Lekin o‘z davlatidan ortiq kiyinib, kerilib, yoki haddan tashqari o‘ziga zeb berib yurmoqlik – bu olihtagarchilikdan boshqa narsa emas.

Oliftaning ikki qiligi bo‘ladi: biri – afti-basharasi, qosh-qovog‘iga oro berib, soqol-mo‘ylovini qirtishlab, ko‘kragini kerib, yurish-turishini o‘zgartirib, yasama savlat to‘kib yuradi; ikkinchisi esa – «ye to‘nim ye, ich

to‘nim ich» degandek, kiygan to‘nini, mingan otini ko‘z-ko‘z qilib, shu orqali o‘zini sipo, boy-badavlat yigit qilib ko‘rsatish, o‘zidan yuqoriroq kishilar oldida e‘tibor qozonish, tengqurlarining havasini keltirib, hasad qildirish, o‘zidan pastroqdagilarning esa: «Eh, esiz-esiz dunyo, mana bu yigitning otiday ot minib, to‘niday to‘n kiyib yurganlarning ham armoni bormikan!» degizish uchun shunday qilib yuradi.

Buning hammasi – kamoli masxarabozlik va ahmoqlikdir. Avvalo odam buning ketiga bir tushmasin, tushgandan keyin uning qaytib odam bo‘lishi qiyin.

«Odobni kimdan o‘rganding? Beodobdan o‘rgandim!» degandek, kamina oliftagarchilikni o‘ziga kasb qilgan bunday kishilarni yoqtirmaydi. Zotan, inson farzandi bir-biridan kiyim-boshi bilan emas, balki aksincha, aqli, fazilati, ilm-hunari, or-nomusi bilan farq qiladi. Bundan boshqa narsalar bilan, men falonchidan ortiqman, deyish – bu ahmoqlikdir.

O‘N TO‘QQIZINCHI SO‘Z

Odam onadan aqlli bo‘lib tug‘ilmaydi; balki tug‘ilgandan keyin, dunyoda nima yaxshi, nima yomon ekanligini eshitib, ko‘rib, ushlab, topib, zehn qo‘yib biladi. Kimki, dunyoda ko‘pni ko‘rsa, ko‘p narsa eshitsa – ana shu odam bilimdon bo‘ladi. Inson uchun faqat aqlli bo‘lishning o‘zi kamlik qiladi. Agar u aqlli kishilardan eshitgan, bilgan, ko‘rgan narsalarini amalda qilsa, yomon narsalardan o‘zini saqlasa – shundagina u aqlli, qo‘lidan ish keladigan, kiroyi odam desa arziydigan bo‘ladi. Agar eshitgan gaplarini tushunmasa-yu, qayta so‘rab, uqib olmasa, yoki bu gaplarning qanchalik rost ekanligiga ko‘zi yetib tursa-da, eshikdan chiqishi bilan eshitgan gaplari u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketsa – bunday odamlarga gap gapirib jonni koyitish ker-

ak emas! Bir donishmand: «Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga. Gapni aytib netarsan, gap uqmas gum-rohlarga? Chunki bundaylarga gap gapirgandan ko'ra, gapirmagan ma'qul!» degan ekan. Shunga o'xshab, gapni uqqanga gapirgan ma'qul.

YIGIRMANCHI SO'Z

Taqdirning haq ekanini bilasizlar, u – o'zgarmasdir.

Inson tabiatida toliqish, zoriqish, zerikish, ko'ngil so-vish degan narsa bor. Lekin bu xususiyatni insonning o'zi kashf etgan emas, balki u inson bilan birga yaratilgan narsa. Odam unga bir bo'y bersa – qutulishi qiyin bo'ladi. Sen uni qancha g'ayrat qilib, o'zingdan silkib tashlab ketmagin, baribir undan qutula olmaysan: u senga yana qayta kelib yopishaveradi. Aql-hushi joyida bo'lgan odamning dunyodan hech bir kam-ko'stsiz, tashvishsiz o'tgani bormikin? Yemoq-ichmoqdan ham, o'yin-kulgidan ham, to'y-tomoshalardan ham, manmanlik, maqtanchoqlik va oliftagarchilikdan ham zerikadi, ko'ngli qoladi. Hammasidan ayb topadi, qarorsizligini biladi va burungisidan ham ko'ngli soviy boshlaydi. Dunyo bir qolipda turmaganidek, odamning kuch-quvvati, umri ham bir maromda, bir qolipda turmaydi. Dunyoda nimaiki mavjud – Olloh taolo ularga ham bir maromda turmoqlikni ato qilgan emas. Shunday bo'lgandan keyin, qanday qilib, endi ko'ngil bir qolipda tursin?

Biroq bu zerikish hammada ham bab-baravar bo'lavermaydi: balki hayotga qiziqadigan, ko'pni ko'rgan, hamma narsaning achchiq-chuchugini totgan va unda hech qanday ma'no yo'qligini bilgan, shunga aqli yetadigan odamlargina tirikchilikdan zerikadi. Agar shunday bo'lsa, ahmoqlik, beg'amlik ham g'animat bir narsa ekanmi deb qoldim?

YIGIRMA BIRINCHI SO‘Z

Inson ozmi-ko‘pmi maqtanchoqlik odatidan holi bo‘lishi qiyin. Men o‘sha maqtanchoqlik odatining ikki turi mavjudligini payqadam. Meningcha, bittasini – kattazanglik, ikkinchisini – maqtanchoqlik desa bo‘ladi.

Birinchi kattazanglik – bu odamlar ichida o‘zini-o‘zi boobro‘ deb hisoblashlikdir. Ya‘ni: nodon, yengil, maqtanchoq, odobsiz, orsiz, beqaror, beburd, tilanchi, g‘iybatchi, yolg‘onchi atalmaslik va bu yaramas fazilatlardan o‘zini ehtiyot tutib, uni o‘ziga or bilib, unday narsalardan o‘zini begona sanamoqlikdir. Bu – aqllilar, orlilar odatidir. Bunday kishilar: o‘zimni yaxshi demasalar, demasin, biroq yomon atalmasam bo‘ldi, deb tashvish tortadi.

Ikkinchi maqtanchoqlik – bu odamlar ichida qanday qilib bo‘lsa ham nom chiqarishga urinish, nima desa ham – desin, ishqilib, desin, demoqlikdir: istasin boy desin, istasin botir desin, istasin quv, pishiq desin, har qalay nima desa ham mudom «desin» deb kuyib-pishib yurib, «demasin» degan so‘zni unutib qo‘yishlikdir. Bunday maqtanchoqlarning o‘zi uch turli bo‘ladi. Birinchisi – yotga maqtalsam, deydi. Bu nodonlik albatta, lekin shunday bo‘lsa ham – odamgarchilik. Ikkinchisi o‘z elimga maqtalsam ekan, deydi. Bu ham borib turgan nodonlik-u, ammo odamgarchiligi yo‘q odamning gapi. Uchinchisi esa o‘z ovulimda yo bo‘lmasa, aqalli o‘z uyimda maqtalsam ekan, deydi. Bunday deyish – baayni nodonlik bo‘lishi bilan birga, umuman odamgarchilikdan ham emasdir.

Yotga maqtalsam degan odam, elim maqtasa ekan, deydi. Elimga maqtalsam ekan, degan odam, oshna-og‘aynilarim maqtasa ekan, deydi. Endi, oshna-og‘aynilari o‘rtasida maqtalishni istagan odam – bu o‘zini-o‘zi maqtagan bilan bab-baravardir.

YIGIRMA IKKINCHI SO‘Z

Shu kunlarda men qozoqlar ichida kimni yaxshi ko‘rsam ekan, kimni qadrlasam ekan, deb o‘yladim.

Boylarni qadrlasammikin? Biroq unday desam, bu elda tuzukkina boy ham yo‘q. Bor bo‘lsa – u o‘z boshiga va o‘z boyligiga o‘zi xo‘jayinlik qilasmidi? Birorta boy yo‘qki, hozir u o‘z moliga o‘zi ega bo‘lsin. Ba‘zi bir boylar birovlar bilan tillashib, o‘zining yonini oldirish uchun yuz kishiga yalinib-yolvorib, topgan-tutganini ularga ulashib yurishibdi. Ular o‘ylaydiki, yalintirib berdim, deb. Yo‘q, bu ahmoqlikdir. Aksincha, ularning o‘zlari yalinib berib yuribdi. Bu xayr-ehson ham, hotamlik ham emas. Balki faqat o‘z eli bilan o‘zi nizolashib, tekinxo‘rlarga qo‘ynini ochib, mol-dunyosini bekorga sochishlikdir. Ba‘zi bir boylar: el a‘yonlari esa bir-biri bilan kelisha olmagach, nizolar ko‘payib ketib, ana shularni murosaga keltirganlarga chor-nochor mol-dunyosini sochib yuribdi.

Mirzalarni¹ qadrlay, desam, shu kunlarda el ichida bitta ham haqiqiy mirza yo‘q. Bekordan-bekorga mol-dunyo so-chadigan mirza bemaza qovunning urug‘idan ham ko‘p. Ba‘zilari foyda ko‘raman deb mirza bo‘lib yurishibdi, ba‘zilari – o‘lganining kundan...

Bo‘lislar bilan biylarni hurmat qilay desam, shu kunlarda elda Xudo yarlaqagan bo‘lis ham, biy ham yo‘q. Sotib, bosh urib, yalinib olgan bo‘lislik bilan biylikda esa xosiyat bo‘ladimi?

Zo‘ravonlarni hurmat qilay, qadrlay desam, yomonlikka kelganda – elning bari zo‘ravon, yaxshilikka kelganda-chi – eldan bironta ham zo‘ravon topolmaysan kishi.

Aql-u hushi joyida, adolatli, or-nomusli, insofli kishilarni topib qadrlay desam – bunday kishilarni kunduzi chiroq yoqib ham topib bo‘lmaydi. Quvlik, shumlik, haromlik, in-

¹ Bu yerda amaldor ma’nosida.

sofsizlik, amalparstlikka kelganda-chi – odamlarning hammasi esli bo‘lib ketadi.

G‘arib-u notavonlarning boshini silab, izzat qilay desam, u ham elda kamdan-kam. Yotgan tuyani-ki eplab mina olmaganidan keyin nima keragi bor bunday mo‘minlikning? Agar, endi, eplab mina oladigan bo‘lsa bunday g‘arib eplab g‘ayirlik ham qila oladi.

Endi quvlar bilan shumlar qoldi. Hammaga ayonki: bunday odamlar birovlarni aldamasa, birovlarga shumlik qilmasa tura olmaydi. O‘zlari birovlardan aldanmasa, bo‘ldi.

Xo‘sh, endi kimni yaxshi ko‘ray, kimning manfaatini o‘ylab, tilagini tilay? Chunki bundan boshqa iloj yoq, albat-ta! Bas, shunday ekan, «Qul o‘lmas, rizqi kamimas» deganlaridek, o‘zining o‘lmas tirikchiligini qilib, kosasi oqarmagan, egni yolchib kiyim ko‘rmagan, o‘g‘ri-muttahamlarga, zolimlar va quvlarga yem bo‘lib, xor-zor bo‘lib yurgan chin ma‘nodagi mo‘minlarning manfaatini ko‘zlamay ilojim yo‘q. Shundan boshqa chora topa olmadim.

YIGIRMA UCHINCHI SO‘Z

Bizning qozoqlarni o‘nglatmay yurgan quvonch, yu-panch degan narsalar bor. Ular el ichida bir yomonni ko‘rishsa, yoki o‘zi qilmagan qiliqni qilayotgan boshqa birovni ko‘rishsa – o‘lgudek quvonadi va: «Xudoyim bizni falonchiday bo‘lishdan saqlasin! Shu ham o‘zini dunyoda odamman deb bosh ko‘tarib yuribdi-da. Unga qaraganda bizlar obro‘limiz-ku, unga qaraganda bizlar odammiz-ku?» deyishadi. Unga Tangri taolo aytibdimiki: «Sen ishqilib falonchidan tuzuk bo‘lsang bo‘lgani» deb? Yo bilimdonlar aytibdimiki: «Agar sendan ham yomon kishilar topilsa, sen u yomonlarning qatoriga kirmaysan» deb? Nahotki yaxshi turganda, yomondan ibrat olinsa? Ibratni yaxshidan olgan ma‘qul-ku, axir!

Masalan, deylik: yuz ot poygaga qo‘shilsa-yu, bir ot g‘olib bo‘lsa, o‘sha poygada o‘zib chiqqan kishidan: ol- dingda necha ot bor edi, deb so‘raydilar-ku! Orqangda necha ot bor edi, deb so‘rashning nima qizig‘i bor? Men besh otdan, yo o‘n otdan ilgari edim, degan so‘zning nimasi quvonch?

Yana ular: «Yolg‘iz menmi, el-yurtning hammasi shunday qilib yuribdi-ku!» – deydi. «Ko‘pga kelgan to‘y, ko‘p nima bo‘lsa, biz ham shu-da» degan so‘zlarni o‘zlariga yupanch qilishadi. Nahot unga Olloh taolo: «Ishqilib ko‘pchilikdan qolmasang bas, ko‘pchilikka qahrim yo‘q, ko‘pchilikni tizgin- lab olishim qiyin» deb aytgan bo‘lsa? Axir hamma birdek ilmi bo‘lmaydi-ku? Yoki u bir odamdangina tarqa-libdimi? Ilm-hunar ko‘pchilikdan tarqaladimi? Yoki bir odamdanmi? Ko‘pchilik ozor chekmaydimi? Masalan, butun boshli oilan- ing hammasi kasal bo‘lib yotib qolgani yengil kechadimi, yoki yarmimi? Nahotki ko‘pchilik yo‘l bilmay adashib qolganda, yo‘l biladigan bir odamning keragi yo‘q bo‘lsa? Yoki ko‘p yo‘lovchining oti horigani yaxshimi, yo yarmisining? Agar yut kelsa, el-u yurtning hammasi yutagani, yo yarmisi yutab, yarmisi omon qolgani yaxshimi?.. Xo‘sh, mana shu ko‘p ahmoqning bir ahmoqqa nimasi yupanch?

Urug‘-aymog‘imiz bilan o‘zi hammamizning og‘zimiz shunaqa sassiq, deb vaj qilgan yomon kuyov qayerda qaylig‘ini tinchita olibdi ekan shunchalik? Yoki qaysi be- chora qayliq hech zamonda: bo‘lmasa sen ham o‘shalarga o‘xshab og‘zingni sasitib yuraver, deb rozilik beribdi?

YIGIRMA TO‘RTINCHI SO‘Z

Dunyoda ikki ming milliondan ortiq xalq bor. Jumladan, ikki million qozoqlar. Bizning qozoqlarning do‘stligi, dushmanligi, maqtanchoqligi, zo‘rligi, mol topishi, hunar o‘rganishi, el- yurt tanishi dunyoda hech bir xalqnikiga o‘xshamaydi. Biz

doimo bir-birimiz bilan yovlashib, bir-birimizning molimizni o'g'irlab, bir-birimizning qilmish-qidirmishlarimizni kiprik qoqmay poylaganimiz-poylagan. Dunyoda uch milliondan ortiq xalqi bor shaharlar ham bor. Dunyoni uch marta aylanib chiqqan sayyohlar-ku to'lib yotibdi. Shunday qilib, nahot biz o'la-o'lgunimizcha yer yuzidagi barcha xalqlar o'rtasida eng tubani bo'lib, bir-birimiz bilan dovlashib, yovlashib, poylashib o'tamiz? Bizlar ham o'g'rilik, muttahamlikni bas qilib, odam bo'lib, yer ko'rib, el ko'rib, mol-dunyoni halollik bilan orttirib, tinch-totuv kun kechiradigan zamon kelarmikan? Qaydam?.. Yuz molga ikki yuz odam ko'z tikib yurgan bir kezda bir-birlarini quritmay yo o'zi qurimay tinch turolarmikin?

YIGIRMA BESHINCHI SO'Z

Bolalarimizni o'qitish kerak, ammo turkiyni taniydigan, qo'lidan bir ish keladigan, kiroyi o'qigandan keyin, rosmana odam bo'ladigan darajada o'qitish kerak. Ammo lekin bu joylar dorul xarobdir. Buning uchun o'qiydigan bola bechora, avvalo, mol-dunyo topishi va shundan so'nggina arab, fors tillari bilan shug'ullanishi mumkin. Qorni och kishining boshida aql, ko'kragida ilmga ishtiyoq bo'ladi, deysizmi? Yeb-ichishga mol-dunyo bo'lmasa, oshnaog'aynining o'rtasiga nizo tushadi – ular har turli balolarga: o'g'irlikka, zo'rlikka, quvlikka, shumlikka duch keladi. Mol topsa – qorni to'yadi. Shundan keyingina ilm-hunarga ehtiyoj tug'iladi. Qorni to'q bo'lsagina, ilm o'rganayin, yo esa o'g'il-qizimga o'rgatayin, deb sa'y-harakat qiladi. Ruslarning ilmini o'rganish, o'qish kerak. Hikmat ham, ilm-hunar ham, bilim ham, mol ham – hammasi ruslarda. Ularning zararidan nari, foydasiga sherik bo'lish uchun ham tilini, ilmini, bilimini o'rganishimiz kerak. Chunki ular dunyoning tilini biladi. Sen ularning tilini bilsang, qalb ko'zing ochiladi. Ularning tilini, ilmini bilgan kishi ruslar bilan teng huquqlilik da'vosini qila oladi, ularning oldida obro'sini

to'kib yalinmaydi. Til bilmagan nodon qanday qilib ularga yaxshi ko'rinsam ekan, deb kim yelkasiga qoqib qo'ysa – shunga ota-onasini ham, oshna-og'aynisini ham, el-yurtini ham, dinini ham, odamgarchiligini ham sotadi. Faqat rus mayori kulsa bas, deb o'zining obro'si ketganiga ham parvo qilmaydi. Ruslarning ilm-hunarini egallash – dunyoni bilishning kalitidir, uni bilgan odamga dunyo arzonroq tushadi. Biroq shu kunlarda bolasiga ruscha o'rgatgan odamlar o'g'lining ilmi bilan tag'in ham qozoqlarni aldash payiga tushishgan. Yo'q, aslo bunday yomon niyat qilish kerak emas. Balki aksincha, mol-dunyoni halollik bilan topishni o'rgatishimiz va boshqalar ham bizdan shunday ibrat olsin, deyishimiz kerak. Ana shundagina biz ruslarning ba'zi bir qonunsiz zo'rliklariga yo'l qo'ymagan bo'lur edik. Ilm o'rganganda ham qozoqlarga g'amxo'r bo'lay deb, bizlar ham el-u yurt bo'lib, odamlardek tinch-totuv yashaylik, deb niyat qilib o'rganish kerak. Hozircha, ruscha o'qigan qozoq bolalari orasidan tuzukroq chiqqanlari kam. Chunki ularni ota-onalari, oshna-og'aynilari yo'ldan urmoqdalar. Lekin shunday bo'lsa ham ular anov o'qimagan qozoq bolalariga qaraganda ancha durust, har holda ularga gap uqtirsa bo'ladi. O'ziga tuzuk, boy-badavlat oilalar-ning bolalari ko'p o'qishmaydi. Aksincha, gado bolalarini xor qilib, ruslar qo'liga topshirib qo'yishdi. Ular bundan boshqa qayerga ham borsin endi? Bundan tashqari, ba'zi bir qozoqlar oshna-og'aynilari bilan arazlashib qolsa: «Sening zardangga chidab yurguncha, bolamni soldatlikka berib, boshimga soch, labimga mo'y qo'yib ketmasammi!» deyishar edi. Mana shunday bema'ni gaplarni Xudodan qo'rqmay, bandasidan uyalmay gapiradigan qozoqlarning bolalari o'qib kim bo'lardi, deysiz? Biror narsani ortiqroq o'rganib qoyil qilar deysizmi? O'rganganda ham hammasi yuzaki o'rganadi, qunt qilib o'qiydigan qozoq bolasi yo'q hozircha. Ota-onasi o'g'lini xalq

puliga zo'rg'a o'qitadi-yu, o'z yonidan pul sarf qilib bo'пти! Rostini aytsam, o'g'lingga xotin olib berma, enchisini berma, balki butun mol-dunyoingni sarf qilib bo'lsa ham, ruslarning ilmini o'qit! Mening bu aytgan gaplarim, ko'rsatgan yo'lim – mol ayaydigan gaplar emas! Xudodan qo'rq, bandasidan uyal, bolam odam bo'lsin desang – o'qit! Ammo hech mol-dunyoingni ayama! Bo'lmasa u ham bir nodon qozoq bo'lib qolgandan so'ng – na senga, na o'ziga va na xalqqa karomat ko'rsatadi.

YIGIRMA OLTINCHI SO'Z

Bizning qozoqlar poygaga qo'shgan oti oldinda kelsa, kurashga tushirgan polvoni yiqitsa, uchirgan qushi ilvasin tutsa, tozisi o'zganing itidan ildamroq ov qilsa yer-ko'kka sig'may quvonishadi. Bilmadim, bundan o'zga ham quvonchi bormi ekan ularning? Qaydam, yo'q bo'lsa kerak! Aytingchi, shu hayvondan u hayvonning o'zgani, yo esa bir odam ikkinchi odamni kurashda yiqitganining nima qizig'i bor? Holbuki, yiqitgan ham, yiqilgan ham, olgan-oldirgan ham – uning na aka-ukasi-yu va na qarindosh-urug'i bo'ladi... Bu narsalarning hammasi qozoqlarning o'z-o'zlari bilan dushmanligi, tugmaday narsani tuyaday qilib ko'rsatib, bir-birlari ustidan mazax qilib kulishdan, ularni izza qilishdan boshqa narsa emas. Birovni izza qilish esa harom, turmushga tushov, aqlga sig'maydigan narsadir. Shunday ekan, hayronman, birovni izza qilmoqning nimasi davlat-u, uning nimasiga quvonishar ekan-a? Yo bo'lmasa mag'lub bo'lgan tomon nimasiga shuncha izza bo'lib, qora yerga kirib ketgudek bo'lib qolarkin-a?

Chopqir ot ba'zan u elda, ba'zan bu elda bo'laveradigan narsa. Shuningdek, uchqur qiron ham, yugurik ov iti ham

ba'zan u odamning qo'lida, ba'zan bu odamning qo'lida bo'ladi. Kuchli yigit ham doimo bir eldan chiqaveradi, deb o'ylaysizmi? Bunday yigitlar ham ba'zan u elda, ba'zan bu elda tug'iladi. Bularning hammasini odam o'z erki bilan yasamaydi. Bir marta poygada o'zib chiqqan ot, yiqitgan yigit doimo shunday bo'lib qolavermaydi-ku, axir. Endi shularni bilib tursa ham, bu odamlar go'yo bir aybi ochilib qolganday, nimasiga shuncha uyalishar, izza bo'lishar ekan-a?

Endi siz bu gaplardan shunday xulosa chiqarib olsangiz bo'ladi: quvonmas narsalarga nodon odamlar quvonishadi, yana quvonishganda ham bosar-tusarini, nima aytib, nima qo'yganini o'zlari ham bilmay, aqlidan ozib, mag'rurlanib ketishadi. Yana bunday odamlar uyalmasligi kerak bo'lgan narsadan uyalishib, uyalishi lozim bo'lgan narsadan uyalishmaydi. Bularning bari nodonlik va ahmoqlikning ta'siridir, albatta. Sen ularga bu gaplarni aytsang, ba'zilari bo'ynini egib, «rost, rost» deb gap uqishgan bo'lishadi. Biroq sen bunga inonma. Erta-indin u ham haligi gap uqmaslarning biri bo'lib ketadi. Garchand shu gaplarning rost ekanligiga ko'zi yetib, ko'ngli ishonib tursa ham, xuddi hayvonga o'xshab, avvalgi tushunchasidan o'zini to'xtatolmaydi va hech kim unga gap uqtirolmaydi. Qozoq, qanday bo'lmasin, yomon ishni bir kasb etdimi, u bu odatidan yo o'larday qo'rqqanda, yo bo'lmasa o'lganda qaytadi. Bo'lmasa, o'z aqli bilan mening bu ishim chakki ekan, deb o'z bilgicha qaytgan qozoqni topish juda qiyin.

YIGIRMA YETTINCHI SO'Z

(Suqrot faylasufdan)

Bu Suqrotning Olloh taborak va taoloning bandalariga yuborgan amr-u farmonlariga so'zsiz bo'ysunmoq yuzasidan shogirdi Arastuga aytgan so'zi. U Xudoga ban-

dachilik qilguvchilar ustidan kulguvchi edi. Bir kuni Suqrot undan shunday deb so‘rabdi:

– Ey, Arastu, dunyoda hech bir odam bormiki, u o‘z hunari va qilgan ishlari bilan tahsinga sazovor bo‘lsin?

– To‘lib yotibdi bunday odamlar, hazratim, – deb javob beribdi Arastu.

– Qani bo‘lmasa, shulardan bittasining otini ayt-chi? – deb so‘rabdi yana Suqrot undan.

– Gomerning shoirligiga, Sofoklning fojiasiga, Zevsning rassomligiga tahsinlar o‘qisang arziydi, – debdi Arastu va yana shunga o‘xshagan bir nechta hunari bilan olamga mashhur bo‘lgan kishilarni aytibdi.

– Unday bo‘lsa sen kimga ko‘proq tahsin o‘qiysan: jon-siz, aqli-hushsiz, quruq tananing shaklini chizadigan rassomgami, yo esa odamga ham jon, ham aql-idrok ato qilib Yaratguvchi Oliy Ruhgami?

– Men keyingisiga ko‘proq tahsin o‘qiyman, – debdi Arastu, – biroq, u shunchaki yaratmay, avvalo, azaldan bilib, so‘ng yaratgan bo‘lsa.

– Buning ma‘qul. Endi senga yana bir savol. Dunyoda foydali narsa ko‘p: birining foydasi oshkora ko‘rinib, bilinib turadi, ikkinchisniki esa – bilinmaydi. Shularning qaysi birini hikmat deb bilasan? – deb so‘rabdi Suqrot.

– Albatta oshkora manfaat keltirganini, – deb javob beribdi shogirdi.

– Barakalla, agar unday bo‘lsa, Parvardigori Olam bandasini yaratganda ko‘p o‘ylab, unga to‘rt mucha ato qilgan, lekin bularning qaysi biri foyda, qaysi biri zarar keltirishidan ko‘ra ko‘proq ularning zarurligini o‘ylab ato qilgani – bu hammaga ma‘lum va mashhur-ku. Mana, masalan, ko‘rsin deb avvalo ko‘z beribdi. Bordi-yu, ko‘zimiz yo‘q bo‘lsa, unda biz dunyoning go‘zalligidan qanday qilib lazzatlanardik? Yana bir muchamiz g‘oyat nozik bo‘lganligidan, vaqtida ochib, vaqtida yopib tursin uchun qovoq ato qilibdi. Changto‘zondan saqlasin uchun kiprik, peshona terini ko‘zga tu-

shirmaslik uchun qosh beribdi. Qulog‘imiz bo‘lmasa taqir-tuqur tovushni qanday qilib eshitar edik, qanday qilib musiqaning go‘zalligidan bahra olardik? Bordi-yu, burnimiz bo‘lmasa – biz dunyodagi xushbo‘y, muattar hidlarga oshiq bo‘la olmagan va yomon hidlarni farq qila olmagan bo‘lur edik. Og‘zimiz, tilimiz va tanglayimiz bo‘lmasa – biz dunyoda nima shirin, nima achchiqligini qayoqdan bilardik? Buning ustiga, ko‘zni, burunni og‘izga yaqin qilib yaratib, yeydigan-ichadigan narsalarni ko‘rib-bilib, hidlab, yesin-ichsin, dedi... Bularning hammasi bizlarning foydamiz emasmi? – debdi Suqrot.

Shunda Arastu o‘ylab-o‘ylab yaratguvchining benihoya hikmat egasi ekanligidan shubhasi qolmabdi.

Suqrot so‘zida davom etibdi:

– Buning ustiga: hamma maxluqlarning o‘z bolalariga mehribon, o‘limni yomon ko‘radigan, hayotni, tirikchilikni sevadigan, o‘sib-unishdan boshqa narsani kam fikr qiladigan qilib yaratganligi – bu uning marhamati emasmi? Shuning bilan birga, ularni yaratganda ko‘ngillariga muhabbat solganining o‘zi ham yaratguvchining yaratgan narsalariga nisbatan mehri-muhabbatining nishonasi emasmi?

Suqrot so‘zida yana davom etibdi:

– Ey, Arastu! Sen nima uchun odamdan boshqa narsada aql yo‘q deb o‘ylaysan? Odamning tanasi shu o‘zing yurgan yerning bir parchasiga o‘xshamaydimi? Tanangdagi ter, bug‘lar yerdagi suvlarning bir tomchisi kabi emasmi? Xo‘sh, o‘zing bu aqlga qayoqdan ega bo‘lding? Kim senga jon ato qildi, yoki sen uni qayerdan olding? Olamni ko‘zing bilan ko‘rasan, lekin uning o‘lchoviga aqling bovar qilmaydi, go‘zalligiga qarab to‘ymaysan. Bu ko‘rinishlarning bari-ga hayron qolasan, aqling yetmaydi. Xo‘sh, bularning bari-seningcha go‘yo bir tasodifmi, yo Yaratganning buyuk aql egasi ekanligiga dalilmi? Agar bu aql bilan bo‘lmaganda, dunyo bunday o‘lchovga aql bovar qilmaydigan darajada

bir-biriga bog‘liq qilib yaratilmagan bo‘lur edi. Binobarin, bularning barchasi tafakkur bilan yaratilgandir va o‘ziga yarasha mustahkam qonun-qoidasi bordir.

Shunda Arastu Suqrotga:

– Hazratim, bularning hammasi rost, ya’ni Yaratguvchining benihoya buyuk qudrat egasi ekanligi ma’lum bo‘ldi va shaxsan Xudoning ulug‘ligiga shubham qolmadi, – deb javob beribdi va yana: – biroq shunday ulug‘ Tangri taolo nahot mening bandachiligimga shu qadar muhtoj bo‘lsa? – deb so‘rabdi Suqrot dan.

Suqrot aytibdi:

– Ey, Arastu! Sen noto‘g‘ri aytyapsan. Muhtoj bo‘lmaganda ham birov sening g‘amingni yesa, sen unga qarzdor bo‘lasanmi yo yo‘q?

– U mening g‘amimni yeydimi yo yo‘q, men buni qayoqdan bilaman? – debdi Arastu.

– Xo‘p, unday bo‘lsa, sen hamma maxluqlarga bir qara, keyin o‘zingga ham qara, Yaratgan Egam hammaga birdek jon ato qilgan-u, biroq hammaga ham barovar ong, tushuncha ato qilmagan, axir? Odam shu kunini, o‘tmishi bilan kelajagini ham his qila oladi, ko‘ra oladi, uchilasi haqida birdek fikr qila oladi, tekshira oladi. Hayvon esa o‘tmishini ham, hozirgi kunini ham yaxshi bilmaydi va kelajakda nima bo‘lishini va nima qo‘yishini o‘ylashga, his qilishga qodir ham emas. Endi hayvonga bergan tanani qara-yu, bandasiga bergan tanani qara. Odam – ikki oyog‘i ustida tik yurishga, tik o‘shishga, dunyoni ko‘rishga va uning sir-u asrorlarini sinchiklab tekshirishga hamda o‘zga hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishga qodir. Hayvon esa oyoqlariga, qush bo‘lsa qanotlariga ishonib o‘ziga o‘xshagan boshqa bir hayvon yo parrandani qo‘llab-quvvatlashga va foydalanishga qodir emas. Agar odamni shunday hayvonsifat qilib yaratsa, unda u hech narsaga yaramagan bo‘lur edi, yo bo‘lmasa, hayvonlarga sulton bo‘lard.

Agar, bordi-yu, inson aqlini hayvonga bersa-chi, bari-bir u bu qadar ustalik va donishmandlik bilan bir-biriga ilm-hunar o'rgatar darajadagi salohiyat uning gavdasiga mutlaqo mos tushmagan bo'lur edi. Masalan, qaysi ho'kiz shahar quribdi, qurol-yarog' ishlab chiqaribdi va sipohilikning uddasidan chiqibdi ekan shunchalik? Odam bolasiga shunday go'zal jism berib, uni ajoyib aql va tengsiz salohiyat egasi qilib yaratishining hamda uning barcha o'zga maxluqlar ustidan hukmron qilishining o'zi ham – Xudoning insonga bo'lgan katta marhamati emasmi? Shunday ekan, bu gaplar Olloh taolo bandasini barcha yaratgan mo'jizalaridan ortiq ko'rib, oldindan uning g'amini yeb, unga ko'proq g'mxo'rlik qilganidan dalolat bermaydimi? Xo'sh, endi odam bolasining Yaratgan oldida bandachilik qilmoqqa qarzdor ekanligi shundan ham ma'lum emasmi? – debdi Suqrot.

YIRIGMA SAKKIZINCHI SO'Z

Ey, musulmonlar! Birov boy bo'lsa, birov gadoy; birov sog' bo'lsa, birov kasal; birov aqlli bo'lsa, birov ahmoq; birovning ko'ngli yaxshilikka moyil bo'lsa, birovning ko'ngli yomonlikka moyildir.

Birov sizdan: «Xo'p, nima uchun shunday?» deb so'rasa, sizlar unga: «Taqdiri azalda Olloh taoloning yaratgan ishid» deb javob berasizlar. Xo'sh, unday bo'lsa, biz Olloh taoloning aybi yo'q, odil, deb imon keltirmaganmidik? Endi, ko'rib turibmizki, Tangri taolo qasam urgan, mehnat qilmaydigan bandalariga mol-dunyo berar ekan-da, Xudodan mol-dunyo so'rab, kecha-yu kunduz mehnat qiladigan bechoralarga esa, aqalli amal-taqal qilib xotin, bola-chaqasini boqishga yetgudek rizq ham bermay, ularni gado qilarkan. Ba'zi bir o'g'ri-muttahamlarni soppa-sog-u', birovga zararsiz mehnatkash mo'minlarni nogiron qilib qo'yarkan. Bir ota-onaning bolalarini birini esli, ikkinchisini tentak qilib

yaratarkan. Qodir Olloh o‘zi bandalariga: «Buzuq bo‘lma, tuzuk bo‘l! Tuzukni jannatga, buzuqni do‘zaxga solaman!» deb aytar ekan-u, tag‘in bandalarining birini yaxshilikka, ikkinchisini yomonlikka moyil qilib yaratib, yana ularni o‘z qudrati bilan birini yaxshilikka, birini yomonlikka undab, yo‘lga solib turarkan. Xo‘sh, mana shu gaplarning hammasi mehribon-mushfiq, rahm-shafqatli, adolatli, aybsiz Parvardigorning sha‘niga to‘g‘ri kelarmikin? Xalq ham, mulk ham – hammasi Xudoniki. Uning qilayotgan ishlariga biron narsa deya olamizmi? O‘z mulkini o‘zi nima qilaman desa qilaveradi, ixtiyori, deymiz. Bordi-yu endi, u aybdor emas desak, bu – Olloh taoloning aybi ko‘p-u, biroq uni aybdor deb ayta olmaymiz, deganimiz emasmi? Shunday bo‘lgandan so‘ng, bandasi ming harakat qilgani bilan qo‘lidan nima kelardi deysiz? Hamma narsani tartibga solguvchi Olloh taoloning o‘zi ekan, bandalarining nimasidan o‘pkalaymiz? Kimdir yaxshilik, kimi yomonlik qilsa ham, Xudoning buyrug‘ini bajargan ekan deymizmi?

Ollo taolo: har bir aql-u hushi joyida bor kishiga – iymon keltirish farz, har bir iymonli kishiga esa – toat-ibodat qilish farz, degan ekan. Holbuki, ba‘zi bir ishlar aql bilan hisoblashmay qilinadi. Xo‘sh, endi, agar shunday ekan, Olloh taoloning, aqli solim kishiga iymon keltirish farz, degan so‘zi qayoqda qoldi? «Meni faqat tafakkur bilangina tanish mumkin» degan so‘z qiymatini kim o‘lchay oladi? Dinimizda yashirin, yolg‘on so‘z yo‘q bo‘lsa, u haqda odam fikr yuritishdan mahrum bo‘lsa, bandaning bandaligidan ne foyda? Aqlimizni yurita olmaganimizdan so‘ng, dinning o‘zi qayoqda qoladi? Avvalo, iymonni mustahkamlamay turib, qilgan toat-ibodatlarimiz qabul bo‘larmikin? Yo‘q, yaxshilik bilan yomonlik Yaratgandan emas. Kasallikni vujudga keltirgan ham O‘zi, lekin seni kasallikka duchor qilgan Xudo emas, boylik bilan kambag‘allikni barpo qilgan ham O‘zi bo‘lsa-yu, biroq birov boy, birov kambag‘al. Buni tafakkur qilish kerak, xolos!

YIGIRMA TO‘QQIZINCHI SO‘Z

Biz, qozoqlar aytib yurgan maqollarning yaroqlisi ham, yaroqsizi ham bor. Ba’zilari, hatto, na musulmonchilikka va na odamgarchilikka to‘g‘ri keladi.

Avvalo: «Faqir bo‘lsang – orsiz bo‘l!» deyishadi. Ordan ayrilib tirik yurgandan ko‘ra o‘lgan afzal. Agar bu: yollanib yurganingda joningni qiynasang ham, mol top degani bo‘lsa – bu orsizlik emas. Balki aksincha, birovlarning qo‘liga termulmay, halol mehnat qilib mol topmoq – bu orli, nomusli odamning ishi.

«Qalovini topsang, qor yonar», «So‘rovini topsang, odam bolasining bermaydigan narsasi yo‘q» deyishadi. Bular betiyiq gaplardandir. Qalovini, so‘rovini topaman, deb esiz umringni xor qilib o‘tkazguncha, mol-dunyoni yo yerdan, yo peshona teridan so‘rash kerak.

«Noming chiqmasa, yer o‘rta!» deyishadi. Yer o‘rtab nom chiqarishning nimasi qiziq? Yoki: «Yuz kun qari tuya bo‘lguncha, bir kun buvra bo‘l» deyishadi. Tangriga yozib, minmay-netmay, birovga nafi tegmay, bir kun buvra bo‘lishlikdan nima foyda?

«Oltin ko‘rsa farishta ham yo‘ldan ozadi» deyishadi. Sadqai farishta ketgurlar-ey! Farishta oltinni nima qilsin? Bu shunchaki o‘z shum niyatlarini ma‘qullamoqchi bo‘lib aytguvchilar emasmi?

«Ota-onadan mol shirin, oltinli uydan jon shirin» deyishadi. Ota-onasidan ham molni shirin ko‘radigan bu qasam urgur ablahlarning qanaqa shirin joni bor ekan o‘zi? Axir, dunyoda eng mo‘tabar ota-onani mol-dunyoga almashtirish bu – eng orsiz, nomussiz odamning ishi emasmi! Ota-ona bechora qo‘ldan kelguncha mehnat qilib, mol-dunyo yig‘ib, mendan keyin bolalarimga qolsin, deydi. Shunday ekan, dunyoning o‘tkinchi ho-yu havasiga uchib ota-onadan kechish – Xudoga osiylik emasmi?

Mana shunday kaltabinlik bilan aytilgan so‘zlardan ehtiyoat bo‘lmoq kerak!

O‘TTIZINCHI SO‘Z

Bizda maqtanchoqlik degan yaramas odat bor. Aslida, shu narsaning nima keragi bor o‘zi? Zotan, bu – nomussizlik, nodonlik, beg‘amlilik, hamda na mardlik va na odamgarchilikning alomatidir? Tag‘in, bezrayib turib: «Ey, Xudo! Kimdan kim ortiq ekan shunchalik? Birovning nasibasini birov topib berarmidi hech? Kimsaning boshi kimning egari qoshida yuribdi... Birov mening qozonimni qaynatarmidi, yo men birovning qo‘liga qarab qolibmanmi?» deb keriladi. Ba‘zan esa dag‘dag‘a qilib: «Hammaga bir o‘lim!.. Voy onasini falon qilay! Bunday yurgandan ko‘ra o‘lganim ortiq! Juda nari borsa – haydab yuborar, otib yuborar! Qayerga borsam ham bir o‘lim!» deb kekirdagini cho‘zadiganlar ham yo‘q emas.

Mana, o‘zlarinigiz ko‘rib yuribsizlar: hozir hech bo‘yiga qarab to‘n bichadigan, aytgan gapida qat‘iy turadigan qozoq bormi dunyoda? Yo‘q, men hali na o‘limga bardosh bera oladigan qozoqni, na o‘limga bardosh bera olmayman, deb ochiq gapiradigan qozoqni ko‘rdim... Bordi-yu, aqlsiz bo‘lsa-da, shunday jur‘atli qozoq topilsa, u kishini hayratga solgan bo‘lur edi! Afsuski, yo‘q. Buning o‘rniga shundaylar borki, zo‘r kelganda sichqonning inini ming tanga qilib, qochib kirarga teshik topolmay qoladi. Xo‘sh, bunday kishilarni nima deb ataymiz? Ey, Xudo! O‘z joniga ortiqcha hotamtoylik qiladigan, mol-dunyoni pisand qilmaydigan bechoralarning ahvoliga qarang. «Betimning qattiqligi – jonimning huzuri» deb shuni aytishar ekanlar-da... Bunaqalar uyatsiz ham orsiz kishilarning biri-da.

O‘TTIZ BIRINCHI SO‘Z

Kishi eshitgan narsasini unutmazlik uchun to‘rtta shart bor: avvalo, buning uchun zehqli bo‘lmoq kerak; ikkinchi-

dan, bir narsani ko'rganda, yo eshitganda – unga chin yurakdan ixlos qo'yib, fahm-farosat bilan uqib olmoqlik lozim; uchinchidan, eshitganlarini ichida bir necha marta takrorlab, ko'ngilga jo qilmoq kerak; to'rtinchidan, ko'ngliga boshqa narsalarni mutlaqo keltirmaslik va kelsa ham unga zarracha e'tibor bermaslik kerak. Masalan: beg'amlik, beparvolik, o'yin-kulgi yoki ixlos qo'ymaslik kabilar. Aks holda, bu to'rt narsa aql bilan ilmga putur yetkazadigan omillardir.

O'TTIZ IKKINCHI SO'Z

Ilm o'rganishni talab qilgan kishi, avvalo, uni bilishi kerak. Buning bir necha shartlari bor. Bularni bilmay turib o'rganilgan ilm yuqmaydi.

Avvalo, o'rganilayotgan ilm-u hunarini oxir bir kun kelib biron kori holimga yarab qolar, deb o'rganmasdan, hayotda uni turmushga tatbiq qilish maqsadida o'rganmoq kerak. Chunki ilmni faqat bilib qo'yish uchungina o'rgansang va shu bilan qanoat hosil qilsang, bunday ilmning kimga keragi bor? Kishi o'zining bilmagan narsasini bilib o'rgansa – bundan qanchalik huzur-halovat topishini asti qo'yavering! Agar sen ilmga astoydil mehr qo'yib o'tirsang, senda, yana ko'proq bilsam ekan, degan muhabbat paydo bo'ladi. Shundagina sen o'zing ko'rgan har bir narsani ko'nglingga mahkam tugib, uqib oladigan bo'lasan.

Agar bordi-yu, ko'ngling boshqa narsada bo'lib, o'qib o'rganayotgan ilmingni shunga sabab qilib ko'rsatsang, ya'ni uni ana shu ko'nglingdagi narsa uchungina o'rganayotgan bo'lsang, unda ilmga degan mehring go'yo o'gay onaning mehri kabi bo'ladi. Agarda chin dildan kirishgan bo'lsang, unda ilmga bergan mehring xuddi o'z onangning mehriday iliq va samimiy bo'ladi. Sen ilmga chindan ham ixlos qo'ysang, u ham senga mehr

qo'yadi va sen uni tezroq qo'lingga kiritasan. Agar sen unga chala mehr qo'ysang, o'rgangan ilming ham chalachulpa bo'ladi.

Ikkinchidan, ilmni o'rganganda yaxshi niyat bilan o'rganish kerak. Ammo birov bilan bahs boylashmoq, talashmoq uchun o'rganish kerak emas. Bahs, avvalo, ko'ngildagi ishonchni mustahkamlash uchun bo'lsa – bu zarar emas, lekin haddan oshib ketsa – kishini tuzatishdan ko'ra ham ko'proq buzib qo'yishi mumkin. Buning sababi: bahs qiluvchilar ko'proq haqiqatni aniqlash uchun emas, balki bir-birlarini yengmoq uchun harakat qilishadi. Bunday bahs xusumatni kuchaytirib, odamgarchilikni yo'qotishgacha olib boradi. Bunday holda asosiy maqsad ilm o'rganish bo'lmay, odamning yuzini yolg'on so'zga buradigan bo'lib qoladi. Bunday maqsad faqat buzuq kishilardagina bo'ladi. Bahs – bu ham aslida ilm o'rganishning bir yo'li. Biroq unga ortiqcha hirs qo'yish yaramaydi. Chunki bahsga ortiqcha hirs qo'yishdan mag'rurlik, maqtanchoqlik, xusumat, yolg'onchilik, hatto arzimagan narsadan janjal chiqarish va birovga musht ko'tarish kabi yomon fazilatlar tug'iladi.

Uchinchidan, agar har bir harakating tufayli haqiqatga erisha oladigan bo'lsang, o'lsang ham bu yo'ldan qaytma, mahkam tur! Axir, o'zing shubha qilgan narsaga o'zgalar qanday qilib ishonch bildirsin? O'zing hurmat qilmagan narsani o'zgalar nega hurmat qilsin?

To'rtinchidan, ilmni ko'proq o'rganish uchun odamda yana ikki narsa bo'lishi lozim: biri – mulohaza yuritish, ikkinchisi esa muhofaza qilishlikdir. Bu ikki xususiyatni borgan sari kuchaytira borish kerak. Bu narsa kuchaymay turib ilm o'rganish qiyin.

Beshinchidan, shu nasihatlarining o'n to'qqizinchi so'zida yozilgan aql kasali degan to'rt narsa bor, shundan ehtiyot bo'lish kerak. Shularning orasida beg'amlik, be-

parvolik, degan narsa bor, zinhor-bazinhor shu narsadan ehtiyot bo'! Chunki, bu, birinchidan – Xudoning, ikkinchidan – xalqning, uchinchidan – davlatning, to'rtinchidan – ibratning, beshinchidan – aql, or-nomusning dushmanidir; or-nomus bo'lgan yerda bular bo'lmaydi.

Oltinchidan, senda ilmni, aqlni bir me'yorda saqlaydigan fe'l-atvor, xulq degan narsa bor. Sen shu narsani ehtiyot saqla! Ko'rgan narsangga qiziqaversang: yo birovning o'rinli, yo birovning o'rinsiz gapiga ishonib ketsang, yoki to'g'ri kelgan narsalarga ko'ngil qo'yaversang – fe'l-atvoringning buzulib ketishi hech gap emas. Fe'l-atvoring buzulganidan keyin esa o'qib ilm o'rganganingdan hech foyda yo'q. Ko'kragingda unga o'rin bo'lmagandan keyin, uni qayerda saqlaysan? Aksincha, kiroyi ilming bo'lgandan keyin, uni ehtiyot qiladigan fahm-farosating, aql-hushing, or-nomusingni qo'ldan bermaydigan fe'l-atvoring va g'ayrating bo'lsa – nur ustiga nur! Lekin bu ehtiyotkorliging, shubhasiz, aql uchun, or-nomus uchun qilingan bo'lsin!

O'TTIZ UCHINCHI SO'Z

Agarda senga mol-dunyo kerak bo'lsa hunar o'rgan. Mol-dunyo qo'lning kiri, yuvsu ketadi. Ammo hunar esa – ado bo'lmas boylikdir. Kimki yolg'on gapirma va qo'lida halol hunari bo'lsa qozoqlarning ichidagi eng avliyosi shu! Biroq Olloh taolo qozoqlarning qo'liga oz-moz hunar bersa – ular bosar-tusar joylarini bilmay qolishadi.

Avvalo, malakamni oshiray, ishlarimni yaxshilay, izlay, ko'ray, hunar o'rganay, demaydi. Egallagan ozgina hunari bilan maqtanib: «Shu ham bo'laveradi» deb qozoqlarda mavjud e'tiborsizlikka yuz burib ketadi.

Ikkinchidan, erinmay mehnat qilmoq kerak. Holbuki, bizning qozoqlar bir-ikki tanga pul topsa shu bilan xuddi mol-dunyoga g'arq bo'lib ketayotgan kishidek xotirjamlikka berilib, yalqov bo'lib qoladi.

Uchinchidan, bittasi boshqasiga: «Sen kasbdoshlaring ichida yakka-yu yagonasisan», yo boʻlmasa: «Aka, sizdan nima ketadi, mana bu narsamni qilib bersangiz-chi?» desa, u: «Menga ham odamlar yalinadigan boʻlib qolibdi-ku» deb kibrlana boshlaydi va shu bilan ham oʻzini, ham unga murojaat qilgan odamni aldab, oltindan qimmat vaqtining qanday oʻtganini ham bilmay qoladi.

Toʻrtinchidan, doʻstingman degan odamlarga hotamtoy boʻlib ketadi. Baʼzi bir quv-shum odamlar: «doʻst boʻlamiz» deb arzimagan narsani berib, aldab: «Keyinchalik seni unday qilaman, bunday qilaman, mening sendan oʻzga aziz doʻstim yoʻq» desa, laqqa tushib, men ham kerakli odamlarning biri boʻlib qolibman-ku, deb oʻylyaydi. Keyin, kim «toʻrga chiq» desa – shunga aldanib, ana shu odamga qil deganini qilib, keragini topib beraman, yetmaganini yetkazaman, xushomad, doʻstlik qilaman, deb yurib, butun qimmatli vaqtidan, bisotidan ayriladi. Ovqat, usti-bosh topish esidan chiqib ketadi. Borib-borib, oxir bir kun, kun kechirmoq qiyinlashgach, birovdan qarz koʻtaradi va uni qilib beraman, buni qilib beraman, deb oʻlib-tirilib harakat qiladi-yu, baribir biron narsaning boshini qovushtirolmaydi. Keyinchalik borib, topgan-tutgani yegan-ichganiga yetmay, ishi dov-janjalga aylanib, sarson-sargardonlikka tushadi. Nihoyat, odamgarchilikdan chiqib, xor-zor boʻladi. Xoʻsh, bunisiga nima deysiz? Axir qozoqlarning oʻzi aldamchi boʻla turib, yana birovlarga aldangani nimasi?

OʻTTIZ TOʻRTINCHI SOʻZ

Oʻlimning haq ekanligini, uning qarilikni kutib yurmay, istagan mahalda kelishini, oʻlgan odam qayta dunyoga kelmasligini hamma biladi. Qozoqlar, shubhasiz, bunga ishonishadi, biroq oʻz aqli bilan mulohaza qilib koʻrib emas, balki aksincha, shunchaki, ishonish kerak boʻlganligi uchungina ishonishadi. Yana: Tangri taoloning borligiga,

uning oxiratda so‘roq qilishiga, yomonlarni yozg‘irib, yaxshilarni yorlaqashiga va bu mo‘jizalar bandasining qo‘lidan kelmasligiga hamda Rahimli Zotning mehri tushsa, istagancha shafqat qila olishiga va agar g‘azabi qo‘zg‘asa, behisob qiynoqlarga sola olishiga – hammasi-hammasiga ishonamiz, deyishadi. Yo‘q, men ularning ishonidik deganlariga sira ham ishonmayman. Agar ishonsalar ham, baribir bu narsalarning haqiqatligiga ko‘zlari yetib emas, hali biz yuqorida aytganimizdek, ishonish kerak bo‘lganligi uchungina ishonishadi. Agar ishonganliklari rost bo‘lsa, unda nima uchun vahimaga tushib, tashvish chekishadi? Nega mudom yaxshilik qilib, gunohga botmay, o‘zlarini o‘zlari ehtiyot qilishmaydi? Agar ular Xudoning borligiga va uning mehrshafqati bilan birga g‘azabi ham mavjudligiga ishonadigan bo‘lsa, unda biz ularni yana nimaga ishontirishimiz kerak? Yoki qanday qilib ularni tuzata olamiz? Qaysi yo‘l bilan ularni mo‘min-musulmon, iymoni salomat deymiz?

Agar kimda-kim ikki dunyoda xor bo‘lmay desa, mana bu gaplarni besh barmog‘iday bilib olishi kerak: hech qachon bir odamning ko‘ngliga ayni vaqtda ikki quvonch, ikki sevgi, shuningdek, ikki qo‘rqinch, ikki qayg‘u bir yo‘la sig‘maydi. Bir mahalda ikki narsaning ko‘ngilga sig‘ishi ham qiyin, to‘g‘rirog‘i – mutlaqo mumkin emas. Bordiyu, biror odamning ko‘nglidagi dunyoga bo‘lgan qayg‘usi quvonchidan ortiq bo‘lsa, u holda, bu odam musulmon emas. Mana endi o‘zingiz o‘ylab ko‘ring, bizning qozoqlar qanday musulmon qavmiga kirar ekan!! Masalan, deylik, mabodo bir odamning oldidan ikkita narsa chiqib qolsa-yu, ulardan biri oxirat uchun, ikkinchisi shu bugunimiz, ya‘ni bu dunyo uchun kerak bo‘lsa, buning ustiga, birini olgan kishi ikkinchisini olishga haqli bo‘lmasa, ko‘rinib turibdiki – bunday holda bizning qozoqlar oxiratga keraklisini emas, balki albatta ikkinchisini olgan bo‘lur edi. Chunki ular: oxiratga keraklisini yana bir kezi kelganda olarman, bu gal meni mehribon va rahimli Xudoning o‘zi kechirsin, deb

o‘ylaydi. Xo‘sh, endi, bir kun kelib, u bu dunyodan o‘tsa, uning: o‘zoxiratimnimol-dunyogasotganimyo‘q, deganigakim ishonadi?

Jamiki inson farzandi bir-biriga do‘stdir. Chunki dunyoda hayot ekansan, qavm-qarindoshliging, o‘sib-unishing, to‘q va farovonliging, och-yalang‘ochliging, qayg‘u-hasrating, istiqomat qilishing, bordi-kelding, dunyoga kelishing, tana bichimining, o‘lishing, qora yerga kirishing, chirishing, mahshar kuni so‘roq berishing – hammasi-hammasi birday: ikki dunyoda ham birday o‘ynab-kulasan, birday qayg‘u-hasrat chekasan, rohati, azobi, uqubati, xavf-xatarini birga tortasan. Bas, shunday ekan, besh kunlik umring bormi-yo‘qmi – bir-biringga g‘animatsan, qo‘noqsan va bu dunyoga omonat mehmonsan! Nega endi shundoq bo‘la turib bir-biring bilan arzimagan narsalar uchun g‘ijillashasan? Birovning bog‘-rog‘iga, mol-dunyosiga ko‘z olaytirasan? Nasibangni Xudodan tilamay, bandaning ulishidan olib ber deganing, o‘zing mehnat qilmay, birovning nasibasidan umid tutib o‘tirganing ma‘qulmi o‘zingga? Xudo birov uchun boshqasiga jabr qiladimi? Ikki og‘iz so‘zni eplashtirib gapira olmaydigan nodon, aqlsiz, ilmsiz bo‘la turib, har on: «Xudo ursin agar, meniki to‘g‘ri!» deb talashaverishdan nima foyda? Shu ham odamgarchilikmi endi!

O‘TTIZ BESHINCHI SO‘Z

Oллоh taolo mahshar kuni hojilar, mullalar, so‘filar, hotamtoylar va shahid o‘lganlarni qator turg‘izib qo‘yib so‘roq qilarmish. Bu dunyoda izzat-hurmatda bo‘lish uchungina hoji, mulla, so‘fi, hotam bo‘lganlarni va shu maqsadda shahid o‘lganlarni bir tomonga, oxiratda Oллоh taoloning marhamatiga sazovor bo‘lish uchungina yashaganlarni bir tomonga turg‘izib qo‘yarmish. Mol-dunyo, boyluk orttirish uchun yashaganlarga: «Sizlar u dunyoda hoji aka, mulla

aka, so‘fi aka, mirza aka, botir aka atalish uchungina shu yo‘lni tanladingiz. Endi bu dunyoda u narsalar yo‘q. Sizlarning u dunyolaring, surgan davri davronlaring, shu bilan birga, mansablaring ham tamom bo‘ldi. Endi bu yerda izzat-hurmat emas, so‘roq berasizlar! Men sizlarga mol-dunyo berdim, aziz umr berdim, nima uchun endi siz ana shu mol-dunyolaringizni, aziz umrlaringizni din yo‘li va oxirat u yoqda qolib, bandalarni aldamoq uchun sarf qildingiz?» – deb aytarmish. So‘ngra, halol niyatli, bir Xudodan boshqa narsani o‘ylamagan bandalariga: «Sizlar faqat mening mehr-u shafqatimga sazovor bo‘lish uchungina aziz umrlaringizni va mol-dunyolaringizni sarf qildingiz. Men sizlardan roziman. Sizlar uchun marhamatimni darig‘ tutmay, tayyorlab qo‘ygan joyim bor – marhamat qilg‘aysizlar. Bundan tashqari, bu yerdan – mahsharda, garchand o‘zlari yaxshilik qilmagan bo‘lsa ham, u dunyoda sizlarning qilgan oliyjanob ishlaringizga xayrixohlik bildirgan kishilarni uchratsangiz, marhamat, ularni ham o‘zlarinigiz bilan birga olib kiringlar va mehr-shafqat qilinglar!» – dermish.

O‘TTIZ OLTINCHI SO‘Z

Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallam o‘zlarining hadisi sharifida: «Min la hayoun vala imonun lahv» – degan ekan. Buning ma‘nisi: kimda uyat, or-nomus, hayo yo‘q bo‘lsa unda iymon ham yo‘q, demakdir. Bundan tashqari, bizning qozoqlarda: «Hayo kimda bo‘lsa – iymon ham shunda» – degan maqol ham bor. Bu hadisi sharifdagi: «Alhayoyi minal imon»ga to‘g‘ri keladi. Bas, shundan ma‘lum bo‘ldiki: uyat degan narsaning o‘zi iymonning bir bo‘lagi ekan. Unday bo‘lsa, uyat deganimiz nima o‘zi? Buni bilmoq kerak?

Bir uyat borki: ba‘zi odamlar xuddi yosh bolaga o‘xshab nodonlik qilib, oddiy gaplarni aytishga ham uyalib, tortinib turishadi. Vaholanki, uning aytolmay turgan gapida na sha-

riatga, na aqlga va na vijdonga zid gap bor. Bunday qilib hech uyati yo'q narsadan uyalish – nodonlikdir.

Chin ma'nodagi uyat esa – yo shariatga, yo aqlga teskari ish qilinsa va shu bilan kishi obro'siga dog' tu-shadigan bo'lsa, buni uyat desa bo'ladi. Bunday uyat ikki turli bo'ladi. Biri shuki: odam o'zi uyat bo'larlik ish qilmaydi-yu, birovning qilgan uyatli ishidan uyaladi. Buning sababi, ana shu uyatli ish qilgan odamga nisbatan achinganlikdan bo'ladi. Bunday paytda: «Yopiray, mana bu sho'rlikka nima bo'ldi, endi bu yog'i nima bo'larkin?» degan kabi achchiq tuyg'u halqumingga kelib tiqiladi. Ikkinchisi shuki: qilgan ishing ham shariatga, ham aqlga, ham obro'-e'tiborga zid bo'ladi; sen bunday ishni bilmasdan, yo g'aflat bosib, yo esa nafs balosida qilib qo'yasan. Mana buni chin ma'nodagi uyat desa bo'ladi. Ba'zan bunday qilmishingni boshqa kishi payqamasa ham, o'z aqling bilan topib, ich-ichingdan achinib, o'zingni-o'zing koyiysan. Uyalganingdan yer yorilmaydiki, yerga kirib ketsang; kishilarning yuziga to'g'ri qarayolmay-san, azob chekasan. Buning natijasida ba'zan uyatli kishilar uyqudan, ishtahadan qoladi, hatto chidayol-may o'zini-o'zi o'ldiradiganlar ham bo'ladi. Uyat – kishining or-nomusi, o'z yaramas fazilatlariga qarshi ichki isyonidir. Bunday paytda tilingga tuzukroq bir so'z, boshingga tuzukroq bir fikr kelmaydi. Hatto ko'zingning yoshi bilan burningdan oqqan suvni ham artolmay qolasan. Ko'zingga hech narsa ko'rinmaydi. Shunchalikka borib uyalgan, o'z aybiga o'zi iqror bo'lgan odamni, o'lganning ustiga chiqib tepgan, de-gandek, ta'na qilish – yaramas odat va bunday ishni odamgarchiligi yo'q kishilar qiladi.

Shu kunlarda mening ko'rib-bilib, muomala qilib yur-gan kishilarim uyalmoq tugul, hatto qizarishni ham bilmay-di. «Ha, xo'p, biz aybdor dedik-ku, bo'ldi-da endi» deydi yo

esa: «Xo‘p, xo‘p, bunga men uyatli bo‘la qolay, o‘zing-chi, o‘zing! O‘zing ham bir vaqt shunday qilmaganmiding?» deyishadi. Yo bo‘lmasa: «Falonchi ham bir tirikchiligini qilib yuribdi-ku, axir; falon qildi, tugun qildi, holbuki uning oldida meniki holva-ku!..» deb hatto da‘vo ham qilishadi. Xo‘sh, buni uyalgan kishi deya olamizmi? Bordi-yu, uyati bor desak, hadis nima deydi bunga, yaxshilardan qolgan so‘zlar nima deydi?

Qani ayting-chi: iymoni bormi, yo‘qmi bunday odamlarning?!

O‘TTIZ YETTINCHI SO‘Z

1. Insonning insonligi ishni qanday boshlaganidan bilinadi, lekin qanday tugatganidan emas.

2. Ko‘nglingdagi ko‘rkam o‘y og‘zingdan chiqqach, xiralashadi.

3. Sen agar faqat o‘zini o‘ylaydigan nodonga hikmatli so‘z aytsang, u seni yo xursand qiladi yo esa xafa.

4. Kishiga bilimiga qarab yaxshilik qil, yomonga qilgan yaxshiliging boshingga balo bo‘lib qaytadi.

5. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘! Odam bolasi – elning lolasi.

6. Yaxshi odam ko‘p so‘raydi, ammo oz bersang ham rozi bo‘ladi. Yomon odam oz so‘raydi, ammo ko‘p bersang ham rozi bo‘lmaydi.

7. Yolg‘iz boshing uchun mehnat qilsang, o‘z qorni uchun o‘tlagan hayvonning biri kabidirsan. Insoniy burching uchun mehnat qilsang esa, Olloh taoloning suygan bandasi bo‘lasan.

8. Suqrotga og‘u bergan, Janna d’Arkni olovga tashlagan, Isoni dorga osib, payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallamni tuyaning o‘limtigiga ko‘mgan kim? Xalq! Shunday bo‘lgach, xalqda aql yo‘q. Yo‘lini top-da, xalqqa rahnamolik qil.

9. Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda-kim yomon bo'lsa, ayb zamondoshlarida.

10. Agar davlat mening qo'limda bo'lganda, inson farzandini tuzatib bo'lmaydi, degan odamning tilini kesib tashlardim...

11. Dunyoda tanho yashagandan – o'lgan yaxshi. Yolg'iz odamni qayg'u-hasrat bosadi. Dunyoda nimaiki bor: u yaxshilikmi, yomonlikmi, xursandchilikmi, qayg'u-hasratmi – hammasi xalqda bo'ladi. Avvalgisiga kim chiday oladi? Keyingisiz kim yashay oladi?

12. Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir, qori qalin qahraton qish ketidan, ko'k maysali, tiniq suvli yoz kelmaydimu?

13. Badjahl odam kamgap kelsa, zahri ichida bo'lgani. Bordi-yu, hech kimga gap bermay, lo'lilik qilib shovqin solsa – bu odam yo qo'rzoq yo esa maqtanchoq keladi.

14. Quvonch va mag'rurlik – mastlikdir. Faqat mingdan bir kishigina bu narsadan o'zini ehtiyot tutib yura oladi.

15. Ishning omadi – o'z vaqti.

16. Buyuk mansab – go'yo bir buyuk qoya. Unga erinmay o'rmalab yurib ilon ham chiqadi, uchib-qo'nib yurib qiron (burgut) ham chiqadi.

17. Dunyo – kattakon ko'l. Zamona esa esib turgan yel. Oldingdagi to'lqin – og'alar bo'lsa, ketingdagi to'lqin – inilardir. Navbat bilan o'lishar, avvalgiday bo'lishar.

18. Tuyadek bo'y bergandan, tugmadek aql bergan afzal. Soqolini sotgan qaridan, mehnatini sotgan yosh yaxshi.

19. Mo'ltoni mulla el talar.

20. Yomon do'st – bir ko'lankadir: quyoshli kunda gochsang ham qutulolmaysan, bulutli kunda esa izlasang ham topolmaysan.

21. Do'sti yo'q bilan sirlash, do'sti ko'p bilan siylash. Yaxshiga yaqin bo'l, yomondan – yiroq.

22. G'ayratsiz jahl – tul, qayg'usiz oshiq – tul, shogird-siz olim – tul.

23. Baxtiyor bo'lguningcha baxtingni eling ham tilaydi, o'zing ham tilaysan. Baxtiyor bo'lganingdan so'ng esa – faqat o'zingina tilaysan.

O'TTIZ SAKKIZINCHI SO'Z¹

... Ba'zi bir odamlar faqat usti-boshiga zeb berib, olifta bo'lib yurishni o'zicha bir davlat deb hisoblaydi. Bu faqat o'zini ko'rsatish, o'zini o'zi bozorga solish, ba'zi bir aqli ko'ziga bitgan ahmoqlarning havasini qo'zg'atib: «Qani endi bizlar ham shunday bo'lsak» yo bo'lmasa: «Xudo bizlarga ham shunday bo'lishni nasib etmadi» deb kuyuntirishdan boshqa narsa emas. Xo'sh, bundan nima chiqadi? Biror foyda chiqadimi? Yo'q, albatta! Axir, xosiyat kishi-ning sirtida emas, ichida bo'ladi. Kecha-yu kunduz o'zini oynaga solganlarning aqli raso bo'ladi deysizmi? Aql – yomonlikdan emas, yaxshilikdan chiqadi va ezgu niyatlar yo'lida kamol topadi.

...Hayotda insonning muqaddas burchlaridan biri – do'st-yor orttirmoqlikdir. Do'st – o'zgalarga yaxshi munosabatda bo'lsang va qo'lingdan kelgancha yaxshilik qilsang, mehr-oqibat ko'rsatsang ortadi va ko'payadi, sen kimga do'stlik qilsang, u ham senga do'stlik qiladi: senga nisbatan ishonchi, mehr-muhabbati oshadi. Agar, do'stim ko'p bo'lsin desang, hech kimga dushmanlik qilma, hamda o'zgalar ichida o'zingga oro berma, maqtanma va o'zingni birovdan ortiq sanama!

O'zingni birovdan ortiq qo'yishning uch xili bo'ladi:

Birinchi: biror yomon ish ustida shohid bo'lib turgan bo'lsang, uning seni buzadigan oqibatlaridan o'zingni tiya ol. Bu senga yaxshi fazilat o'rnini o'taydi.

Ikkinchi: o'zingni o'zgalardan ortiq ko'rsatishga urinishing bu sening odamgarchiligingning yo'qligini ko'rsatadi.

¹ Bu so'z juda qisqartirib tarjima qilindi.

Uchinchi: birovga qasdlik qilsang, xo'rlasang, masxara qilsang va kamsitsang – bu fazilatlar senga faqat dushman orttiradi.

Men boshqalardan ortiqman deyish – seni maqtanchoqlikka olib boradi. Har qanday maqtanchoqlikning tagida: «Men falonchidan o'tib ketsam ekan!» degan kabi ichiqoralik, ko'ra olmaslikning oqibati janjalga olib keladi. Bu uch xil odatdan xoli bo'lgan kishining ko'ngli tinch bo'ladi. Har bir ko'ngli tinch kishining esa – yaxshi niyati, ezgu his-tuyg'usi bo'ladi.

Odamzodni xor qiladigan uchta narsa bor. Shundan ehtiyot bo'lmoq kerak! Birinchisi – nodonlik, ikkinchisi – erinchoqlik va uchinchi – zolimlikdir.

Nodonlik – bilimsizlik va dunyodan xabari yo'qligidir. Bilimsizlik esa – vahshiylikdir. Erinchoqlik – dunyodagi mavjud hamma narsaning dushmanidir. Tanballik, g'ayratsizlik, uyatsizlik, jur'atsizlik, kambag'allik kabi narsalarning hammasi shundan kelib chiqadi. Zolimlik – bu insonlikning dushmanidir. Odam zolim bo'ldimi – u odamgarchilikdan ayriladi, insonlik qiyofasini yo'qotadi va yirtqich hayvondan farqi qolmaydi.

O'TTIZ TO'QQIZINCHI SO'Z

To'g'ri, qadimgi ota-bobolarimizning ilm-hunari, tili, sipoligi va ozodaligi hozirgi bizlarnikiga qaraganda ancha tuban bo'lgan. Biroq shunga qaramay, ularning bizlarnikidan ortiq ikkita odatlari bor ekan. Ammo biz ota-bobolarimizdan meros bir qator yomon odatlardan asta-sekin qutulib kelayotganimiz bilan birga, afsuski, hatto ana shu ikkita ortiq odatni ham mutlaqo yo'qotib qo'ydik. Holbuki, agar biz, garchand o'rmalab bo'lsa ham o'sib borayotganimiz hozirgi bir kezda ana shu ikkita yaxshi odatni yo'qotmay turganimizda, balki, bizlar ham boshqa xalqlar kabi el qato-

riga kirgan bo‘larmidik? Biroq biz mana shu ikkita odatni yo‘qotib qo‘yganimiz uchun qilayotgan ishlarimiz, kasbi-korimiz inson bolasinikiga emas, go‘yo shaytonlarning ishiga o‘xshaydi. Nazarimda: odamgarchiligimizning kundankunga yo‘qolib borayotganligining asosiy sababi shu bo‘lib ko‘rinadi. Xo‘sh, bu ikki odat nimalardan iborat?

Birinchidan: avvalo, u zamonlarda elboshi, to‘pboshi deb ataluvchi kishilar bo‘lar ekan. Ko‘chish-qo‘nish, dovjanjal masalalarini shular hal qilib, shular boshqarar ekan. O‘zga odamlar hech narsa bilan ishlari bo‘lmay, tinch, o‘z tirikchiliklari bilan ovora bo‘lar ekanlar. Shu bilan birga, elboshi, to‘pboshilar nima ish qilsa, nima qo‘ysa, nima desa ham xalq o‘shalarning aytganlariga rozi bo‘lar va ularning qanchalik to‘g‘ri, noto‘g‘ri ish qilayotganliklarini ipidan-ignasigacha surishtirib, ketidan quvib yurmas ekanlar. Balki aksincha: «Bosh-boshingga biy bo‘lsang, hech qayerga sig‘maysan, boshliqlaring bor bo‘lsa, yonar o‘tga kuymaysan...» deb ularni kuzatish, terlash u yoqda tursin, hatto yetmaganini yetkazish, nuqsoni bo‘lsa tuzatish, yomonligi bo‘lsa berkitish, yaxshiligini oshirish uchun tirisharkanlar. Ular o‘z boshliqlarini go‘yo bir kuchli avliyo sanab, so‘ngra ular ham shunday bo‘lishga harakat qilar ekanlar. To‘g‘ri-da, hammasi o‘z odami, o‘z jigari va hamma mol-dunyo o‘z mol-dunyosi bo‘lgandan keyin, har qanday rahbar ham o‘z xalqining g‘amini yemay, kimning g‘amini yeydi deysiz?

Ikkinchidan: ota-bobolarimiz bizlarga nisbatan nomusli ekanlar. Bordi-yu ularni izzat-hurmat qilib biror yerga, yoki ishga chaqirishsa, o‘rtalaridagi araz, gina-kuduratlarga qaramay borar va jonini fido qilar ekanlar. Ular: «Og‘a-inining ozori bo‘lsa ham, bezari bo‘lmas», «Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar, to‘rtovlon tugal bo‘lsa, ko‘kdagini undirar», «Yo‘l quvlagan xazinaga yo‘liqar, gap quvlagan – baloga» deyishib, shu maromda ish tu-tishar ekanlar.

Qani endi, bizda mana shu odatlar bormi? Albatta yo‘q? Chunki bu odatlar or-nomusli, bir so‘zli odamlardagina mavjud bo‘ladi. Biz bularning hammasidan ajraldik, endigilarning do‘stligi – do‘stlik emas, aldanchilikdan, dushmanligi esa – ko‘ngil qolishdan emas, balki bir-birini ko‘ra olmaslikdan iboratdir.

QIRQINCHI SO‘Z

Sizlardan bir narsani so‘ramoqchi edim:

Nima uchun bizning qozoqlarda o‘lganining yomoni, tirigining esa o‘zgani yomonlashdan omoni yo‘q?

Nima uchun kuch-quvvati qaytgan chollar yoshlar bilan murosa qila oladi-yu, ammo o‘zlari, garchand ko‘pgina tengqurlaridan ayrilgan bo‘lsalar-da, bir-birlari bilan murosa qilisha olmaydi?

Nima uchun o‘zga yurtlik birovni ko‘rsak «yorug‘lik» deb atrofida parvona bo‘lamiz-u, o‘zimizning elimizdagi undan ham obro‘li kishilarning qadriga yetmaymiz?

Nima uchun bir sayyoh ikki yo‘lovchi o‘zga yurtga borsa, o‘z elini o‘larday maqtaydi-yu, qaytib kelgach, o‘sha borib kelgan yerini, yolg‘onni rost qilib, o‘z yurtiga haddan ziyod qilib maqtaydi? Nega?

Qaysi qozoqni olib qaramang, bolasi yosh kezida atrofida parvona bo‘lishadi-yu, ulg‘aygandan so‘ng sovuq ko‘rishadi? Nega?

Nima uchun ba‘zi odamlar tuqqan-tug‘ishganlari, yaqin oshna-og‘aynilarining to‘yida, azasida, umuman shunga o‘xshagan zarur lozimandalarida qorasini ko‘rsatmaydi-yu, birovlarining moli-holini talab, qaroqchilik qilib, haydab kelaylik, o‘g‘irlik qilaylik desa, jon-jon deb bosh qo‘shadi, oyoq-qo‘li yerga tegmay yetib keladi? Nega?

Nima uchun poygaga ot qo‘shganingda otingga yordam bermagan og‘ayning, olgan foydangdan bermading, deb o‘pkalaydi? Nega?

Qadimgi zamonlarda odamlar: falon vaqtda bechora otim poygada horib kelayotganda falonchi yordam qilgan edi, deb og‘aynisining o‘sha yaxshiligini o‘la-o‘lguncha aytib yurishar edi. Nima uchun endi hozir bu yilgi qilgan yaxshiliging kelgusi yilda unutilib ketadi-a? Nega?

Nima uchun boy o‘g‘li kambag‘al bo‘lib qolsa, mehnat qilishga uyaladi-yu, o‘g‘irlik qilishga uyalmaydi? Nega?

Nima uchun ikkita yaxshi bir elda do‘st bo‘lib, tinch-totuv yashay olmaydi-yu, qayoqdagi qasam urganlar bir-biri bilan bosh qo‘shishib, tinch-totuv yashashadi? Nega?

Nima uchun birovga do‘stim deb ot mindirsang-u, boshqa bir dushmaning kelib unga toy mindirsa, darhol o‘rtaga sovuqchilik tushadi – munosabat buzuladi? Nega?

Nima uchun ba‘zan har kun aytganingni qiladigan do‘stingdan bir kun aytganingni qilgan dushmaning mehribon bo‘lib qoladi? Nega?

Nima uchun ba‘zi birovlar, do‘stim o‘ssin-unsin demaydi, balki aksincha, biron martabaga ega bo‘lsa, unga ashaddiy dushman bo‘lib qoladi? Nega?

Nima uchun ba‘zi birovlar aql o‘rgatadigan kishini izlasa ham hech qayerdan topa olmagan holda, o‘z fe‘li-atvorini ipidan-ignasigacha biladigan odamlardan qochib yuradi? Nega?

Nima uchun odamlar birovnikiga mehmon bo‘lib borsa – ming qo‘yli boy bo‘lib boradi-yu, o‘z uyiga mehmon kelsa – bor molini ham yaylovga haydab yuboradi? Nega?

Nima uchun tinchlik izlab topa olmay yurgan yurt, tinch yashay boshlaganidan so‘ng, darrov undan zerika boshlaydi? Nega?

Nima uchun elga pishiq odam biylik qiladi? Nima uchun hayotda pishiq odamlarning ko‘pchiligi kambag‘al bo‘lishadi? Nega?

Nima uchun to‘qol xotin mag‘rur bo‘ladi? Nima uchun kasal kishi mard bo‘ladi? Nima uchun kambag‘al kishi aks, takabbur bo‘ladi? Nega?

Nima uchun nafsini jilovlab, yomon yo‘ldan qaytgan kishi yomon ataladi-yu, nafs balosida yurgan, maqtanchoq, baloxo‘r, yomon odam yaxshi ataladi? Nega?

Nima uchun qozoqlar to‘g‘ri so‘zga ishonmay, hatto quloq ham solmay, balki aksincha, yomon, yolg‘on-yashiq so‘zlarni eshitsa, moydek erib, sutdek balqib, topgan-tutganini suvga oqib ketsa ham, bunday gaplarni tag-tagiga yetmaguncha qo‘ymaydi? Nega?

QIRQ BIRINCHI SO‘Z

Qozoqlarga o‘rgataman, ularni tuzataman, degan kishiga ikkita narsa kerak.

Birinchidan: yo hokimiyat egasi, yo qo‘lida yorlig‘i bor kishi bo‘lishi kerak. Bular: kattalarni o‘z hukmlariga bo‘ysundirib, kichiklarning qo‘lidan yetaklab maktab-madrasalarga olib borib bera oladigan, biriga u sohada, biriga bu sohada ilm-hunar o‘rganishi uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsata oladigan va ularga ketadigan sarfxarajatlarni ovulda yashovchi xalq zimmasiga solishga qodir bo‘lgan, hatto qizlarni ham, aqalli musulmonchilik ilmiga o‘qitish uchun jalb qila oladigan odam bo‘lishlari kerak. Shundagina hozirgi yoshlar hunar egallab, vaqt o‘tishi bilan otalarining o‘rnini bosib, el-yurt sal tuzalgan bo‘lur edi.

Yoki, ikkinchidan: elni tuzataman degan odam katta boy bo‘lishi kerak: u otalariga pora berish yo‘li bilan bolalarini o‘qishga yuborishi va haligiday ilm-hunar o‘rgatishi lozim – shunday qilsa ham el tuzalgan bo‘lardi. Biroq, afsuski, bunday kuch-quvvat, davlat hech kimning peshonasiga bitmaydi va bitishi mumkin ham emas. Ma‘lumki, qozoqlarni yo qo‘rqitmay, yo pora berish yo‘li bilan qo‘lga olmay turib, aql o‘rgatishning, aytganingga ko‘ndirishing va o‘z yetagingga yurgizishing hech mumkin emas. Chunki ota-bobolaridan meros qolgan, sut bilan kirib, qon-qoniga singib ketgan no-

donlik ularni allaqachon odamgarchilikdan chiqarib qo‘ygan. Ular o‘zlarining mish-mishlaridan, g‘iybatlaridan o‘pkasini qo‘ltiqlab hovliqishlari-yu, shovqin-suronlaridan boshqa narsalarni qiziq ko‘rilmaydi, gap aytsang uqishmaydi, qulog‘i senda bo‘lsa ham, ko‘ngli boshqa joyda bo‘lib, ko‘zlari alang-jalang qilib turadi. Xo‘sh, endi nima qilishimiz kerak? Nahot shundayligimizcha qolib ketaversak!

QIRQ IKKINCHI SO‘Z

Qozoqlarning yomon ishlarga moyil bo‘laverishining birdan-bir sababi ishi yo‘qligidandir. Yo dehqonchilik bilan shug‘ullanishsa, yo savdo-sotiq ishlari bilan band bo‘lsa, ehtimol, bunday ishlarga qo‘llari tegmasmidi? Ular bunday qilish o‘rniga otliq-yayov u ovuldan-bu ovulga sang‘ib, birovlarning ot-ulovlariga yalinib, ovqat izlab, gap poylab, yo esa odamzodni yo‘ldan ozdirish uchun quvlik-shumlik qidirib, ishsiz-yumushsiz, bekordan-bekorga tentirab yurishni o‘zlariga kasb-u kor qilib olgan. Halol mehnat qilaman, mol-dunyo orttiramam, degan kishi uchun shunday sang‘ib, itdan battar xor bo‘lib yurish munosibmi? Yaxshi bo‘lsa o‘z ishini tashlab bekordan-bekorga tentirab yurarmidi? Mol-dunyosi ko‘p boylar mollarini cho‘ponlarga, bolalarga topshirib qo‘yib, Xudo bergan davlatining rohatini surmay, moli-holini o‘g‘riga o‘g‘irlatgani, qaroqchiga oldirgani va itga, qushga yedirganiga rozi bo‘ladi-yu, ammo mish-mish gaplardan, bir ovuldan ikkinchi ovulga borib, quvlik-shumlik qilishdan, tekin tomoqdan, safsata sotishlardan qolishga sira ham rozi bo‘lmaydi. Chunki bunday bema’nigarchiliklar butun xalqqa odat bo‘lgandan so‘ng, bular ham ko‘pchilikdan qolishni, to‘g‘ri yo‘l tutishni, to‘g‘ri maslahat berishni istamaydi, aksincha, haligiday yaramasliklarga bosh qo‘shishni va shunday ishlarni qilishni o‘zlaricha afzal ko‘radi...

Mana shuning uchun ham hozirgi qozoqlar ichidagi «ishga yarayman» deganlari o'zlarining, ozmi-ko'pmi, molini birovlariga boqtirib qo'yib, o'zlari so'z poylashadi, tekin tomoq qidirishadi, el kezib sang'ib yurishadi.

Binobarin, bu kungi odamlar uchun mol-dunyo ham, aql-idrok ham, hatto obro'-e'tibor ham faxr emas, balki birovlarning ustidan arz-dod qilish va yolg'on-yashiq gaplarni gapirib, alday bilish faxr. Buni bilgan kishi, garchi ostida oti, qo'lida qamchisidan boshqa hech narsasi yo'q kambag'al bo'lsa-da, el ichida izzat-hurmatda bo'ladi, qayerga borsa to'rdan joy beriladi, og'zi oshga, qo'li go'shtga tegadi. Bunday kishilar, ba'zi bir laqma boylarga: «Siz bir og'iz bir nima desangiz bas, bu yog'ini biz o'zimizga qo'yib beravering, bir og'iz so'zingiz kifoya!..» deb ularni hovliqtirib qo'yib, o'zlari shuning orqasidan ishlamay-netmay, obro' orttirib, otini minib, to'nini kiyib, kunini o'tkazib yuraveradi.

Boy bo'lsa o'zining foydasi nima-yu, zarari nimaligini ham bilmaydi. Mabodo bironta muammo chiqib qolsa: «Buni nima qilamiz?» deb yana boyagi rasvo odam bilan maslahatlashadi. U tag'in quvlik-shumligini ishga soladi: yolg'iz o'zim maslahat bersam ekan, maslahatchisi ko'paysa qadrim ketib qoladi, deb o'ylaydi va: «E-e, shu ham gapmi? Mana bunisi bundog'-u, ana unisi undoq, unga undoq deb quvlik qiling, bunga bundoq deb shumlik qiling!» deb qayoqdagi bema'ni makr-hiylalarni o'rgatadi. Shundan keyin boy umuman odam bolasiga ishonmaydigan, boyga ham hech kim ishonmaydigan bo'lib qoladi... Pirovard natijada esa, yana boyagi rasvo odam boyga: «Ana men aytmadimmi sizga, u o'zi undoq odam, bu o'zi bundoq odam, mana ko'rdingiz-ku» deb boyga ishi tushgan odamlarni unga yomonlab, o'zi esa boyni o'ziga avvalgidan ham kuchliroq rom qilib oladi.

Mana, hozirgi odamlarning aqli ham, istagi ham shunday.

QIRQ UCHINCHI SO‘Z

Odamzod ikki narsa bilan hayot: biri – tan bilan, ikkinchisi – jon bilan.

Bu ikkalasidan qaysi biri odamzodning o‘ziga bog‘lig‘-u, qaysi biri bog‘liq emas – buni bilmoq kerak.

Yesam-ichsam, yotsam-tursam, uxlasam, deyshlik – bu inson uchun g‘ayriixtiyoriy ehtiyoj. Ozmi-ko‘pmi ko‘rsam-bilsam, deb orzu qilish ham dastavval shunday g‘ayriixtiyoriy ehtiyojdan tug‘iladi...

Endi, aql-idrok, ilm-hunar – bular mehnat bilan topiladigan va kamol topadigan narsa. Odamzod ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, qo‘l bilan ushlab, til bilan totib, burni bilan hidlab tashqi dunyoni taniydi. Borliqning mavjudligi xoh salbiy, xoh ijobiy bo‘lsin, har nechuk ko‘ngilda o‘z aksini qoldiradi, ya‘ni ta‘sir etadi. Bu bizga nisbatan g‘ayriixtiyoriy ehtiyojdir. Ularning biri ko‘ngilda mangu unutilmas yaxshi taassurot, ikkinchisi mangu unutilmas yomon taassurot qoldiradi.

Bu ta‘sirlar dastlab juda kuchsiz va ko‘rimsiz kechadi. Lekin unga ahamiyat berilsa, parvarish qilinsa – bora-bora ulg‘ayib, mustahkamlanib boradi. Bordi-yu, ahamiyat berilmasa, sekin-asta yo‘qolib ketadi, yo‘qolmagan taqdirda ham, zaiflashib, ahamiyatsiz bo‘lib qoladi.

Kimda-kim ko‘p bilsa, tashqi dunyodan olgan taassurotlarini mulohaza bilan o‘rinlisini o‘rinliga, o‘rinsizini o‘rinsizga ajrata bilsa – bunday odamning aqli ham raso bo‘ladi.

«Tangri taoloning o‘zi aql bermagandan keyin nima qilaylik?» deyshlik, bu: «Qodir Olloh sen bilan meni bir-day yaratmadi!» deyshlikdir. Bu esa Yaratganga osiylikdir. Bu aqlsiz, qilay desa hunari yo‘q, nodon odamning ishidir. Nahotki unga Tangri taolo ko‘rma, eshitma, ko‘rgan-es-hitgan narsangni inobatga olma, yodingda saqlama, degan

bo'lsa? Xudo unga o'yin-kulgi, maishat, uyqu, maqtanchoqlik bilan ovora bo'lib, qalbingdagi mavjud boyligingni suvga oqizib, hayvonlar qatoriga qo'shil, degan emas-ku, axir!

Ba'zi bir odamlar: «Aql ixtiyoriy bo'lmasa ham, talab, istak ixtiyoriy bo'ladi, odam istasa aqlni ham topa oladi. Istaksiz, umidsiz kishida aql bo'lmaydi» deyishadi. Bu bekor gap. Talab, istak degan narsalar yosh bolalarda ham bo'ladi. Chunonchi, biz yuqorida: idrok etilgan narsa avvalo juda zaif va kuchsiz bo'lib, odam ulg'aygan sari, u ham kamol topib boradi, deb aytib o'tgandik. Jon quvvati bilan topilgan hunarni ham qancha parvarish qilsang – shuncha sayqallashadi. Aksincha, unga ahamiyat bermasang va ko'ngil qo'ymasang, bir kun kelib hatto uni yo'qotib qo'yganingni ham, shuningdek, o'zingning tamom boshqa odam bo'lib qolganingni ham bilmay qolasan. Chunki har qanday unutilgan hunar: «Mana men ketdim» deb xabar berib yo'qolmaydi. Bir marta yo'qotgan hunaringning ketiga qayta tushsang – bu avvalgisidan ham qiyinroq bo'ladi.

Jon quvvatining ta'rifi – juda keng narsa. Biroq hammasini yozib ulgurish qiyin. U shunday kuchki, seni tashqi dunyodan topgan barcha bilimlaringni o'zida mahkam saqlab tura olish qobiliyatiga ega. Shunday qilib, biz yuqorida kishi o'z topgan narsasini mudom parvarish qilib bormasa, uning eng nozik tomonlarini unutib qo'yadi, dedik. Keyinchalik borib, bu odam, shu hunarini, ya'ni topgan narsasini saqlaydigan jonidan ham ayriladi. Keyin esa – bularni qayta tiklashning hech iloji yo'q...

Bu quvvatning ichida ortiq uchta quvvat borki, zinhor uni yo'qotib qo'yishdan ehtiyot bo'lish kerak. Uni yo'qotgan kishi – odamgarchiligini ham yo'qotib, hayvon qatoriga qo'shilib qolishi hech gap emas.

Birinchi quvvat: buni ruslar podvijnoy element, deb atashadi. Bu nima degani? Bu – ko'rgan, bilgan, eshitgan

narsalaringni zudlik-ziyraklik bilan uqib, faqat uqish bilangina kifoyalanmay, uning qayerdan paydo bo'lgani va oxiri nima bilan tugashini ham mulohaza bilan muhokama qilib ko'rishga seni majbur etadi. Agar senda bu fazilat bo'lmasa, ming o'qiganing bilan baribir odam bo'lishing qiyin va zarur narsalarni o'z vaqtida uqib ololmay, vaqt o'tgach: «Attang, bunday qilsam bo'larkan! Unday qilsam bo'larkan!» – deb pushaymon bo'lib, mudom hamma yaxshi narsadan g'ofil qolib yuraverasan.

Ikkinchi quvvat: buni ruslar sila prityagatel'naya odnorodnogo, deyishadi. Bu biror narsani ko'rgan, bilgan, eshitgan bo'lsang va u senga ma'qul bo'lsa, sen darhol u narsani boshqa narsalarga o'xshashligi bormi yo yo'qligini, uning o'xshashlik darajasini tekshirasan. Har qalay bu seni qiziqtiradi va sen uni bilishga, boshqalardan so'rab surishtirishga harakat qilasan, ungacha esa hech tinib-tinchimaysan.

Uchinchi quvvat: bu tashqi dunyoning inson qalbiga ta'siridan olinadigan yaxshi-yomon fazilatlaridir. Agar sen qalbingni pok va toza tutsang hamda uni turli-tuman narsalardan, manmanlik, maqtanchoqlik, mol-dunyoning ketidan quvishlik, yengiltaklik va beg'amlikdan ehtiyot saqlasang – unga chizilgan tashqi dunyo taassurotlari ham toza va ravshan bo'ladi va bunday taassurot qon-qoniga singib, uzoq vaqt esingda qoladi. Bordi-yu, qalbingni boyagi to'rtta yaramas odat bilan kirlatib qo'ysang, u holda qalb oynang xiralashadi – borliqni g'uborli va qiyshiq qilib ko'rsatadigan bo'ladi. Nihoyat, bunday buzib ko'rsatadigan qalb ko'zgisidan kelajaging uchun hech qanday naf tegmaydi!

Tana quvvati bilan sirdan topilgan narsa sirtda saqlanadi. Buning otini davlat, boyluk deb atashadi. Bu quvvatning ham o'ziga yarasha tashvishlari bor. Agar uni bilmasang, tarbiya qilmasang – bundan ham ayrilishing mumkin. Axir, jon quvvati kashf etmish narsalar: aql-idrok, ilm-hunar ham qaramasang, tarbiya qilmasang – so'nib bitishi va sen undan aytilib qolishing mumkin edi-ku!

Shuningdek, har bir yaxshi narsaning o‘ziga yarasha me’yori bor. Agar me’yoridan oshib ketsa – u yaramaydi. Zotan, har narsaning me’yorini bilish – bu juda katta ish, katta ishgina emas, katta san’at hamdir.

O‘ylanmoqlik ham yaxshi narsa. Ammo ko‘p o‘ylab xayolga berilib ketishlik ham yaramaydi.

Yemoq-ichmoq, maishat qilmoq, ko‘ngil xushlamoq, sevmoq-sevilmoq, quchmoq-suymoq, mol-dunyo to‘plamoq, mansab orzu qilmoq, hiylakor bo‘lmoq, aldanmaslik – bu narsalarning ham – hammasining me’yori bor. Me’yoridan oshib ketsa rasvosi chiqadi.

«Nimaning qizig‘ini ko‘p ko‘rsang, o‘shaning jabrini bir tortasan» – degan qadimgi donishmandlar. Boya aytib o‘tganimiz, bizga ma’lum bo‘lmish uchta quvvatning ikkitasi, ya’ni podvijnoy element bilan sila prityagatelnaya odnorodnogo – bu ikkalasi bir-biriga mutlaqo aloqador narsalardir. Hamma foydali ishlar ham shundan kelib chiqadi, shuningdek, hamma zararli ishlar ham. Mansabparastlik, maqtanchoqlik, badjahllik, yolg‘onchilik va umuman shunga o‘xshagan odamni aqldan ozdirib, yomon yo‘lga boshlab kiradigan yaramas odatlarning hammasi shundan kelib chiqadi. Binobarin, kishi chuqur mulohaza yuritib, bunday yomon odatlardan o‘zini imkoni boricha saqlay bilmog‘i kerak.

Kishiga nima foyda-yu, nima zarar ekanini ajrim qiladigan kuch – aqldir. Lekin, yuqorida qayd etilgan yomon odatlarning barchasini birgina aql kuchi bilan daf qilib bo‘lmaydi. Buning uchun katta g‘ayrat ham kerak. Shundagina bu ikkalasi yengilmas kuch-quvvat paydo qiladi. Agar bu ikkovi kimda bor bo‘lsa, buning ustiga hali yuqoridagi ikki quvvat qo‘shilsa – nur ustiga nur: mingan ottingni qayerdan solsang, shu yerdan kesib chiqadi. Bordiyu, bu ikki kuch oz bo‘lsa, yoki biri bor bo‘lib, biri yo‘q bo‘lsa – unda boyagi ikki quvvat go‘yo egar-yugansiz asov otga o‘xshaydi. Ma’lumki, asov ot egasiga bo‘y bermaydi:

u o‘zini istagancha toqqa, toshga urishi, suvga, jarga oti-
shi mumkin. Bunday holda erking qo‘lingdan ketadi va
o‘lguningcha dog‘da qolasan...

QIRQ TO‘RTINCHI SO‘Z

Odamzodning eng yomon hunari talabsizlikdir. Ammo talab qiluvchilar ham, shuningdek, talabning o‘zi ham bir necha turli bo‘ladi; hamda shu talablarning ketiga tushgan odamlarga ular bir-biridan a‘lo bo‘lib ko‘rinadi.

Inson bolasi xoh u talabli, xoh u talabsiz bo‘lsin, uning tabiati birovning maqtovini eshitishni xohlab turadi. U qayerda va qaysi sohada ishlamasin, o‘z sohasidagi kishilar bilan sirdosh bo‘ladi. Uning uchun o‘zga sohadagi kishilarning «ha, barakalla!» sini eshitishdan ko‘ra ko‘proq, o‘z sohasidagi kishilarning «ha, barakalla!» sini eshitish maroqliroq bo‘ladi va u shuni istaydi.

Inson bolasi biror hunarning ketiga tushar ekan, avvalo o‘z qadrini o‘ylaydi.

Ba’zi birovlar mol-dunyo topish payiga tushishgan. Hasislik, hamkorlik qilib bo‘lsa ham, mol topsam ekan. «Mol topgan erning yozig‘i yo‘q», «Moli borning yuzi yorug‘» – deyishadi. Mol-dunyo ham foyda, ham xosiyat bo‘ladi, deb o‘ylashadi. Qozoqlarning hulqi bilan qaraganda, bu so‘z bir hisobdan to‘g‘ri, biroq odamgarchilik, aql nuqtayi nazaridan qaraganda esa – mutlaqo noto‘g‘ridir. Mana shu yo‘lda ba’zilar mulla aka, ba’zilar esa hoji aka atalaman, deb, shu harakatda yurishibdi...

Ushbu kunda ularning izlab topgan talablari o‘qish, o‘rganish natijasida topilgan talablar emas, balki odamlar yuzasidan o‘rganilgan talablardir.

Kitob orqali o‘rganiladigan hunar uchun, avvalo, qalbni pok saqlash, undan keyin esa – toat-ibodat qilish kerak. Bordi-yu, qozoqlarning yuziga qarab hunar o‘rganmoqchi bo‘lsang, unda shu hunaringdan qolma, toat-ibodat qilib ovora bo‘lib yurma, sening qalbingning pok ekanligini kim

ko‘rib o‘tiribdi, deysan! Biroq qalbing toza bo‘lmaguncha topgan-tutganingda qut-baraka bo‘lmaydi.

Endi, bundan buyon mana shu gaplarga qarab ish tutsang yanglishmaysan.

QIRQ BESHINCHI SO‘Z

...Inson farzandining kamolot darajasi – uning muhabbat, adolat va his-tuyg‘u egasi bo‘lishligidadir. Bu fazilat-larning kerak emas joyi yo‘q, shuningdek, bular ishtirok etmaydigan joy ham bo‘lmaydi... Ayg‘ir o‘z biyasiga ega bo‘lishi uchun ham muhabbat, his kerak. Bu adolat, muhabbat, his kimda ko‘proq bo‘lsa – o‘sha odam olim, o‘sha odam oqildir. Biz o‘z-o‘zimizdan ilm kashf qilolmaymiz, balki yaratilib qo‘yilgan narsalarni ko‘rib, sezib, his qilib, aql mezonida o‘lchab, keyin ilmga aylantiramiz.





JANNI RODARI



RIM ERTAKLARI
«UCHTADAN OXIRI BOR ERTAKLAR»
TURKUMIDAN

HURISHNI EPLOLMAGAN KUCHUKCHA

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, hurishni eplolmaydigan bir kuchukcha bo‘lgan ekan. U na hura olarkan, na miyovlay olarkan, na ma‘rashni va na kishnashni bilarkan, qisqasi, hech bir maxluq tilida gapirishni uddalay olmaydigan shunday bir go‘rso‘xta ekan. Asli-naslini so‘rasangiz, o‘zi bir mushtdaygina, juda ham oddiy kuchukcha ekan. Ilgarilari kuchuk asari ko‘rinmaydigan bu qishloqda uning qayerdan paydo bo‘lib qolganini hech kim bilmas ekan. Albatta, shundoq bo‘lgandan keyin «men nega hurishni bilmayman-a?» - degan o‘yni xayoliga ham keltirmas ekan. Lekin kunlaming birida kimdir uni savolga tutibdi:

– Qiziq, sen nega sira hurmaysan?

– Hurish?.. Bu nima deganingiz? Axir men bu yerlik emasman, men hurishni bilmayman...

– Obbo, jinqarcha-yey! Nahotki, hamma kuchuklar vov-vov deb hurishini bilmasang?

– Nimaga huradi?

– «Nimaga» deganing nimasi? Axir, kuchuk bo‘lgandan keyin huradi-da! O‘tkinchilarga qarab huradi, ko‘ziga shubhali ko‘ringan mushuklarga qarab huradi. Oyga qarab huradi, hayotidan mamnun bo‘lganda huradi. Jahli chiqqanda, g‘ashi kelganda huradi. Ko‘pincha kunduz kunlari huradi, lekin tunda hurgan paytlari ham bo‘ladi.

– Gapingizda jon borku-ya, lekin men...

– Sen juda kim bo‘libsan? Yoki sen to‘g‘ringda gazetalarda yozishlarini xohlaysanmi?

Kuchukcha nima deb javob berishni bilmay, jimib qolibdi. U hurishni bilmagani uchun ham uni qanday o'rganishga aqli yetmabdi-da.

– Unday bo'lsa, men nima qilsam, sen ham shunday qil, – kuchukchaga ichi achiganidan maslahat solibdi xo'rozcha. U o'zining jarangdor tovushi bilan bo'ynini gajak qilib bir necha marta «Qu-qu-qu-quvv!» deb qichqiribdi.

– Bu sen o'ylaganchalik osonga o'xshamaydi, – debdi kuchukcha.

– Be, shu ham gap ekanmi?! Yaxshilab quloq sol, mening tumshug'imga diqqat qil. Qisqasi, men nima qilsam, sen ham shunday qil.

Xo'rozcha yana «qu-qu-qu-quvv!» deb qichqiribdi.

Kuchukcha unga taqlid qilmoqchi bo'libdi-yu, biroq tomog'idan qandaydir beo'xshov «qih-qih» degan ovozi chiqibdi, xolos. Shu yerda donlab yurgan tovuqlar cho'chib, har tomonga qochib qolibdi.

– Hechqisi yo'q, – tasalli beribdi xo'rozcha, – birinchi martaga bu juda yaxshi chiqdi. Endi esa takrorla. Qani!

Kuchukcha yana bir marta qichqirishga urinib ko'ribdi, biroq yana hech narsa chiqmabdi. Shunda u kunda-kunda oz-ozdan mashq qila boshlabdi, goho u o'rmonga kirib ketarkan-da, u yerda xalaqit beruvchi hech kim bo'lmay, ko'ngli istagancha qichqirar ekan.

Kunlardan bir kun ertalab u shunaqangi qotirib qichqiribdiki, azbaroyi ovozi tiniq va jarangdor chiqqanidan o'zi ham zavqlanib ketibdi. Xo'roz qichqirig'i qulog'iga chalingan tulkivoy o'zicha: «Xudoga shukur, xo'rozvoy holimdan xabar olgani keldi! Bu himmati uchun unga darrov minnatdorchilik izhor qilib qo'yishim kerak», deb o'ylabdi o'zida yo'q suyunib. U xo'rozcha istiqboliga os-hiqibdi. Albatta, pichoq, vilka va salfetka olib olishni ham unutmabdi, chunki o'zingizga ma'lumki, tulki uchun babaq xo'rozdan shirinroq taom dunyoda bo'lmaydi. Lekin babaq xo'roz o'rniga dumida cho'nqayib o'tirgancha ovozining

boricha paydar-pay «qu-qu-qu-quvvv!» deb qichqirayotgan kuchukchani ko‘rganda, tulkivoyning qanchalik hafsalasi pir bo‘lganini aytmasa ham o‘zingiz bilsangiz kerak.

– Eh, – debdi tulkivoy, – bu ahvolda qopqonga tushib qolmasam go‘rga edi!

– Qopqonga deysanmi? - ajablanib so‘rabdi kuchukcha.

– Ha-da! Men seni ataylab o‘zini o‘rmonda adashib qol-ganga solib, xo‘roz bo‘lib qichqiryapsanmi deb o‘ylabman. Yaxshiyamki, paytida ko‘rib qoldim seni. Lekin bunday ov qilish g‘irromlikdan boshqa narsa emas. Kuchuklar odatda ovchi kelayotganidan ogohlantirib, hurib ovozi beradilar.

– Yolg‘on gapirsam, o‘lay agar... Ov qilish mening xay-olimga ham kelgani yo‘q. Men bu yerga faqat mashq qil-gani kelganman.

– Mashq qilgani kelganman deysanmi? Nimani mashq qilasan?

– Men hurishni o‘rganyapman, ancha o‘rganib qoldim ham. Quloq solgin-a, juda yaxshi hura olaman.

Shunday deya kuchukcha yana «qu-qu-qu-quvvv!» deb baralla qichqiribdi.

Tulki ichaklari uzilgudek qotib-qotib kulibdi. Yerga dumalab, qornini ushlab shunaqangi kulibdiki, sira o‘zini to‘xtatolmabdi. Kalaka qilib kulganlaridan kuchukcha qat-tiq xafa bo‘libdi: axir buni o‘rganguncha ozmuncha mehnat qildimi! Bechora yig‘lamoqdan beri bo‘lib, dumini qisgan-cha uyga qaytibdi. Bir vaqt yo‘lda u bir kakkuga duch ke-libdi. G‘amgin ketayotgan kuchukchani ko‘rib, kakkuning unga rahmi kelibdi va ko‘ngil so‘rabdi:

– Senga nima bo‘ldi, kuchukvoy, tinchlikmi?

– Hech narsa bo‘lgani yo‘q.

– Bo‘lmasa nega buncha g‘amgin ko‘rinasan?

– Eh... so‘rab nima qilasan?.. Hamma balo hurishni eplolmaganimdan. Buning ustiga birov o‘rgatib qo‘yay ham demaydi.

– Gap faqat shunda qolgan bo‘lsa, men senga ko‘z ochib-yumguncha o‘rgatib qo‘yganim bo‘lsin. Yaxshilab quloq sol, men sayrayman: kuk-ku, kuk-ku! Bildingmi?

– Unchalik qiyinga o‘xshamayapti...

– E, oppa-oston! Men juda kichkinaligimdan kukulashni bilaman. Qani, takrorla: «Kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku, kuk-ku!..»

– Ku, - sayrashga urinibdi. kuchukcha, - ku...

U mana shu «kuk-ku»ni yana ko‘p martalab takrorlabdi, o‘sha kuni kechgacha va ertasiga ham faqat shuni mashq qilibdi, bir haftadan keyin esa ajabtovur kukulaydigan bo‘lib qolibdi. U o‘ziga o‘zi qoyil qolib, o‘ylabdi: «Mana, nihoyat men chinakam huradigan bo‘lib qoldim. Endi meni hech kim kalaka qilib, ustimdan kulolmaydi».

Ayni shu kunlari ov mavsumi boshlangan paytlar ekan. O‘rmonda ko‘p ovchilar paydo bo‘libdi. Ular ichida to‘g‘ri kelgan tomonga va duch kelgan jonivorga qarab o‘q otaveradiganlari ham bor ekan. Agar ovozlari quloqqa chalin-gudek bo‘lsa, bulbullarni ham ayab o‘tirishmas ekan. Ana shunday

Ovchilardan biri o‘rmonda ketayotib, butalar orasidan: «Kuk-ku, kuk-ku...» degan ovozni eshitib qolibdi. Ovchi darhol miltig‘ini qo‘liga olib mo‘ljallabdi-da, ustma-ust: «Paq-paq!» – o‘q uzibdi.

Xayriyat, o‘q kuchukchaga tegmabdi. Xuddi qulo-g‘ining ostidan vizillab o‘tib ketibdi. Bechora kuchuk-chaning shunaqangi o‘takasi yorilibdi-ki! Qochib ketayotib, o‘zicha o‘ylar emish: «Hoynahoy, bu ovchining esi joyida bo‘lmasa kerak, bo‘lmasa kelib-kelib hurishni biladigan kuchukka qarab o‘q uzadimi?..»

Ovchi esa bu paytda o‘ljasini qidirish bilan ovora ekan. U mo‘ljalga aniq urganiga shubha qilmagan ekan-da.

«Hoynahoy urgan qushimni allaqayoqdan paydo bo‘lgan haligi kuchukcha ilib ketgan», o‘ylabdi u.

Alamini bosish uchun ovchi inidan mo‘ralab turgan si-

chqon bolasiga qarab o'q uzibdi, lekin bu ham mo'ljalga tegmabdi.

Kuchukcha bo'lsa chopib ketaveribdi, ketaveribdi...

Ertakning birinchi tugashi

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt bir sigir bemalol o'tlab yurgan o'tloqzordan chiqib qolibdi.

– Qayoqqa shoshib ketyapsan, kuchukvoy?

– O'zim ham bilmayman.

– Unday bo'lsa to'xtab, birpas damingni ol. Bu yerning o'tlog'ini qara, ko'm-ko'k.

– Eh, gap o'tloqda bo'lganda-ku, o'zim bilardim-a...

– Ha, nima bo'ldi? Tobing yo'qmi?

– Undan battari. Men hurishni bilmayman!

– Seni qara-yu, dunyoda eng oson narsa shu-ku! Quloq sol: «Mo'-o'! Mo'-o'! Mo'-o'!...» Xo'sh qalay, yoqdimi?

– Durust. Lekin bir narsani ko'nglim sezib turibdi, menga kerak bo'lgan narsa bu emas. Chunki, sen sigirsan...

– Ha, albatta, sigirman...

– Men esa sigir emas, kuchukchaman.

– Kuchukcha bo'lmay nimasan? Kuchukchasan. Xo'sh, nima bo'пти shunga? Mening tilimda gapirishni o'rganib olsang, buning nimasi yomon ekan?

– Bu bilan sen juda zo'r fikrni o'rtaga tashlaganingni bilasanmi?

– Qanaqa fikrni?

– Mana, hozirgina mening miyamga kelgan fikrni-da. Men barcha hayvonlar tilini o'rganib olaman-da, sirkda tomosha ko'rsataman. Hamma meni olqishlab, qarsak chaladi, men boyib ketaman va shoh qiziga uylanib olaman. Kuchuklar shohining qiziga, albatta...

– Barakalla, juda yaxshi o'ylabsan buni! Qani, belni mahkam bog'lab, ishga kirishaver. Yaxshilab eshitib ol: «Mo'-o'-o'! Mo'-o'-o'!»

– Mo‘-o‘...- o‘zicha g‘o‘ng‘illabdi kuchukcha.

Hurishni eplolmagan, lekin boshqa tillarni o‘rganishda zo‘r qobiliyatga ega bo‘lgan kuchukcha qaysi desa, hech ikkilanmay shuni ko‘rsatavering, yanglishmaysiz.

Ertakning ikkinchi tugashi

Kuchukcha chopib ketaveribdi, ketaveribdi... Yo‘lda unga bir dehqon uchrabdi.

– Buncha shoshib, qayoqqa ketyapsan, hoy kuchukvachcha?

– O‘zim ham bilmayman...

– Unda men bilan yur. Menga xuddi senday bir kuchukvachcha juda zarur edi - tovuqxonamni qo‘riqlaysan.

– Siz bilan jon deb borar edim-u, lekin bir aybim bor - hurishni bilmayman.

– Ayni muddao-da! Hurishni biladigan kuchuklar faqat o‘g‘rilarga qo‘l keladi - cho‘chitib, o‘g‘rini qochirib yuboradi. Sening ovozingni esa ular eshitmaydi, yaqinroq keladi, shunda sen ulami shappa tutib olib, talab- talab tashlaysan, ular qilmishiga yarasha jazosini oladi.

– Bo‘pti, roziman, - deb javob beribdi kuchukcha.

Shu tariqa hurishni biimaydigan kuchukcha o‘ziga munosib ish topib olibdi, bir umr bo‘yniga zanjir tushib, kunda bir kosa suyak nasibasi bo‘libdi.

Ertakning uchinchi tugashi

Kuchukcha chopib ketaveribdi, chopib ketaveribdi... Birdan qulog‘iga qandaydir maxluqning: «Vov-vov! Vov-vov!» degan g‘alati ovozi chalinibdi-yu, taqqa to‘xtabdi.

«Qulog‘imga tanish va issiq eshityaptimi?» - o‘zicha o‘ylabdi kuchukcha. - Garchi bu qanaqa jonivor ovozi ekanini bilmasam ham yuragimga jiz etib tekkanday bo‘ldiya».

– Vov-vov!

– Balki bu jirafadir! Yo‘q, bu timsoh bo‘lsa kerak. Ha, bu xuddi o‘sha serjahl timsoh... Ehtiyot bo‘lish kerak.

Butalar orasiga bekinganicha kuchukcha «vov-vov!» degan ovoz kelayotgan tomonga emaklab ketibdi. Yo Xudoyim, bu ovoz uning yuragini buncha o‘ynatib yubormasa?!

– Bu hech shubhasiz, kuchuk bo‘lishi kerak!

To‘ppa-to‘g‘ri! Tag‘in kelib-kelib kimning kuchugi deng: kukulagan ovozni eshitib, haligina o‘q uzgan ovchining kuchugi bo‘lib chiqsa-ya!

– Salom, kuchuk!

– Salom, kuchuk!

– Nega bunaqa ovoz chiqaryapsan?

– Ovoz! Shuni bir bilib qo‘yki, bu shunchaki ovoz emas, balki hurishdir.

– Hurish deysanmi? Hali sen hurishni bilasanmi?

– Bilganda qandoq. Axir, ko‘rib turibsan-ku, filga o‘xshab dunyoni boshimga ko‘tarayotganim yoki sherga o‘xshab na‘ra tortayotganim yo‘q.

– Unda menga ham o‘rgat hurishni.

– Iye, hali sen hurishni bilmaysanmi?

– Yo‘q...

– Unday bo‘lsa quloq sol. Bu mana bunday qilinadi: «Vov-vov!..»

– Vov-vov! – kuchukcha birdaniga hura ketibdi. Sevinchi ichiga sig‘may: «Nihoyat, yaxshi ustozni topib oldim!» deb o‘ylabdi o‘zicha. Shu topda dunyoda undan baxtiyor maxluq yo‘qday tuyulibdi unga.

«RIM ERTAKLARI» TURKUMIDAN SHAHZODA PLOMBIR

Sinyor Molteni (uchinchi qavat, 12-kvartira) juda bezovta edi. U kreditga «Qo‘shaloq qutb» markali ajoyib

xolodilnik sotib oldi, ammo ikki oydirki, navbatdagi qarzni to‘lay olmayapti. Bir vaqt desangiz magazindan qo‘ng‘iroq qilib qolishdi-ku: «Yo darhol badalni to‘lab qo‘ying, yo xolodilnikni qaytaring». Biroq sinyor Moltenining na puli va na boyvachcha do‘stlari bor edi. Nima qilish kerak?

O‘sha kuni ertalab u xolodilnikka g‘amgin boqqancha uni asta-asta silab xuddi odam bilan gaplashayotganday shunday dedi: «Azizim, bir-birimizdan judo bo‘lmasak deb qo‘rqaman, sen ketsang, uyim dasht-u biyobonday huvullab qoladi!» Xolodilnik muz qotganday churq etmasdi, sinyor Molteni, baribir, uning nima demoqchiligini tushundi va xayrixohlik bildirdi: «Ha, buni bilaman, sen pul emas, sovuq chiqarishing kerak!»

Shu kuni ertalab sinyora Sandrelli (to‘rtinchi qavat, 15-kvartira) bir shisha sut olmoqchi bo‘lib, o‘zining oddiygina «Pingvin» xolodilnigini ochdi. Ochdi-yu, taxta bo‘lib qoldi: xolodilnikning ichi mayda-mayda odamchalar bilan liq to‘la edi! Odamchalardan biri, hatto tuxum ustiga chiqib o‘tirib olibdi.

Odamchalar egniga kumush korjoma va shaffof skafandr kiyib olishgandi, kiyimlari ostidan ularning sariyog‘ rangli yuzlari bilan och binafsha sochlari ko‘rinib turardi. Odamchalar moshrang ko‘zlari bilan sinyora Sandrelliga xotirjamgina qarab qo‘yishdi va loaqal joylaridan qilt etishmadi ham. Faqat haligi tuxum ustida o‘tirgani «Chao, chao!» degandek unga qo‘lini silkib qo‘ydi.

– Yo parvardigor, marsliklar! – qichqirib yubordi sinyora Sandrelli. – Ular bunchalik kichkina bo‘ladi deb xayolimga ham kelmagandi! Hoy, mening xolodilnigimda nima qilyapsizlar? Sen tirrancha, darrov tuxumdan tushchi, pachoq qilib qo‘yasan!

Biroq odamcha uning gapiga quloq solmadi. Shunda juda ham chaqqon ayol bo‘lgan sinyora Sandrelli astagina ikkita barmog‘ining uchi bilan uni ushladi-da, sardina balig‘i bankasi ustiga olib qo‘ydi.

– Marslikmisan yoki yo‘qmi, faqat shu narsa qulog‘ingda bo‘lsinki, bu yerda mening hukmim yuradi!

– Xolodilnik eshigini yoping, ichkariga issiq havo kiriyapti! – degan qat‘iy va amrona ovozni eshitdi sinyora.

– Nima, nima?

– Biz muz qoplagan sayyoradan uchib keldik, hali sizning ob-havoyingizga o‘rganganimizcha yo‘q. Iltimos, sizga buyurilganidek eshikni yoping.

– Menga buyruq berishga jur‘at etgan bahodir kimligini bilsam boladimi? – xitob qildi sinyora Sandrelli battar fig‘oni chiqib. – Undan tashqari, qanday qilib sizlar mening uyimga kirib oldingizlar?

– Oshxona derazasining darchasidan. Siz uni kechasi tasodifan gaz chiqib qolmasin degan o‘yda ochiq qoldirasiz-ku.

– E ha, aftidan, sizlar ko‘p narsadan xabardor ko‘rina-sizlar-ku.

– Bo‘lmasam-chi. Bosib olishdan ilgari biz sizlarning urf-odatlarinigizni, shuningdek, tilingizni ko‘p oy mobaynida o‘rganib olganmiz. Eshikni yoping!

– Nega endi zabt etishni kelib-kelib aynan mening xolodilnigimdan boshlashingiz kerak bo‘lib qoldi?

– Bu yog‘i bilan ishingiz bo‘lmasin. Buning ustiga biz bu uydagi xolodilniklarning hammasini zabt etganmiz. Shunday qilib, eshikni yoping va bizni o‘z holimizga qo‘ying!

– Yopadi deb xayolingizga ham keltirmay qo‘ya qoling! To‘g‘rirog‘i, yopaman-u, ammo xolodilnikni o‘chirib qo‘yaman, tushunyapsizmi? Bosib olish qanaqa bolishini ko‘rsatib qo‘yaman sizlarga!

Odamchalar ichidan bittasi barmog‘ini bigiz qilib – harholda keyinroq sinyora Sandrelli shunday hikoya qilib bergandi – stulni ko‘rsatib:

– Avval ana uni bir ko‘rib qo‘ying-chi! – deya taklif etdi.

Oq bo‘yoqqa bo‘yalgan stul birdan qip-qizarib, bir zumda hech qanday tutunsiz yonib ketdi. Undan faqat bir

hovuch kul qoldi, xolos. Buning hammasiga roppa-rosa o'ngacha sanashlik vaqt kifoya qilibdi.

– Tokni o'chirgudek bo'lsangiz, butun uyni yondirib yuboramiz.

Sinyora Sandrelli zarb bilan xolodilnik eshigini yopdida, darvozabonni

chaqirdi:

– Sinyora Anna, bilasizmi, nimalar bo'lyapti o'zi?

– Nima gap, sinyora Sandrelli? Isitish batareyasi sovib qolibdimi?

– Gap shundaki, haligi...

Sinyora Sandrelli bo'lgan gapni bir boshdan darvozabon ayolga so'zlab berdi. O'z navbatida u boshqalarga yetkazdi. Oradan bir oz vaqt o'tgach, uying birinchidan tortib to beshinchigacha bo'lgan barcha qavatdagi kvartiralarda bir xil voqea yuz berdi: xolodilniklarning eshiklari ochilishi bilanoq qayta yopilaverdi – ba'zilar hayron bo'lar, kimlarnidir qo'rquv bosar, hamma joyda hayrat va hayajon ovozlari eshitilardi. Sinyor Molteni ham o'zining «Qo'shaloq qutb»iga tashlandi va uning ichida kumushrang korjomalarda churq etmay o'tirgan kelgindilar to'dasi orasida baland bo'yi va ajoyib oltinrang korjomasi bilan ajralib turgan odamchani darrov payqadi.

– Balkim, siz bo'lsangiz kerak eng kattasi? – deb qiziqib so'radi Molteni, bu ajoyib “o'yinchoq”larni olmoqchi bo'lgan kichik qizining qo'lini itarib.

– Men shahzoda Plombirman, - javob qildi oltinrang korjomali odamcha. – Bizning tilimizda ismim, o'z-o'zidan ma'lum boshqacha jaranglaydi. Lekin siz uchun shunday desa ham bo'laveradi. Undan tashqari siz menga nisbatan “janobi oliylari” deb murojaat etishingizga to'g'ri keladi.

– Albatta, janobi oliylari, – rozi bo'ldi sinyor Molteni. – Siz janobi oliylari, bu yerda qanchalik uzoq turishlaringizni ayta olmaysizlarmi?

– Bu ob-havoga bog‘liq, - javob qildi shahzoda Plombir. – Yulduzlararo uchuvchi kemamizga yonilg‘i olishimiz uchun bizga yangi yoqqan qor kerak. Qor yog‘ishi bilan biz sayohatimizni davom ettiramiz. Shimoliy qutbga qo‘nmoqchi bo‘lib yo‘l olgandik, biroq bu yerga tushib qoldik.

– Bundan chiqdi, sizlar Yerda yashashni mo‘ljalayapsizlar, shundaymi?

– Men sizga aytdim-ku, Shimoliy qutbda deb. Sizlar baribir u yerda yashamayapsiz-ku. Sayyoramizning muzini eritib yuborishi mumkin bo‘lgan kometa bilan to‘qnashish xavfi tug‘ilib, “Somon yo‘li”ning bu qismidan boshpana qidirishimizga to‘g‘ri keldi. Men bosh razvedkachi otryadini boshqaraman. Biz Shimoliy qutbga joylashishimiz bilanoq sayyoramizga xabar qilamiz va u yerda qolgan barcha vatandoshlarimiz bu yerga yetib kelishadi.

– Qiziq, janobi oliylari, agar sir bo‘lmasa, qanchasizlar?

– Bor-yo‘g‘i, bir yarim milliard, Biz juda kamjoyni egalaymiz. Bordi-yu, Shimoliy qutbga yetib borganimizda ham sizlarga o‘zimiz haqimizda ma‘lum qilishni o‘ylamagandik, ko‘rib turibsizki, sharoit o‘zgarib qoldi. Endi esa, agar xizmat bo‘lmasa, eshikni yopib qo‘ysangiz, chunki bunday issiq havodan boshim og‘riy boshlaydi.

Sinyor Moltenining buyruqqa itoat etishdan o‘zga iloji qolmadi, so‘ng deraza yoniga kelib osmonga qaradi. Fevral oyi osmoni tiniq va ko‘m-ko‘k: quyosh bor nurini bahorning issiq kunlaridek saxiylik bilan sochib turadi. U mamnun kayfiyatda kaftini kaftiga bir-ikki ishqalab qo‘ydi.

– Tentak! – jahl bilan dedi sinyora Molteni. – Oshxonada bosqinchilar to‘lib yotibdi-yu, seni bo‘lsa sevinchdan og‘zing qulog‘ingda.

– Sening nimaga aqling yetuvdi o‘zi, – javob qildi sinyor Molteni, – omadimiz kelganini sen qayoqdan bilib o‘tiribsan?..

Shu daqiqada sinyora Moltenining qanday qilib omadlari kelganiga aqli yetmaganligi rost edi, chunki kimdir kvartira qo'ng'irog'ini chalib qoldi.

Bu «Qo'shaloq qutb» firmasining xizmatchisi edi.

– Sinyor Molteni, salom. Men xolodilnikni olib ketgani keldim. Yoki, balkim, siz, harholda, navbatdagi qarzingizni uzarsiz?

– Eh, ming afsuslar bo'lsinki, hozir yonimda sariq chaqa ham yo'q.

– Unday bo'lsa...

– O'z-o'zidan ma'lum, - dedi sinyor Molteni, - shunday bo'lgandan so'ng siz shunday qilishga majbursiz... Faqat sizning qo'lingizdan hech narsa kelmaydi.

– Qanday qilib qo'limdan hech narsa kelmas ekan?

– Janobi oliylari bunga ijozat etishlariga ko'zim yetmaydi...

– Tag'in qanaqa «janobi oliylari»? Ahmoqona hazilinizni qo'ysangiz- chi, sinyor Molteni...

– Bu yoqqa bir marhamat qilib yuboring, keling, bu yoqda, oshxonada biroz o'tiraylik.

– Mana bu boshqa gap.

– Ha, ammo oqibati siz o'ylaganday bo'lib chiqmaydi-da. Dunyoda shunaqasi ham bo'lar ekan.

Sinyor Molteni xolodilnikni ochdi-yu, shahzoda Plombirga o'z uzrini aytishga shoshildi.

– Janobi oliylari, kechirasiz, mana bu sinyor...

– Eshitdim, hammasini eshitdim. Hurmatli Molteni, bizning o'z aloqa usulimiz bor. Xotirjam bo'ling, ayni vaqtda xolodilnik menga qarashli. Unga hech kim qo'lining uchini ham tekkiza olmaydi.

– Qanday hazil bu? – «Qo'shaloq qutb» firmasi xizmatchisining jahli chiqib, ko'zlari olaydi. – Bu qanaqa mitti odamlar tag'in? Menga qarang, sinyor Molteni, pul to'lamaslik uchun siz qanday nayrang o'ylab topgansiz, hech aqlim yetmay qoldi, lekin sizga aytib qo'yayki, mening firmam

hali hech kimga o‘zini aldatib qo‘ymagan, sizdan ko‘ra pixi yorganlari ham unnab ko‘rgan paytlar bo‘lgan-u, ammo ud-dasidan chiqolmaganlar. Sizlar-chi, hoy mitti janoblar, marhamat qilib, o‘zingizga boshqa boshpana qidirib ko‘ring, juda bo‘lmaganda mana bu chanoq ichida. Mening firmam bu xolodilnikni qo‘lga kiritish payida bo‘lsa-yu, bir nechta arzimagan qo‘g‘irchoq bu maq- sadning amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ymay tursa, g‘irt sharmandalik-ku!

Bunday haqoratni eshitgan shahzoda Plombir va uning qo‘l ostidagilar qattiq g‘azablandilar. Ammo janobi oliylarin-ing ovozi hammanikidan baland va juda amrona jaranglar edi.

– Sinyor xizmatchi, jazo chorasi tariqasida stol ostiga kiring-da, qo‘lingizni og‘izingizga tiqib oling, ana shunday, hech bo‘lmaganda ovoz chiqarmay o‘tirasiz.

Bu hol g‘oyat jo‘n va shu bilan birga o‘ta ajablanarli sodir bo‘ldi, - shu zahotiyoc «Qo‘shaloq qutb» firmasini- ing xizmatchisi o‘nta barmoqlarini ham baravar og‘ziga ti- qib, stol tagiga kirib ketdi va yuzini devor tomonga o‘girib oldi. Faqat yig‘idan yelkalari silkinib-silkinib qo‘yayotgani ko‘zga tashlanib turadi. Moltenining oilasi hamjihatlik bi- lan qarsak chalib yubordi.

– Janobi oliylari, bu qanday qo‘lingizdan keldi, a?

– Arzimagan narsa-ku. Biz miyangizni obdan o‘rgan- ganmiz va sizlarni

bo‘ysundirish sirlarini egallab olganmiz. Endi eshikni yopib qo‘ysangiz ham bo‘laveradi. Xayr.

– Xayr, janobi oliylari! Doim xizmatingizga tayyorman! Endi sinyor Molteniga hech narsani tushuntirib o‘tirishiga hojat qolmagandi. U chaqqonlik bilan deraza yoniga keldi.

– Agarda shunday ob-havo uzoqroq turib berganda, qanday zo‘r bo‘lardi-ya! – dedi u hayajon bilan.

Rostdanam ob-havo ancha vaqtgacha uning ko‘ngli- dagidek bo‘ldi, ko‘m-ko‘k musaffo osmonda quyosh bir me‘yorda charaqlab nur sochib turdi. Bu orada samoviy kelgindilar xolodilniklarni bosib olishibdi, degan xabar

barcha gazeta sahifalarida bosilib chiqdi. Bosqinchilar deb nom olgan plombirlar bilan sayyoraning turli burchaklaridan yig'ilgan olimlar o'rtasida bo'lgan suhbatlar tafsilotini gazetxonlar benihoyat qiziqib o'qirdilar. Biroq, odatdagidek, odamlarni ko'proq turli-tuman oldi-qochdi gaplar qiziqtirardi. Ular shahzoda Plombir nonushtaga nima tamaddi qilganini, biroz shakar sepilgan oddiy muz taom, shuningdek, sinyora Sandrelli o'zining mehmonlaridan bilib olgan ma'lumotlarni (har xil muzlangan, o'z-o'zidan ma'lum, bir-biridan shirin taom turlarini) yozib olardilar hamda sinyor Molteni «Qo'shaloq qutb» firmasi sudga berganligidan qayg'urishardi. Xullasi kalom, Makmagon ko'chasidagi uy yonida yangilik kutib, ertalabdan kechga-cha odamlar hech arimasdi.

– Shahzoda Plombir yana qirq qizning sevgisiga ega bo'ldi...

– Aytishlaricha, eshik og'asining qizi ham unga maftun bo'lib qolganmish...

– Ikkinchi qavat, to'rtinchi kvartirada yashovchi plombirlar sariyog'dan allergik kasaliga chalinib qolganmish...

Shahzoda Plombir televizor orqali so'zga chiqishga rozilik berganida butun shahar aholisi ekranga juda yaqin o'tirib, qiziqib tomosha qildi. Shundan keyin beshala qit'adan minglab oshig'i shaydo o'z sevgisini unga izhor eta boshladi. Ammo shahzoda Plombir ularga o'zining nikohlangani, bo'lajak kelin o'z vatani Lun-Lun, ya'ni «gul bosgan muzlik»da istiqomat qiladigan bir qiz bilan qachonlardir beshikkerti qilib qo'yilganini ma'lum qildi.

Va nihoyat, osmonni kulrang bulut qopladi, meteorologlarning axborotiga ko'ra qor yog'ishi kutilardi. Plombirlar xolodilnikning eng pastki qismida, ko'katlar ostiga yashirib qo'yilgan o'zlarining yulduzlararo uchuvchi kemalarini olib, uchishga hozirlik ko'ra boshladilar.

Sinyor Molteni qattiq tashvishda edi. Sudda hamma nar-

sa uning foydasiga hal bo'lmayotgandi. U yaqin kamlarda yana og'ir vaziyatda qolishi mumkin edi; yo qarzni to'lab qo'yishi, yoki xolodilnikdan mahrum bo'lishiga to'g'ri kelayotgandi, U ertalab shundoq derazadan qaragan ekan, ko'chalar va uy tomlarini qalin qor qoplaganini ko'ribdi. «Hammasi tugadi! – debdi u. – Juda bo'lmaganda birinchi bo'lib bu yangilikni janobi oliylariga yetkazay».

Biroq shahzoda Plombir qor yoqqanidan xabardor edi.

– Ko'rdim, ko'rdim, – javob qildi u. – Biz xolodilnik eshigini ochmay turib ham ko'rish qobiliyatiga egamiz. Balkondan qor yig'ib oldik, yulduzlararo uchuvchi kemalarimiz uchishga shay.

– Unday bo'lsa, xayr-xo'sh! – bexos chuqur xo'rsindi sinyor Molteni. Ichida esa: «Alvido, senga ham, xolodilnigim!» – deb qo'shib qo'ydi.

– Yo'g'– e, – deya kuldi shahzoda Plombir, xuddi uning fikrini uqib turganday. – U bilan xayrlashmang. Mana bunga bir qarasangiz-chi! «Bu» degani bir varaq qog'oz bo'lib, unga shahzoda Plombir o'z qo'li bilan yirik-yirik harflarda bayonot yozgan edi (mitti odamchaga yirik harflar bilan yozish qanchalik qiyin bo'lganini ko'z o'ngingizga keltirib ko'ring-a). Bayonotning mazmuni quyidagicha edi: «Qo'shaloq qutb» markali xolodilniklardan birida menga nisbatan ko'rsatilgan mehmondo'stlik qilinganini o'zim uchun bir omad deb hisoblayman. Men butun javobgarlikni bo'ynimga olgan holda bu xolodilnikni Quyosh sistemasidagi eng ajoyib xolodilnik deb ma'lum qilaman. Shahzoda Plombir».

– Mana ko'rarsiz, – davom etdi janobi oliylari, – bunday reklamani olgandan so'ng «Qo'shaloq qutb» firmasi nafaqat to'lanmagan qarzni, hatto yangisini ham talab qilmaydi. Xolodilnikni o'zimizniki deb hisoblayverishingiz mumkin va siz bundan buyon bir chentezimo ham to'lamaysiz!

Shunday bo'ldi ham. Do'stlaridan birortasi puldan siqilib qolgundek bo'lsa, sinyor Molteni unga ko'pincha shunday tasalli berardi: – Tashvishlanma! Marsliklar joningga ora kiradi!

«TELEFONDA AYITILGAN ERTAKLAR» TURKUMIDAN QUTBDAGI GUNAFSHA

Bir kuni ertalab Shimoliy qutbda katta ayiq uyqudan uyg'onibdi. Uyg'onibdi-yu, havoni hidlay boshlabdi. O'ng tomonga qayrilib hidlabdi – hech nimaning isi kelmabdi, chap tomonga o'girilib hidlabdi – birdan g'alati bir hid sezibdi.

– Ha, – deb to'ng'illabdi ayiq yonidagi urg'ochi ayiqqa, – bu tomonga biror ekspeditsiya kelib qolganga o'xshaydimi?

Lekin shu payt ayiq bolalari sal naridan binafsharang gunafsha topib olishibdi. Gunafsha juda nimjon, poyasi ham ingichka ekan. U sovuqda dir-dir qaltirarmish, lekin sira bo'sh kelmay, dadil hid taratarmish, chunki bu uning burchi ekan-da.

– Oyi! Dada! - deb qichqirishibdi ayiqchalar.

– Shu atrofda g'alati bir narsa bor deb darrov aytdim-a, – debdi oq ayiq oilasiga. – Lekin, menimcha, bu baliqqa o'xshamaydi.

– Albatta, baliq emas, – debdi ona ayiq. – Qush ham emas.

– Ha, to'g'ri aytding, – debdi ayiq, xotining gapini chuqur o'ylab olgach.

Kechga borib bu yangi gap butun qutbga tarqalibdi. Bepoyon, ko'z ilg'amas muz sahrosida ushoqqina binafsharang jonivor paydo bo'lib, chor atrofga g'alati bir xushbo'y hid taratarkan. U birgina ingichka oyoqchasida qad ko'tarib turarmish va o'lmas emish. Gunafshani tomosha qilgani kelganlarning son-sanog'i yo'q

emish. Sibirdan bug'ular chopib kelishibdi. Amerikadan ho'kizsimon hayvon darak topib kelibdi, morj va tyulenlar suzib kelishibdi, qayoqdandir uzoq- uzoqlardan oq shimol tulkisi kelib qolibdi, bo'rilar yetib kelishibdi, birinchi bo'lib, albatta, chaqimchi dengiz zag'izg'onlari yetib kelishibdi. Hamma bu g'alati, yovvoyi gulni, uning ingichka qaltiroq poyasini ko'rib hang-u mang bo'libdi, uning nafis xushbo'y hididan to'yib-to'yib nafas olishibdi. Shunisi qiziqki, uning hidi kech kelganlarga ham yetibdi. Eng so'nggi daqiqada ham u avvalgiday hid taratib turibdi.

– Doirno shunday xushbo'y hid taratib turish uchun, – debdi tyulen, – butun bir omborxonaga ega bo'lish kerak. Uning muz tagida, qayerdadir hoynahoy ombori bo'lsa kerak.

– Men buni darrov sezgandim, o'sha zahoti aytdim-a, – debdi oq ayiq.

– O'sha yerda bir nimasi bor!

Ayiq hecham bunaqa demagandi, albatta, lekin hech kim uning gapirgan-gapirmaganini eslay olmabdi.

Hammadan keyin chayka qaytib kelibdi, uni g'alati notanish haqida biror narsa bilib kelgin, deb janubga jo'natishgan ekan, u nafasini rostlab olgach, bu kichkina xushbo'y jonivorning gunafsha deb atalishini, boshqa joylarda – janubda ular millionlab topilishini gapirib beribdi.

– Yuborgan elchimizni qarang-u, – debdi tyulen ensasi qotib. – Biz biror yangi gap bilganimiz yo'q. Xo'sh, bu gunafsha boshqa yerga emas, xuddi shu joyga qanday kelib qoldi? Yo'q, to'g'risini aytsam nima gapligiga hech aqlim yetmay qoldi, juda hayron bo'lib qoldim.

– U nima dedi, nima bo'lib qoldim dedi? – shivirlab so'rabdi ayiq xotinidan.

– Hayron bo'lib qoldim deyapti, – urg'ochi ayiq ham shivirlab javob beribdi. – Xullas, boshi qotib qolganmishda, qaysi oyog'ini bosishni bilmasmish.

– Ha, ha, – deb gapni ilib ketibdi ayiq. – Men xuddi shunday deb o‘ylovdim-a, ko‘nglimda xuddi o‘sha so‘zlarni takrorlovdim-a.

O‘sha kuni kechasi butun qutb kuchli qars-qurs va gumburlashdan larzaga kelibdi. Butun-butun muz parchalari dag‘-dag‘ qaltirab, oynaday chirs-chirs sinibdi. Bechora gunafsha muzday havoga o‘zidagi bor muattar hidini taratibdi, go‘yo u bu bepoyon muz sahrosini bir zumda eritib, iliq moviy dengizga yoki ko‘m-ko‘k maysa bilan qoplangan poyonsiz ko‘kalamzorga aylantirmoqchi bo‘layotganday edi. Keyin gunafsha holdan toyib, boshini egib, qaddini bukibdi-yu, shu-shu boshqa o‘midan turolmabdi.

Tongda hamma gunafshaning so‘lib qolganini ko‘ribdi, u ingichka tolasida egilib, oppoq qor ustida rangsiz va jonsiz yotganmish. Agar uning oxirgi o‘y-fikrlarini so‘zda ifodalash mumkin bo‘lsa, biz, hoynahoy quyidagi so‘zлами eshitgan bo‘lardik:

«Mana, men o‘lyapman. Lekin kimdir boshlashi kerak edi-da. Qachonlardir bu yerda million-million gunafsha ochilib yotadi. Muzlar eriydi, orollar hosil bo‘ladi, ulardan bolalarning qo‘ng‘iroqday sho‘x kulgisi eshilib turadi».

HECH QAYOQQA OLIB BORMAYDIGAN YO‘L

Uylar tamom bo‘lgandan keyin qishloqning katta ko‘chasidan uch yo‘l ajralib chiqarkan. Bir yo‘l dengizga olib borarkan, boshqasi to‘g‘ri shaharga borarkan, uchin-chisi hech qayoqqa olib bormas ekan.

Martino buni juda aniq bilarkan, chunki uning so‘ramagan odami qolmabdi, hammasi ham bir xil javob qilibdi.

– Qaysi yo‘l, huv anovi yo‘lmi? Hech qayoqqa olib bormaydi. U yo‘ldan yursang bekor charchaganing qoladi.

– U yo‘l qayergacha boradi?

– Hech qayerga bormaydi deyapman-u, tushundingmi?

– Unda nega qurishgan?

– Uni hech kim qurgan emas. U doimo bo‘lgan.

– Nahotki bitta-yarimta borib ko‘rmagan ham?

– Voy, judayam o‘jar ekansan-da! U yerda hech nima yo‘q deyapman- ku senga, demak, ko‘radigan narsaning o‘zi yo‘q.

– Siz qayoqdan bilasiz, siz axir u yerda hech qachon bo‘lmagan- siz-ku.

U shunaqayam o‘jar, so‘zini o‘tkazadigan, sabotli ekan-ki, qishloqda hamma uni Martin o‘jar deydigan bo‘libdi. Lekin u bu laqabga hecham xafa bo‘lmabdi, hamon o‘sha hech qayoqqa olib bormaydigan yo‘l haqida o‘ylayveribdi.

Oradan ozmi-ko‘pmi vaqt o‘tibdi. Martino o‘sib, ulg‘ayib, ko‘chadan buvasining qo‘lidan ushlaymay o‘tadigan yoshga yetibdi. Kunlardan bir kun u saharlab turib, qishloqdan chiqibdi-da, o‘ylab-netib o‘tirmay, o‘sha sehrli yo‘ldan ketaveribdi. U sira to‘xtamay oldinga ketaveribdi, ketaveribdi, yo‘l bo‘lsa tobora yomonlasha boribdi. U yer-bu yerda tarvaqaylab o‘sgan o‘tlar paydo bo‘libdi, o‘nqir-cho‘nqirlarning hisobi yo‘q emish. Yaxshiyamki, havo issiq ekan, bo‘lmasa hamma yoqni ko‘lmak suv bosib, o‘tishning iloji qolmasdi. Avvaliga yo‘lning ikki tomonida ham changalzor boshlanibdi, birozdan keyin o‘rmon kelibdi. Osmono‘par bahaybat daraxtlar baquvvat shoxlarini bir-birlariga cho‘zishib, yo‘l ustida balandlikda chirmashib ketishganmish: ko‘rinishdan u hecham yo‘lga o‘xshasmish, ko‘proq qorong‘i, zax tunnelga o‘xshab ketannish. O‘qtin-o‘qtin quyosh nuri barglar orasidan yerga tusharkan, xuddi kechasi dengizdagi mayoqday oldinda porlab turarkan.

Martino yuraveribdi, lekin tunnel tugamabdi, yo‘lning ham keti ko‘rinmabdi. Juda tinka-madori quribdi, oyoqlarini ko‘tarolmay qolibdi. Endi orqaga qaytmasa bo‘lmas, deb o‘ylabdi. To‘satdan qayoqdandir it paydo bo‘lib qolibdi.

«Bo‘ldi, - deb o‘ylabdi Martino, - it bor joyda xonadon, juda bo‘lmasa odam bo‘ladi».

It uning oldiga chopib kelibdi, dumini likillatib, qo‘lini yalabdi-yu, yana qorong‘i yo‘ldan chopib ketibdi. It chopib borayotib, Martino kelyaptimi-yo‘qmi deb orqasiga qarab-qarab qo‘yarmish. Ozgina yurib, yana to‘xtab qararmish.

– Ha, men ketyapman, ketyapman, – debdi Martino, lekin o‘zicha: «Tavba, bu qanday mo‘jiza?» deb o‘ylabdi.

Mana, o‘rmon ancha siyraklashib osmon ko‘rina boshlabdi. Yo‘l kattakon temir darvozaga kelib taqalibdi-yu, ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi.

Martino yo‘g‘on po‘lat panjaradan mo‘ralab qarabdi – park o‘rtasida saroy turganmish. Saroyning eshik va derazalari lang ochib qo‘yilganmish, mo‘rilaridan buralib-buralib tutun chiqayotganmish, balkondan esa chiroyli bir sinyora qo‘l siltayotganmish - sinyora shunaqa go‘zal, shunaqayam barno ekanki, Martino bunaqangi sohibjamolni hech ko‘rmagan ekan.

– Kir, kirgin, Martin o‘jar! – deb qichqiribdi sinyora.

– Ana, xolos, – deb g‘o‘ldirabdi Martino xursand bo‘lib. – Bu yoqqa kelib qolishimni o‘zim ham bilmagandim, u bo‘lsa meni darrov tanidi-ya.

Martino uzoq o‘ylab o‘tirmay, eshik tavaqasini itarib ochibdi, parkdan o‘tib saroy zaliga kiribdi. Shunday kishi bilan sinyora chiroyli zinadan tushib, unga peshvoz kelayotganmish. Shunday dilbar, chiroyli ekanki, ta‘rifga til ojizmish. Kiyimini aytmaysizmi. Farishta-yu malikalar uning oldida ip esholmasmish. U zinadan tushib kelayotib, ichagi uzilguday bo‘lib, qotib-qotib kularmish. Sinyora judayam sho‘x, quvnoq bo‘lsa kerak.

Martino unga ta‘zim qilibdi-da, qani bu yog‘i nima bo‘larkin, deb kutib turibdi.

– Shunday qilib, – debdi sinyora quvnoqlik bilan, – ishonmading-a?

– Nimaga?

– Nimaga bo‘lardi? Yo‘lning hech qayoqqa olib bormasligiga-da.

– Bu bir bema’nilik-da, shuning uchun ham ishonmadim. Men o‘zimcha shunday o‘ylayman: bu dunyoda xilma-xil joylar son ming, to‘lib-toshib yotibdi, yo‘llar juda oz.

– To‘g‘ri. Doim biror yangilik ko‘rish mumkin, xohish bo‘lsa bas. Eng muhimi – bir joyda o‘tirmaslik kerak. Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra, degan gap bor-ku. Endi yur, men senga saroyni ko‘rsataman.

Voy-vuy, saroyda xona, zal, bo‘lmalar shunaqayam ko‘pki, sanog‘iga yetib bo‘lmaydi! Yuzdan oshiq bo‘lsa oshiqki, kam emas. Har xonada zeb-ziynat, qimmatbaho buyumman deganing tiqilib yotganmish. Xuddi uyqudagi malika yoki butun umri befoyda boyliklarini deb so‘lib, adoyi tamom bo‘lgan o‘lmas kasheyning afsonaviy qasriga o‘xshaydi-ya!

Bu yerda istagan narsani topish mumkin ekan! Bebaho olmos deysizmi, chaq nab turadigan toshlar deysizmi, oltin-u kumushlarni gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi.

U quvnoq sinyora bilan saroy zallarini aylanib yurarkan, sinyora hadeb takrorlabdi:

– OI, olaver, ko‘nglingga yoqqanini olgin, sira tortinma. Olib ketishga qiynalsang, karetamni beraman.

Martinoning ko‘p narsa so‘rab o‘tirishiga hojat ham qolmabdi. U ketayotganda bunday qarasa, kareta oltin-u qimmatbaho toshlarga to‘lib-toshib yotganmish. Izvoshchi o‘tiradigan joyda it o‘tirganmish. O‘zimizning xonaki oddiy it emas, o‘qigan it emish. U otlarni juda ustalik bilan haydab boribdi, otlar yurishni sekinlatsa yoki yo‘ldan chetga chiqsa, it qattiq vovullarmish.

Tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ida esa hamma Martinoni o‘ldiga chiqarib qo‘yibdi, uni tirik ko‘rishga hech kim umid qilmay qo‘ygan ekan. Martino o‘jarning qishloqqa piyoda emas, karexada kirib kelganini ko‘rib, hamma hang-u mang

bo'lib qolibdi, odamlar ko'zlariga ishonishmabdi. Izvoshchi it karetdan hamma boylıklami yerga tushiribdi-da, hurmat-ehtirom yuzasidan dumini ikki marta likillatibdi-yu, karetaga o'tirib jo'nab qolibdi. U bir zumda ko'zdan g'oyib bo'libdi, orqasidan chang to'zoni ko'tarilib qolibdi.

Martin do'stlariga ham, dushmanlariga ham talay sovg'a-salom beribdi, boshidan kechirgan sarguzashtlarini ularga yuz martalab hikoya qilibdi. U hikoyasini tugatar-tugatmas eshitib o'tirganlardan goh bittasi, goh boshqasi uyiga chopib borarkan-da, otni aravasiga qo'shib, hech qayoqqa olib bormaydigan yo'ldan choptirib ketarkan. Biroq o'sha kuni kechqurun ular horib-charchab, darg'azab bo'lishib qup-quruq qaytib kelisharkan. Ulardan ba'zilari, yo'l o'rmon o'rtasida - daraxtlar orasida yo'qolib qoldi, boshqalari yo'l o'tib bo'lmas changalzorga borib taqalar-kan, deb hikoya qilisharkan. Hech kim hech qanday temir darvozani, shohona saroyini, go'zal sho'x sinyorani ko'rmabdi! Chunki shunday xazinalar bor emishki, ular hamma mashaqqatlarni yengib o'tib, o'sha yerga birinchi bo'lib borgan odamgagina ochilarkan. Mana, masalan, Martin o'jarga o'xshagan odamlar o'sha xazinadan bahramand bo'larkan.

G'ALATI YOMG'IR

Bir kuni Pombinoda g'alati yomg'ir – obaki yomg'ir yog'ibdi. Ular xuddi do'lday duv-duv to'kilaveribdi: faqat bu do'llar bo'lmay, xilma-xil rangda emish – yashili ham, binafsha rangi ham, ko'ki ham bormish. Bir bola, bu ni-maykin, deb juda qiziqib qolibdi. U obakining yashilini olibdi-da, shartta og'ziga solibdi. Shu zahoti og'zi yalpi-zli obaki egandagidek, muzlab ketibdi. Boshqa bir bola qizg'ishini yeb ko'rgan ekan, shu zahoti qulupnay hidi kelibdi.

– Bu konfet! Bu konfet!– deb qichqirishibdi bolalar.

O‘sha zahoti kattalar ham, bolalar ham ko‘chaga chopib chiqishibdi-da, obakilarni terib cho‘ntaklariga solaverishibdi. Biroq ular qanchalik urinishmasin, yelib-yugurishmasin konfetlarning hammasini terib olisholmabdi, chunki yomg‘ir jala bo‘lib quygan ekan-da.

Bu g‘alati yomg‘ir birpasda tinibdi, lekin kam yog‘sa ham ko‘chalarga konfetlar to‘lib ketibdi. Xuddi gilamday to‘sholib, odamlarning oyog‘i tagida g‘irch-g‘irch qilarmish. Maktabdan qaytib kelayotgan o‘quvchilar ham jild va portfellariga konfet to‘ldirib olishga ulgurishibdi. Kampirlar bo‘lsa, boshlaridan ro‘mollarini yechib to‘ldirib konfet tugib olishibdi. Ko‘pligidan ro‘mollari yirtilib ketay-yirtilib ketay dermish.

Ajoyib kun bo‘libdi-da! Chinakam bayram!

Ko‘plar o‘sha kunni hali-hali eslab yurisharmish, yana qachon osmondan konfet yog‘arkin deb kutisharmish. Biroq keyin na Pombino, na Turino, na Kremeno tepasida konfetli bulut hosil bo‘libdi.

POLVONNING SOCHI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, to‘rt aka-uka yashagan ekan. Uchtasi kichkina, pakana ekan-u, biroq ayyorlikda tulkidan ham o‘tarkan. To‘rtinchisi juda pahlavon, tog‘ni ursa talqon qiladigan kuchi bor ekan-u, lekin o‘lgudek sodda ekan, bunaqasi etti iqlimdan topilmas ekan.

Uning butun kuchi qo‘llarida, aqli – sochida ekan. U doim ahmoq bo‘lib qolsin deb ayyor aka-ukalari uning sochini qirdirib tashlashibdi. Sochini qirdirib tashlashar ekan-u, keyin hamma ishni unga tashlab qo‘yisharkan. Baxtiga uning kuchi bor ekan. O‘zlari bo‘lsa qo‘llarini qovushtirganlaricha, uning ishlashini tomosha qilib o‘tirisharkan,

hamma pulni esa o‘zaro bo‘lib olishib, hamyonlariga solisharkan.

Ayyor aka-ukalari polvonni xo‘p ishlatisharkan, qildir-magan ishlari qolmas ekan. U dalada er haydarkan, o‘tin yorarkan, tegirmon toshini aylantirarkan. Hatto uni ot o‘rnida aravaga ham qo‘shishibdi. Uchchalovi aravadagi qoplar ustiga o‘tirib olishib, qamchini polvonning boshida tinmay silkitisharkan. Ular polvonning bo‘yniga qarashib:

– Sochning kaltaligi qanday yaxshi-a, –deyisharkan.

– Ha, to‘g‘ri gap to‘g‘riligicha qoladi. Husn sochda emas, deb bekor aytishmagan-da.

– Mana buni qara, shu ham soch bo‘ldimi, hurpayib turibdi, judayam o‘sib ketibdi-ya, o‘rsa bo‘ladi-ya. Bugun kechqurun, qaytib borishimiz bilan qirib tashlash kerak.

Shunday deyisharkanu, bir-birlariga ko‘zlarini qisib, tirsaklari bilan bir-birlarini turtishib, xaxolab kulisharkan. Polvon ularni bozorga olib kelarkan, aka-ukalari mollarini sotishib, hamyonlarini pulga to‘ldirishib, to‘g‘ri qovoqxonaga ketisharkan. O‘zlari ketisharkan, ahmoq polvon bo‘lsa aravani qo‘riqlab qolarkan.

To‘g‘ri – unga ovqatni to‘yguncha berisharkan, chunki u to‘rt kishining ishini qilarkan-da. Ichkilikni ham ayashmas ekan, vino tekin bo‘lgani uchun istaganicha berisharkan.

Kunlardan bir kun polvon kasal bo‘lib kolibdi. Aka-ukalari juda qo‘rqib ketishibdi, o‘lib qolsa juda alam qiladi-da. Axir, u hali qancha ishlashi kerak. Aka-ukalari uni davolagani eng qimmatbaho dori-darmonlardan olishibdi, hatto nonushtasini ham yotgan joyiga olib kelib berisharkan. Bittasi yostig‘ini to‘g‘rilab qo‘ysa, ikkinchisi ko‘rparasini yaxshilab yopib qo‘yarkan. Atrofida parvona bo‘lishib, hadeb shunday deyisharkan:

– Ko‘rdingmi, seni qanchalik yaxshi ko‘ramiz? Iltimos, o‘lmagin, bunaqa ahmoqlik qilmagin.

Ular polvonning sog'ligi haqida qayg'urishib, uning sochiga butunlay qaramay qo'yishibdi. Soch bo'lsa o'saveribdi, o'saveribdi, shunaqayam uzun bo'lib ketibdi, hech qachon bunchalik uzun bo'lmagan ekan. Sochi bilan polvon aql-hushini ham yig'ib olibdi. U sekin akalarining xatti-harakatini kuzatib, ko'rgan-bilganlarini ko'ngliga tugib qo'yaveribdi.

Ko'p o'tmay u aka-ukalarining yovuzligini, o'zining soddaligini, go'lligini fahmlabdi. Lekin sir boy bermabdi. O'rinda jim yotaveribdi. Rosa kuch-quvvatga to'lishini kutibdi. Bir kuni ertalab o'riidan turibdi-da, hali shirin uyquda yotgan aka-ukalarini xuddi kolbasaga o'xshatib bog'labdi-yu, aravaga ortibdi.

– Bizni qayoqqa olib ketyapsan, mehribon ukajon, seni jonidan ham ortiq sevuvchi akalaringni kayoqqa olib ketyapsan?

– Shoshmanglar, hammasini o'z ko'zlaring bilan ko'rasizlar,– debdi u.

U akalarini stansiyaga olib kelibdi-da, toyga o'xshab taxlabdi-yu, vagonga ortibdi. Xayrlashayotib, shunday debdi:

– Istagan tomonlaringga ketinglar, faqat uzoqroq bo'lsin, bu yerlarga boshqa qadam bosmalaring. Meni shuncha ermak qilganlaring yetar. Endi mana men xo'jayinman.

Shu payt parovoz gudok chalib, poezd o'rnidan jilibdi-yu, ayyor aka-ukalarni noma'lum tomonlarga olib ketibdi. Shu-shu ulardan hech qanday darak yo'q emish.

TESKARI SAVOLLAR

Bor ekan-da, yo'q ekan, bir bola yashagan ekan. U kuni o'tgan-ketganga savol berish bilan o'tkazarkan. Buning hech yomon tomoni yo'q, aksincha, havas, qiziqish yaxshi odat, har qancha maqtasa arziydi. Lekin eng chatoq joyi shunda ekanki, bu bolaning savollariga hali hech kim javob berolmagan ekan.

Masalan, u bir kuni kelib:

– Nega yashiklarning stoli bor? – deb so‘rabdi.

Odamlar hayron bo‘lib qarashar yoki har ehtimolga qarshi shunday javob qilisharkan.

– Yashiklar u-bu narsa solib qo‘yish uchun xizmat qiladi. Masalan, aytaylik, qoshiq-vilkalar solib qo‘yiladi.

– Yashiklarning nima uchun kerakligini o‘zim ham bilaman. Nega yashiklarning stoli bor?

Odamlar bosh chayqashib, uning oldidan tezroq ketib qolisharkan.

Boshqa safar u:

– Nega dumning balig‘i bor, – deb so‘rabdi.

Yoki bo‘lmasa:

– Nega mo‘ylovning mushugi bor?– deb so‘rabdi.

Odamlar hayron bo‘lib, elkalarini qisib ketishga shoshilarkan, chunki hammaning ham o‘z ishi, o‘z tashvishi bor ekan.

Bola o‘sib, ulg‘ayibdi-yu, lekin o‘sha «negalab» savol berish odatini hali-hali tashlamabdi. Hozir ham savolni teskari berarkan. Hatto katta bo‘lganida ham, hammaga savol berib yurarkan. Lekin hech kim uning savoliga javob berolmas ekan, albatta. Uning juda hafsalasi pir bo‘lib, tog‘ cho‘qqisiga teskarisiga chiqib ketibdi, u erda o‘ziga kulba quribdi-da, yotib olib yangi-yangi savollar to‘qiy boshlabdi. O‘ylab topgan savollarini daftarga yozib bori-bdi, keyin ularga javob topish uchun, rosa bosh qotiribdi. Lekin o‘z savollaridan bittasiga ham javob topolmabdi.

a) Savollarni o‘zingiz bir ko‘ring:

«Nega soyaning qarag‘ayi bor?»

«Nega bulutlar xat yozishmaydi?»

«Nega pochta markazlari pivo ichishmaydi?»

U ko‘p o‘ylaverganidan boshi og‘riy boshlabdi, lekin u bunga e‘tibor bermay, ustma-ust savollar o‘ylab topaveribdi. Sekin-asta uning soqol-mo‘ylovi o‘sibdi, lekin qirqti-

rishni xayoliga ham keltirmabdi. Buning o'rniga u yangi savol o'ylab topibdi:

«Nega soqolning yuzi bor?»

Xullas, u juda g'alati odam ekan, bunaqasi kam uchrasa kerak. U o'lgandan keyin bir olim uning hayotini o'rganib, juda g'alati bir ilmiy kashfiyot yaratibdi. Ma'lum bo'lishicha, bu savolchi odam bolaligidan paypog'ini teskari kiyishga odatlangan ekan, keyin butun umr teskari kiyib yuribdi. Biron marta u paypog'ini to'g'ri kiyolmagan ekan. Shuning uchun ham u umrining oxirigacha to'g'ri savol berishga o'rganolmagan ekan.

Sen paypog'ingni bir ko'rgin-a, to'g'ri kiyibsanmi-yo'qmi?

KO'RINMAS TONINO

Bir kuni Tonino ismli bola darsini tayyorlamagan ekan. Maktabga ketayotib, mendan so'rab qolmasaydi, deb juda qo'rqibdi.

«Eh, qani endi ko'rinmas bo'lib qolsam!» – deb o'ylabdi u o'zicha.

Daryo odatdagiday yo'qlamadan boshlanibdi. O'qituvchi Toninoning familiyasiga yetganda, u «shu yerdaman» deb javob beribdi, lekin uning javobini hech kim eshitmabdi, o'qituvchi bo'lsa shunday debdi:

– Afsuski, Tonino kelmabdi-da. Shu bugun undan so'ramoqchi edim-a. Agar kasal bo'lib qolgan bo'lsa, umid qilamizki, yengil o'tib ketar.

Tonino orzusi ushalib, o'zi ko'zga ko'rinmas bo'lib qolganiga endi ishonibdi. U xursand bo'lganidan parta tagidan probkaday otilib chiqibdi-yu, to'ppa-to'g'ri qog'oz parchalariga to'la axlat savatiga borib tushibdi, savatdan chiqqach, sinfda u yoqdan-bu yoqqa yugurib yuribdi, o'rtoqlarining sochidan yulqilab tortibdi, siyohdonlarni ag'daribdi. Sinfda

g'ala-g'ovur ko'tarilibdi! Hamma bolalar o'zaro urishib ketishibdi, bir-birlaridan xafa bo'lishibdi, biroq bu hiylanayranglarning hammasiga faqat birgina ko'rinmas Tonino aybdor ekanligi hech kimning xayoliga kelmad.

Nihoyat bu ermak Toninoning joniga tegibdi. U maktabdan chiqibdi-da, trolleybusga tushibdi. U bo'sh joyga borib o'tiribdi, lekin bilet olishni o'ylamabdi ham. Yaxshiyamki, konduktor bari bir uni ko'rmaydi. Keyingi bekatda og'ir sumka ko'targan bir sinora chiqibdi. Bunday qarasa, Tonino o'tirgan joy bo'sh ko'rinibdi. Sinora odam o'tirganini xayoliga ham keltirmay og'ir sumkasini to'ppa-to'g'ri Toninoning tizzasiga qo'yibdi. Bechora Tonino dimiqib qolay debdi, sinora bo'lsa birdan baqirib qolibdi:

– Axir, bu nima degan gap? Bu qanaqa tovlamachilik? Endi trolleybusda ham tinch o'tirolmaymizmi? Buni bir ko'ringlar-a, sumkamni qo'ysam, u havoda osilib turibdi!

Hamma passajirlar baravariga gapirib ketishibdi, rosa tortishibdi, har bir shahar transporti boshqarmasini og'ziga kelgan so'zlar bilan so'ka boshlabdi.

Markazga yetganda Tonino trolleybusdan tushibdi-da, bir maza qilay deb qandolatchilik magaziniga kiribdi! Avvaliga u o'zini pirojniy va shirin bulkalar solingan vazalarga uribdi, ikki qo'llab yeyishga tushibdi, keyin turli shirinliklarni hovuchlab cho'ntagiga sola boshlabdi. Sotuvchi ayol tokchalarning bo'shayotganini ko'rib, qari xolasiga konfet olayotgan bir sersavlat sinordan shubhalanib qolibdi. Sinorning jahli chiqib, e'tiroz bildiribdi, albatta.

– Nima? Men o'g'rimanmi? Kim bilan gaplashayotganingizni bilasizmi? Mening otam kim bo'lganini bilasizmi? Bilasizmi, mening buvam kim bo'lgan? Bilmayman, bilishni ham istamayman, – deb shartta gapini bo'libdi sotuvchi ayol.

– Nima? Mening buvamni haqorat qilishga qanday haddingiz sig'di!

Ikkovi rosa g'ijllashib ketishibdi, hech tinchitib bo'lmabdi. Politsiyachi chopib kelibdi. Ko'rinmas Tonino leytenantning oyoqlari orasidan lip etib o'tibdi-da, o'rtoqlarining chiqishini ko'rish uchun maktabga chopib ketibdi. Mana, eshiklar ochilib o'quvchilar chiqa boshlabdi, yo'q, chiqishmabdi, xuddi qor uyumiday zinadan gur etib yopirilishibdi. Tonino ularning hammasini ko'ribdi-yu, uni hech kim payqamabdi. U behudaga goh u bolaning, goh bu bolaning oldiga chopib boribdi, oshnasi Robertoning sochidan tortibdi, behudaga do'sti Giyskardaga konfet uzatibdi. Uni ko'rishmabdi, uni hecham, sira ham payqashmabdi. Go'yo u shishadan qilinganday, bolalar uning ortida turgan boshqa bolalarni ko'rarmish.

Tonino horib-charchab, g'amgin uyiga qaytibdi. Oyisi uni kutib turgan ekan. U balkonda turib, pastga qararmish.

– Oyi, men shu yerdaman!– deb qichqiribdi Tonino.

Biroq, oyisi uni ko'rmabdi. Ko'rmabdi ham, uning qichqirganini eshitmabdi ham. Oyisi xavotirda go'yo o'g'li bu erda butunlay yo'qday Toninoning boshi osha ko'chaga, uzoqlarga tikilibdi.

– Mana, dada, men keldim!–debdi Tonino stol yonidagi o'z joyiga o'tirarkan.

Biroq dadasi tashvish aralash derazaga qarabdi-da, g'o'ldirabdi:

– Nega Tonino shu vaqtgacha kelmayapti-a? Unga biror gap bo'lmadimikin?

– Axir, men shu erdaman-ku, o'tiribman-ku! Oyi! Dada!–deb qich-qiribdi Tonino.

Biroq ular uning ovozini eshitishmabdi.

Toninoning ko'zlaridan yosh chiqib ketibdi, u achchiq-achchiq YIG'labdi. Uning ko'z yoshini hech kim ko'rmagandan keyin yig'lagandan nima foyda?

– Ortiq ko'rinmay yurishni istamayman!– deb ingrabdi Tonino, uning yuragi ezilganidan tars yorilguday bo'libdi.– Dadamning meni ko'rishini istayman, mayli, oyim

meni koyisin, mayli, maktabda mendan dars so'rashsin! O'rtoqlarim bilan o'ynashni istayman! Ko'rinmay yurish qanday yomon ekan! Yakka-yolg'iz bo'lish qanday yomon!

U zinadan sekin, bir-bir qadam bosib tushibdi-da, xovliga chiqibdi.

– Nega yig'layapsan?— deb so'rabdi sal narida oftobda isinib o'tirgan chol.

Tonino entikib ketibdi.

– Siz meni ko'ryapsizmi?—deb so'rabdi.

– Albatta ko'ryapman. Men seni har kuni, maktabdan qaytib kelayotganingda ko'raman.

– Men sizni negadir hecham ko'rmasdim.

– Men bilaman, menga hech kim e'tibor bermaydi, meni nazar-pisand qilishmaydi. Keksa pensionerman, so'qqaboshman... Menga qarash bolalardan qaysi birining esiga kelardi? Men sizlar uchun ko'rinmas odamday bir gapman-da.

Shu payt oyisi balkondan qichqirib qolibdi:

– Tonino!

– Oyi, meni ko'ryapsizmi?

– Uh, qaytaga seni ko'rmaganim yaxshi edi! Qani, uyga kir! Hozir dadang sen bilan bir gaplashib qo'ysin...

– Ketyapman, oyi, ketyapman!— deb qichqiribdi Tonino ichiga sig'may.

– Demak, kaltak eyishdan ham qo'rqmas ekansan-da? — debdi chol kulimsirab.

Tonino yugurib borib cholning bo'ynidan quchoqlabdi-yu, serajin yuzidan cho'lp-cho'lp o'pib debdi:

– Siz meni qutqardingiz.

– E, endi judayam oshirib yubording,— debdi chol.

YASHIL TUXUM

Keksa Omobono qishloq chekkasidagi mo'jazzgina uyda bir o'zi yashardi. Uning bolalari yo'q, xotini esa hayotdan

allaqachon ko‘z yumgandi. Binobarin u tovuqxonadagi tovuqlari, cho‘chqaxonadagi axta cho‘chqalari, og‘ilxonadagi eshagi bilan umrguzaronlik qilardi. Eshak unga yer haydashda yordam berardi. Axta cho‘chqalarnnng esa hech narsada yordami tegmasdi. Biroq Omobono ularni bekorga so‘qimga boqmayotgandi – ertami-kechmi ularning vetchina, kolbasa va sosiskaga aylanishini bilardi. Tovuuqlar esa ketma-ket tuxum tug‘ib berardi.

Bir kuni ertalab Omobono yangi tuxumlarni yig‘gani tovuqxonaga bordi, uyga qaytib kelib qarasa, savatida oq tuxumlar orasida bitta yashil tuxum ham turibdi.

– Bunaqasini sira ko‘rmagandim,– ming‘irladi u o‘zicha. Keksalar ko‘pincha o‘zlari bilan o‘zlari ovoz chiqarib so‘zlashishini hamma biladi,–Yashil tuxum! Garrov bog‘lab aytamanki, bu Pimpaning ishi. Bu tovuq o‘zi ko‘pdan beri g‘alati bo‘lib qolgan, xuddi kimdir uni ko‘rqitganday. Yashil tuxum-a. Bu haqida to‘ppa-to‘g‘ri gazetaga yozaversa ham bo‘ladi!– U tuxumni olib qulog‘iga tutdi.

– Qarang-a! Shunaqa yangiliklar! O‘zi tuxumdayin tuxum-u, xuddi mashinaga o‘xshab guvullashini qarang. Uning ichidagi sarig‘i o‘rnida go‘yo motor joylashganday.

Qariya oq tuxumlarni idish-tovoq javoniga joyladi, yashilini esa stol ustiga qo‘yib, tomosha qila boshladi. Guvullagan tovush tingandek bo‘ldi, biroq Omobono tuxumni qulog‘iga yaqinlashtirdi deguncha ovoz yana eshitila boshladi.

Shunda Omobono choy qoshig‘ini olib, avaylabgina tuxumning po‘stini chaqdi va ichiga nazar tashlash niyatida ikki-uch bo‘lak po‘stlog‘ini ko‘chirib oldi, biroq qo‘rqib ketib darhol uni stol ustiga qo‘ydi. Buni qarangki, hozirgina chaqilgan joydan kattaligi tirnoqdek keladigan odamchalar chiqib kela boshladi. Omobono oldiniga o‘ntacha odamcha sanadi, keyin yana o‘ntacha sanadi, keyin yana o‘nta... Ularning hap biri yelkasida nimanidir ko‘tarib olgan yoki

ko'z ilg'amas ip bilan nimanidir tortib borardi, lekin nima tortib borayotganini sira tushunib bo'lmasdi. Odamchalar bir zumda har tomonga tarqalib ketishdi. Kimdir buyoqqa, kimdir uyoqqa shoshilardi. Ba'zilari go'yo bolg'achalari bilan nimanidir qoqishar, boshqalari arralardi. Hammalari nihoyatda ahillik bilan, bir yoqadan bosh chiqarib, tez, tirishib va oshiqcha shov-shuvsiz mehnat qilishardi. Biroq Omobono stolga engashib quloq solgan edi, u boltaning taq-tuqi, qasir-qusir, g'ichir-g'ichir va hatto kimlarningdir buyruq berayotgan ovozlarini eshitdi.

«Bu, hoynahoy, boshliqlar bo'lsa kerak», o'zicha o'yladi Omobono.

Odamchalar o'n minut ichida temir yo'lga o'xshash bir narsani qurib tashlashdi, uning bir uchi tuxum teshigiga tutashib, ikkinchi uchi tuxum atrofidan gir aylana hosil qilib, radiusi ellik santimetr keladigan doira tashkil etgandi. Oradan hayal o'tmasdan tuxum ichidan uzunligi gugurt cho'pidan katta bo'lmagan yigirmata vagonni tortganicha poezd chiqib keldi. Lokomotiv (aftidan, bu elektrovoz bo'lsa kerak, chunki undan tutun buruqsimasdi) uncha katta ko'rinmasa ham tortish kuchi juda katta ko'rinardi. Xuddi o'yinchoq poezddek, bu poezd ham temir yo'l ustidan yurib borardi. U tez-tez to'xtar, odamchalar vagonlardan nimalarnidir tushirardilar. Shu mahal Omobono qayerdadir zarrabini borligini eslab qoldi. Uni idish-tovoq turadigan javon tortmasidan topdi-da, odamchalarning ishini kuzata boshladi. Odamchalar avttomobillar, velosipedlar, traktorlar, yuk ko'taruvchi kranlar, qurilish tuzilmalari, uylarning qismlari, eshiklar, derazalar, turli xil mebellar va son-sanoqsiz, turli-tuman yengil mashinalarni tushirdilar. Vagonlarni bo'shatib bo'lishgach, shu zahotiyoyq oldindan o'ylab qo'yilgan aniq rejaga amal qilinayotgandek, narsalarni har tarafga tashirdilar. Ammo bu reja

siri tez orada Omobonoga ham ayon bo'ldi: ular stol ustida butun boshli shahar qurishyapti-ku. Tag'in shunaqanggi qotirib ishlashyaptiki!

Poezd doirani bir aylanib o'tib, yana teshikdan tuxum ichiga sho'ng'ib ketar, dam o'tmay yana yuk bilan qaytib chiqardi. Undan tashqari, tuxum ichidan tinimsiz yangi-yangi odamchalar chiqib kelardi. Omobono ularni oldiniga o'nlab, so'ng yuzlab sanadi-yu, oxiri sanoqdan ham adashib ketdi, endilikda ular o'n mingdan oz emasliklari ayon edi. Tuxum ichidan qo'sh-qo'sh bo'lib, guruh-guruh bo'lib, yakka-yakka bo'lib butunlay yangi odamchalar chiqar edi. Chiqayotganlar chamasi, endi qayoqqa borishlarini juda yaxshi bilishardi, chunki tuxum teshigidan chiqishlari bilan hech ikkilanmay shaharning u yoki bu dahasiga qarab yo'l olar edilar... Ha-ha, allaqachon dahalar, ko'chalar paydo bo'lib, mashinalar uyoqdan-buyoqqa g'izillab o'tib turardi, yo'lovchilar qayoqdadir oshiqishardi, magazinlar ishlar, uy derazalaridan odamlar boshlarini chiqarib, yon-atrofni tomosha qilardilar, hovlidagi maydonchalarda bolalar g'ujg'on o'ynardi.

– Barakalla!– hayron qoldi Omobono, zarrabin yordamida shaharning goh u, goh boshqa burchagini tomosha qilar ekan.

Keyin birdan tuxum ichidan yilqilar yelday yugurib chiqdi, ularning ketidan itlar, mushuklar, qushlar uchib chiqdi – ular shu qadar kichkina ediki, zo'rga ko'zga chalinardi, chivincha ham kelmasdi. Ular uylarning tomlari ustidan aylanib uchishar, ba'zilari hatto o'zlariga in qura boshlagandi.

Omobono hayron qolganidan qo'lidagi zarrabinni tushirib yubordi. Baxtiga u shahar yonginasiga borib tushdi, bo'lmasa, kim biladi deysiz, bitta-yarimtani bosib qolishi hech gap emasdi-da. Shu mahal odamchalar turgan joylarida qotib qolishdi. Chamasi, zarrabinning stol ustiga

kelib tushishi ularga dahshatli momoqaldiraqday tuyulgan bo'lsa kerak. Keyin kimdir ularni tinchlantirganday bo'ldi, ular yana qayta ishlarini davom ettiraverishdi.

– Afsus, ular nima haqda so'zlashayotganlarini eshitib bo'lmaydi-da,– xafa bo'ldi Omobono. – Tavba, bu ne hol, bu ne mojaro bo'ldi o'zi...

Shu payt uning miyasiga bir fikr keldi. U uydan chiqib asta eshikni qulfladi-da, zarur bo'lib qolgan narsani topish niyatida yo'lga tushdi.

Magazin sotuvchisi juda hayron bo'ldi:

– Ovoz kuchaytirgich deysizmi? Dinamikmi, mikrofonmi? Sizga bular nimaga kerak bo'lib qoldi?

– Chumolilar nima haqda gaplashayotganlarini eshitib ko'rmoqchiman,– gapni bo'ldi Omobono. – Darvoqe, sizning nima ishingiz bor? Necha pul turishini ayting, vassalom.

– Bo'pti, bo'pti, xafa bo'lmang. Aytganingizdek, mening ishim – molni sotish, bu narsalar kimga va nimaga zarurligi men uchun bir pul.

– Ha, bu boshqa gap. Xo'sh, necha pul turarkan?

Omobono pulni to'ladi, sotuvchidan bu moslamalardan foydalanishni so'rab bildi-da, uyiga ravona bo'ldi, yo'l-yo'lakay unga qayrilib qarayotgan yo'lovchilarga ham e'tibor qilmadi, chunki uni doimo belkurak yoki bo'lmasa yelkasiga, tashlab olgan dastakli so'qa bilan ko'rishga ular odatlanib qolishgan edida.

Uyda Omobono yangi mojaro ustidan chiqdi.

– Jin ursin, qasam ichib aytamanki, odamchalarning bo'ylari o'sib, shahar shattalashibdi, uylar balandlashibdi. Ular rezinkadan yasalmaganki, bunchalik tez kengayishib ketishsa.

Endilikda shahar deyarli butun stolni egallardi, odamchalar ikki barobar ko'paygandi.

– Qani ko'raylik-chi,– dedi o'zicha Omobono, – bundan nima chiqarkin? – U moslamalarni magazinchi tushuntirganday qilib joylashtirdi, telegrafchilarga o'xshab

qulog‘iga naushnikni tutdi-da, ovoz ushlagichini moslab, tinglay boshladi. Endi ovozlari balad va aniq eshitilib turardi: dvigatelning tovushi, motorlar shovqini, bolalarning qichqirig‘i va qurilish maydonidagi ovozlari, tuxum ichiga tinmay kirib-chiqib turgan poezdning taqa-tuqi va hokazo.

– Allo, allo! – to‘satdan boshqa hamma tovushlarni bosuvchi jarangdor ovozni eshitdi u.

Shu on boshqa tovushlar tinib, mashinalar to‘xtadi va sha har sukunatga cho‘kdi.

– Diqqat! Diqqat! Yerliklar bilan aloqa o‘rnatamiz! Bizga uning maqsadi qorong‘u, shuning uchun Kichik Trevoga e‘lon qilinadi!

– Ol-a! – hayron bo‘ldi Omobono. – Ular men bilan gaplashishmoqchi... Fahmlashimcha, aynan men bilan, chunki bu yerda yagona yerlik men-da... Hm, ular-chi? Ular yerlik emasmikinlar? Axir, ular mening tovug‘im tuxumidan chiqqan-ku!

– Allo, allo! – yana naushnikdan ovoz yangradi. – Bizni eshitayotgan yerlikka murojaat etyapmiz. Sizga yaxshi eshityaptimi?

– Juda yaxshi eshityapti! – javob qildi Omobono. – Faqat menga tushuntirib beringlar, sizlar kimsizlar va mening tovug‘im tuxumi ichida nima qilib yuribsizlar?

– Avvalo, sizni ogohlantirib qo‘yaylik, – javob keldi u yoqdan. – Siz bizga biron-bir yomonlik qilish imkoniyatidan mahrumsiz. Bizning kichkinaligimiz sizni yanglish fikrga olib kelmasligi kerak. Biz har qanday tajovuzkorlikdan jonimizni saqlab qola olamiz. Boz ustiga, biz unga qutqu ham solmoqchi emasmiz.

– Yaxshi o‘ylabsiz, – javob qildi Omobono. – Yana nima demoqchisiz, qulog‘im sizda.

– Shuni bilib qo‘yingki, biz juda olis va butunlay sizga notanish sayyoradan kelganmiz. Afsuski, so‘nggi asrlarda u joydagi yashash sharoiti toqat qilib bo‘lmaydigan darajaga keldi. Bizning quyoshimiz so‘na boshladi, o‘simliklar

dunyosi halokatga yuz tutdi, shaharlarimiz birin-ketin muz qatlami ostida qolib ketdi. Jon saqlashning faqat birgina yo‘li qolgandi, u ham bo‘lsa sayyorani tashlab ketish va undagi butun jonzotni Koinotning boshqa joylariga ko‘chirish. Siz meni eshityapsizmi?

– Eshityapman, eshityapman, hatto hikoyangizni magnitofonga yozib olyapman.

– Biz ham shunday qilyapmiz. Bizning Jamoatchilikni Qutqarish komitetimiz masalani har taraflama o‘rganib chiqib, quyidagilarni taklif etadi. Sayyoraning barcha sog‘lom yashovchilari va jonivorlari, shuningdek, shaharlar, fabrika va zavodlar, umuman olganda madaniyatimiz taraqqiyoti tufayli yuzaga kelgan jamiki texnika, butun borliq maxsus sistema yordamida – buni sizga tushuntirib o‘tirmayman, chunki siz baribir, hammasini ilg‘ab ololmaysiz...

– Buning uchun katta rahmat!

– Xullasi kalom, butun borliq mikroskop yordamida ko‘rish mumkin bo‘lgan darajada kichraytirilib, qovoq urug‘iga joylashtirilgan va maxsus sistema orqali tortish maydoniga etkazilib, sizlarning Yeringiz tomon irg‘itib tashlangan edi.

– To‘g‘rirog‘i, mening hovlimga... Tovug‘im esa uni yutib yuborgan va tuxum tuqqan... Siz undan chiqqansiz.

– Ha-da, hammasi xuddi siz aytganday bo‘lgan.

– Sizlarning hammangiz qanchasiz?

– Afsuski, juda ozmiz. O‘ttiz milliondan oshmaymiz.

– O‘ttiz nimadan oshmaysiz?

– Milliondan.

– Xo‘sh, siz mendan nima istaysiz? Men uyimda o‘ttiz million mehmonni qanday kutaman? Sizlarning hammaningizni boqishga qanday qurbim etadi? Azizlarim, balki tuxum ichiga qaytganlaringiz durustmidi? Hoy, nima bo‘ldi? Nima bu? Qayoqqa ketdinglar?

– Shahar, mashinalar, odamchalar, temir yo‘l – hammasi birdan g‘oyib bo‘ldi-qoldi, xuddi sehrli tayoqcha buyrug‘i

bilan bo'lgandek, ko'z ochib-yumguncha hech vaqo qolmadi. Stol ustida faqat chaqilgan yashil tuxum tebranib turardi, xolos.

– Sizlar tuxum ichidamisizlar? – so'radi Omobono.

Hech kim javob bermadi. Lekin endi tuxum ichidan xuddi ilgarigidek yana qayta guvillagan tovush eshitalardi. Oradan biroz vaqt o'tgandan so'ng hamma narsa qaytadan boshlandi: bo'ylari tirnoqcha ham kelmaydigan odamchalar yugurib tashqari chiqa boshlashdi... Temir yo'l qurishdi... Uylar qad ko'tardi, mashinalar...Shahar ko'z ochib-yumguncha tiklandi. Bir soat o'tar-o'tmas butun stol yana qayta odamchalar bilan to'ldi va naushniklardan yana ovoz yangradi:

– Allo, allo!

– Eshitaman!–javob berdi Omobono. – Qayoqqa yo'qoldinglar?

– O'zingiz bexosdan Katta Trevoga e'lon qilib yubordingiz-ku, – tushuntirish javobi keldi u yoqdan.

– Men? Qanday qilib? Men hech narsa e'lon qilganim yo'q.

– Gapimizga quloq soling, Xudo xayringizni bersin, endigisiga extiyot bo'ling! Gap shundaki, bu maxsus signalizatsiya kashfiyoti edi. Ko'rganingizdek, u mutlaqo beto'xtov ishlaydigan mexanizm, lekin xavfli tomoni ham bor. Agar: «Tuxumning ichiga!– deyilsa bormi, bo'yimiz kichrayib, hammamiz bir zumda tuxum ichiga kirib ketamiz.

– Buyog'i qulay ekan,– qayd etdi Omobono.

– Unchalik emas. Axir hamma ishni boshqatdan qilishimizga to'g'ri kelyapti-ku... Afsus, endi biz sizning ixtiyoringizda qoldik. Quloq soling, sizga bir qancha taklifimiz bor. Siz yashayotgan sayyorada inson yashamaydigan cho'llar borligi bizga ma'lum, masalan, Sahroyi Kabir, Gobi va boshqalar. Ulardan bittasini bizga

beringlar, texnikamiz yordamida biz uni o'zlashtiraylik-da, yerliklarni hecham bezovta qilmay, o'sha erda yashay boshlaylik.

– Birpas sabr qiling,– dedi Omobono,– siz bo'y haqida nimadir demoqchiydingiz, shekilli? Bo'yingiz yana qancha o'sishii mumkin?

– Bizning o'rtacha bo'yimiz aslida besh metr, lekin siz yerliklarning uzunlik o'lchoviga moslashamiz va hamma narsada odamlarga o'xshab olamiz.

– Sizlar bizning sayyoramizga ega chiqib olmaysizlar, deb kim kafolat bera oladi?

– Siz bizni istagan vaqtingizda tuxum ichiga qaytarishingiz mumkin. Katta Trevoga signalini bilamiz-ku.

Omobono yashil tuxumga qaraganicha o'yga botdi.

– Bilasizmi, – dedi nihoyat. – Men kichik bir tajriba o'tkazmoqchiman.

U atrofga ko'z yugurtirib, nigohi eshik yonidagi mixda osilib turgan quloqchinda to'xtadi va buyruq ohangida:

– Quloqchin, tuxum ichiga!– dedi.

Shu zahotiyuq kuloqchin ko'zdan g'oyib bo'ldi. Omobono zarrabindan tuxum ichiga qaradi, quloqchin tuxumda kichkinagina nuqtadek bo'lib yotardi. Buni ko'rib, u kulib yubordi:

– Mana buni aytmagandingiz-ku!

– Nimani aytmabmiz? Biz sizga hammasini tushuntirib bergandik.

– Tuxum «o'z ichiga» faqat sizlarni emas, boshqa narsalarni ham olishi haqida hech narsa demagandingiz-ku?

– To'g'risi, buni o'zimiz ham bilmasdik! Faqat siz hozir o'zingiz ko'rsatdingiz.

– Bo'пти-bo'пти. Bir dehqon koinotdan kelgan o'ttiz million kelgindidan ko'ra xiyla mug'ombirroq bo'lishi mumkin. Butunlay mumkin. Faqat ruxsatingiz bilan tuxumni o'zimga olaman.

Shu orada odamchalar ancha o'sib qolgandilar. Endi ular Omobononing jimjilog'idan ham kattaroq edilar, tuxumdan chiqib kelayotgan kelgindilarning esa oxiri ko'rinay demasdi.

– Ehtimol, tezroq hukumatni ogohlantirish kerakdir, – dedi Omobono, – sizlar tag'in uyimni portlatib yubormanglar. Bilasizmi, men yana nimalar haqida fikr yuritmoqchiman? O'ttiz million odamni Sahroyi Kabirga o'tkazib yuborish – bu hazilakam ish emas-ku. Sizlarning hammaningiz vaqtinchalik uyoqqa, ya'ni izingizga qaytib ketganlaringiz yaxshi emasmi?

Odamchalar o'zaro maslahatlashib oldilar, keyin naushnikdagi ovoz chuqur nafas olib dedi:

– Siz haqsiz. Biz tuxum ichiga qaytamiz...

– Unda xayr, – dedi Omobono.

– Xayr! Azim xalqi, tuxum ichiga!

Dam o'tmay, stol ustidagi hamma narsa g'oyib bo'ldi, faqat chaqilgan yashil tuxumgina mungrayib turardi.

Omobono uni o'zi bilan birga oldi-da, mototsikligaga o'tirib shahar tomon yo'l oldi.

U bo'lgan voqeani bir boshdan hukumat a'zolariga aytib bergani, ya'ni hech narsani ichidan to'qib chiqarmayotgani, buning isboti uchun odamchalarni yana bir marotaba tuxumdan chiqishga buyurgani va qayta tuxum ichiga qaytargani, so'ng hukumat a'zolari bilan birga samolyotda Sahroyi Kabirga uchgani, sahroni Azim xalqiga topshirgani, to ularning bo'yi yerliklar bo'yi bilan baravar bo'lmaguncha ular bilan qolgani, so'ng bo'sh yashil tuxumni chiroyli qutichaga solib o'z qishlog'iga qaytgani haqida to'xtalib o'tirmaymiz.

«U hali ko'p marotaba dilimni chog' qiladi», – dedi o'zicha Omobono.

Haqiqatan ham, bir kuni u tuxumni oldi-da, o'ziga ko'pda yoqmagani bir narsani uning ichiga jo'natdi. U shunday hukm qildi:

– Dunyodagi jamiki zambaraklar – tuxum ichiga!

Xuddi sehr qilingandek, qirg‘in urushlar taqqa to‘xtadi.

Yana bir kuni u: – Barcha chivinlar – tuxum ichiga! – dedi.

Janubiy qutbdan to Shimoliy qutbgacha er kurrasining xech qayeridan hech kim chivin qidirib topa olmadi.

Omobono hech kimga yomonlik qilmadi, chunki uning o‘zi yaxshi odam edi, hatto uning ismi ham yaxshi inson degan ma‘noni anglatardi. U o‘limidan oldin yashil tuxumni urib sindirdi, tuxumdan biror kimsa yomonlik yo‘lida foydalanmasligi uchun po‘stlog‘ini hovonchaga solib tuydi-da, kukunini tomorqasiga sochib yubordi.

Men sizlarga hali tuxum sindirilmagan paytda kunlardan bir kuni uning o‘zi, tuxum ichiga kirish tajribasini boshidan o‘tkazgani haqida gapirib berishim mumkin edi.

– Omobono, tuxum ichiga! – deb buyruq bergandi u o‘z-o‘ziga.

Lekin tuxum ichi shunchalik qorong‘u ediki, u erda o‘tirish g‘oyat zerikarli bo‘lganidan tezroq chiqib ketish taraddudiga tushib qolgandi.



MUNDARIJA

Muhammadsharif Gulxaniy

“Muhammadsharif Gulxaniy va uning “Zarbulmasal” asari	4
Zarbulmasal.....	10

Avaz O‘tar

G‘azallar.....	58
----------------	----

Abay

Nasihatlar (<i>Tarjimon Nosir Fozilov</i>).....	68
---	----

Janni Rodari

Rim ertaklari

“Uchtadan oxiri bor ertaklar” turkumidan

Hurishni eplolmagan kuchukcha.....	137
------------------------------------	-----

“Rim ertaklari” turkumidan

Shahzoda Plombir.....	143
-----------------------	-----

“Telefonda aytilgan ertaklar” turkumidan

Qutbdagi gunafsha	152
Hech qayoqqa olib bormaydigan yo‘l.....	154
G‘alati yomg‘ir.....	158
Polvoning sochi	159
Teskari savollar	161
Ko‘rinmas Tonino.....	163
Yashil tuxum.....	166

Adabiy-badiiy nashr

MAKTAB ADABIYOTI XRESTOMATIYASI

Gulxaniy
ZARBULMASAL

Avaz O'tar
G'AZALLAR

Abay
NASIHATLAR

Janni Rodari
RIM ERTAKLARI

6-sinf
V-jild

G'oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*

Muharrir va to'plovchi *Abdukamol Abdjalilov*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfoyozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhih *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 154. 14.08.09.

Bosishga 2015-yil 15-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 ^{1/32} Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 9.66 shartli bosma toboq. 8,6 nashr tobog‘i.

Adadi 1000 nusxa. 566 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining
G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop eti
100128. Toshkent. Labzak ko‘chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

info@gglit.uz

KITOB – AQL CHIROG'I!

G'AFUR G'ULOM

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

Siz aziz o'quvchilar uchun **44** ta kitobdan iborat

MAKTAB

ADABIYOTI

XRESTOMATIYASI

seriyasini taqdim etadi.

Endi Siz ushbu seriya ostida nashr etilgan kitoblar orqali 5-9-sinf darsliklariga kiritilgan barcha adiblarning asarlarini to'liq shaklda o'qishingiz mumkin.

КИТОб ОПАМИ



Хрестоматия 5-сиф №5 жилд

9789943036826

Цена

8 950,37

сум

ISBN 978-9943-03-682-6



9 789943 036826